“MARKAZIY OSIYO HAMJAMIYATINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA MODELI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

TO‘PLAMI

MATERIALS

OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND MODEL OF THE CENTRAL ASIAN COMMUNITY”

2026-YIL 21-22 MAY

TAHRIR HAY’ATI:

Ma’sul muharrir: Mahmudov U.B., s.f.d.

Muharrirlar: Sangirov B.Yu., s.f.f.d. dots.
Jo‘rayev S.A., s.f.d., prof.
Jumayev R.Z., s.f.d., prof.
Kazakbayev H.I., s.f.f.d.
Berdikulov M.A., dots.
Ametov T.A., t.f.f.d., dots.
Pirmatov D.S.

Dizayner: Zokirov S. S.

“Markaziy Osiyo hamjamiyatining konseptual asoslari va modeli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami (Toshkent sh., 2026-yil 21-22-may). / Toshkent: «Inter PRESS» nashriyoti, 2026. – 332-b.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Markaziy Osiyo hamjamiyatning konseptual asoslari va modelini, mintaqaviy integratsiyaga oid nazariy va konseptual yondashuvlarning ustuvor vazifalarini tadqiq qilish hamda ularning yechimiga oid amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z oldiga maqsad qilgan.

To‘plamda sohada faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar, olimlar, tadqiqotchi hamda talaba-yoshlar tomonidan tayyorlangan maqola va tezislar jamlangan bo‘lib, ilmiy izlanishlar natijalarini Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro integratsiyalashuvi orqali hamjamiyat mavqeini yanada oshirishga va barqaror taraqqiyot strategiyasini ro‘yobga chiqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga oid qator takliflar ilgari surilgan.

Mualliflar anjuman to‘plamida keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi va plagiatdan (ko‘chirmachilikdan) holiligiga shaxsan mas’ul.

Diplomat University, 2026

O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING KONSEPTUAL TRANSFORMATSIYASI: PRAGMATIZM, MILLIY MANFAAT VA KO‘PVEKTORLI DIPLOMATIYA UYG‘UNLIGI

Mahmudov U.
siyosiy fanlar doktori
Diplomat University rektori
Toshkent, O‘zbekiston

Bugun O‘zbekiston ochiq, pragmatik hamda proaktiv tashqi siyosatni izchillik bilan davom ettirmoqda. Bu yondashuv davlat rahbari tomonidan mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlash, uning mintaqaviy va global jarayonlardagi rolini oshirish hamda mamlakat ichida barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida amalga oshirib kelayotgan ongli strategik tanlovidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “ochiq, pragmatik, puxta o‘ylangan va tashabbuskor tashqi siyosatimiz natijasida O‘zbekiston global tinchlik va diplomatiya markazlaridan biriga aylanib bormoqda”[1].

Mamlakatdagi izchil islohotlar - iqtisodiy liberallashuv, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash va infratuzilmaviy rivojlanish tashqi siyosatning mazmunan yangilanishini talab etmoqda. Shu ma’noda, diplomatiya endilikda nafaqat davlatlararo munosabatlarni yuritish mexanizmi, balki iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi amaliy siyosiy vositaga aylanmoqda.

Davlat rahbari tomonidan 2025-yilda 26 ta xorijiy davlatga oliy darajadagi tashriflar amalga oshirilgani, “Markaziy Osiyo plyus” formatlaridagi ko‘p tomonlama muloqotlarning faollashgani hamda so‘nggi yillarda 11 ta davlat bilan strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilib, ularning umumiy soni 19 taga yetgani O‘zbekiston tashqi siyosatining yangi dinamikasini ko‘rsatmoqda[2].

Xalqaro munosabatlar nazariyasida, bu jarayon mamlakat tashqi siyosatining “maqsad - vosita - natija” zanjirida aniq pragmatik mezonlarga tayanayotganini anglatadi. Hans Morgentauning klassik realizmga oid mashhur ta’biri bilan aytganda, “xalqaro siyosat, har qanday siyosat kabi, hokimiyat uchun kurashdir”[3]. Biroq, Yangi O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bu kurash faqat qat’iy geosiyosiy raqobat bilan emas, balki muzokaraviy salohiyat, iqtisodiy

[1] Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatini yangicha tashkil qilish vazifalari belgilab olindi. // Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15 yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. // https://uza.uz/uz/posts/tashqi-ishlar-vazirligi-va-xorijdagi-diplomatik-vakolatxonalar-faoliyatini-yangicha-tashkil-qilish-vazifalari-belgilab-olindi_807372. Murojaat qilingan sanasi: 15.01.2026.

[2] O‘sha joyda.

[3] Morgenthau H.J. Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace. New York: McGraw-Hill, 2006. Iqtibos mazmunan o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

manfaatdorlik, institutlashgan hamkorlik va ishonch kapitalini to‘plash orqali olib borilmoqda.

O‘zbekiston tashqi siyosati transformatsiyasini tahlil qilishda quyidagi nazariy yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Birinchidan, tashqi siyosat transformatsiyasini tahlil qilishda realistik yondashuv muhim nazariy asoslardan biridir. Ushbu yondashuv davlat tashqi siyosatini, avvalo, milliy manfaat, suverenitet, xavfsizlik va kuchlar muvozanati kabi mezonlar orqali ochib beradi.

Ikkinchidan, Robert Keoxeyn va Jozef Nay tomonidan ilgari surilgan kompleks o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi tashqi siyosatning iqtisodiy, texnologik, energetik, transport va gumanitar yo‘nalishlari o‘zaro chambarchas bog‘langanini tushuntirishda muhimdir. Ya’ni, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar faqat harbiy-siyosiy omillar bilan emas, balki savdo, moliya, kommunikatsiya va institutlar orqali ham shakllanadi[4].

Uchinchidan, Robert Patnemning “ikki darajali o‘yin” konsepsiyasi tashqi siyosat va ichki islohotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi. Patnemga ko‘ra, “ko‘plab xalqaro muzokaralar siyosatini ikki darajali o‘yin sifatida tasavvur qilish mumkin”: xalqaro darajada davlatlar o‘zaro kelishuvga erishishga intilsa, ichki darajada hukumat jamiyat, iqtisodiyot va siyosiy institutlar manfaatlari bilan hisoblashadi. O‘zbekiston misolida tashqi siyosatning mamlakat ichidagi iqtisodiy o‘sish, investitsiya, bandlik, ta’lim va infratuzilmaga xizmat qilishi ushbu nazariyaning amaliy ifodasidir[5].

To‘rtinchidan, Barri Buzan va Ole Veverning mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasi Markaziy Osiyodagi o‘zaro bog‘liq xavfsizlik muammolarini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, mintaqadagi davlatlarning xavfsizlik muammolari bir-biridan alohida holda samarali hal etilmaydi[6]. O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan chegara, suv-energetika, transport, migratsiya va xavfsizlik masalalarida konstruktiv muloqotni kuchaytirishi mazkur nazariyaning amaliy tasdig‘i sifatida namoyon bo‘ladi.

[4] Keohane R.O., Nye J.S. Power and Interdependence: World Politics in Transition. Boston: Little, Brown and Company, 1977.

[5] Putnam R.D. Diplomacy and Domestic Politics: The Logic of Two-Level Games. International Organization, 1988. Vol. 42. № 3. –P. 434. Iqtibos mazmunan o‘zbek tiliga tarjima qilindi.

[6] Buzan B., Wæver O. Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge: Cambridge University Press, 2003, p. 44.

Tashqi siyosat transformatsiyasi. Bugungi O‘zbekiston tashqi siyosatida ramziylik emas, natija ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Davlat milliy manfaat rakursidan, imkoniyat va xatarlarni pragmatik tarzda baholab, har bir tashqi siyosiy tashabbusni ichki taraqqiyot maqsadlari bilan bog‘lashga intilmoqda. Bu holat tashqi siyosatni mamlakat modernizatsiyasining tarkibiy qismiga aylantirmoqda.

Bugun xalqaro munosabatlardagi murakkab vaziyat - geosiyosiy keskinlik, global iqtisodiy noaniqlik, transport-logistika zanjirlarining qayta shakllanishi va yirik davlatlar raqobatining kuchayishi sharoitida amaliy natijaga yo‘naltirilgan siyosat har qachongidan muhim. Tashqi siyosatda barqarorlik va muvozanat nafaqat diplomatik maqsad, balki milliy taraqqiyotni ta’minlovchi strategik masaladir.

Hedli Bullga ko‘ra, davlatlar “umumiy manfaatlar va umumiy qadriyatlarni anglagan holda, o‘zaro munosabatlarda muayyan qoidalarga bog‘langanlikni tan olsalar va umumiy institutlar faoliyatida ishtirok etsalar”, xalqaro jamiyat shakllanadi. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy formatlar va strategik sheriklik mexanizmlaridagi faolligi aynan shunday qoidalarga asoslangan hamkorlik muhitini kengaytirishga xizmat qilmoqda[7].

Tashqi siyosatning iqtisodiy o‘lchami. Iqtisodiy diplomatiya tashqi siyosatning markaziy yo‘nalishiga aylanmoqda. 2025-yilda umumiy qiymati 160 milliard dollarlik investitsiya loyihalari hamda savdo shartnomalari bo‘yicha bitimlar imzolangani, tashqi savdo aylanmasining tarixda ilk bor 80 milliard dollardan oshgani, eksport 33,5 milliard dollarga, xorijiy investitsiyalar esa 43 milliard dollardan yuqori ko‘rsatkichga yetgani tashqi siyosatning amaliy natijadorligini ko‘rsatadi[8].

2025-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi; eksport 33,8 milliard dollarga, import esa 47,4 milliard dollarga yetdi[9]. Bu raqamlar tashqi siyosatning iqtisodiy natijalar bilan bevosita bog‘lanayotganini ko‘rsatadi.

Tashqi siyosatning natijadorligi endilikda nafaqat diplomatik bayonotlar yoki protokol tadbirlari bilan, balki ish o‘rinlari, investitsiya loyihalari, eksport bozorlari, infratuzilmaviy o‘zgarishlar orqali baholanmoqda. Bu esa tashqi siyosatni xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida talqin etish imkonini beradi.

[7] Bull H. The Anarchical Society: A Study of Order in World Politics. London: Macmillan, 1977. Iqtibos mazmunan o‘zbek tiliga tarjima qilindi.
[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 15.01.2026.
[9] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, “Uzbekistan’s foreign trade turnover exceeded $81 billion in 2025”, 22.01.2026.

Markaziy Osiyo - yangi geosiyosiy makon. Mintaqaviy hamkorlik O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Ko‘p yillik ishonchsizlik, chegaraviy nizolar, suv-energetika muammolari va logistik cheklovlardan so‘ng Markaziy Osiyoda ishonch va o‘zaro hurmatga asoslangan yangi geosiyosiy muhit shakllandi.

2025-yilda O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi maslahat uchrashuviga mezbonlik qildi. Ushbu formatga Ozarbayjonning qo‘shilishi mintaqaning iqtisodiy va infratuzilmaviy integratsiyasi, transport yo‘laklarini rivojlantirish va o‘zaro bog‘langan yagona makonga aylanishida strategik ahamiyat kasb etdi.

So‘nggi sakkiz yilda Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy yalpi ichki mahsuloti qariyb 2,5 barobar o‘sib, 520 milliard dollarga yetgani, tashqi savdo hajmi 2 barobardan ziyodga oshib, 253 milliard dollarni tashkil qilgani, mintaqaviy davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo qariyb 11 milliard dollarga yetgani va o‘zaro investitsiyalar 5,6 barobarga oshgani mintaqaviy hamkorlikning iqtisodiy asoslari mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi[10].

Prezident ta’biri bilan aytganda, “mintaqaviy hamkorlik borasida boshlangan yangi bosqichning eng muhim yutuqlaridan biri - chegara masalalari uzil-kesil hal etilganidir”. Yaqin o‘tmishda ziddiyat manbai bo‘lgan chegaralar bugun “do‘stlik va hamkorlik ko‘prigi”ga aylanmoqda[11].

Chegaralar, suv-energetika balansi, transport yo‘laklari, Afg‘oniston omili, migratsiya va iqtisodiy bog‘liqlik kabi masalalar alohida davlatlar doirasida emas, balki umummintaqaviy yondashuv asosida hal qilinishi zarur bo‘lgan masalalardir.

Uzoq yillar davomida mintaqada tashqi sheriklar bilan hamkorlik asosan ikki tomonlama formatda qurilgan bo‘lsa, hozirgi kunda yetakchi davlatlar va integratsion tuzilmalar Markaziy Osiyo bilan to‘laqonli mintaqaviy subyekt sifatida munosabat o‘rnatmoqda. Bu holat mintaqaning xalqaro maydondagi manfaatlarini tizimli tarzda ilgari surishga sharoit yaratish barobarida, geosiyosiy raqobat obyektidan mintaqaviy tashabbus subyektiga aylantirdi.

[10] “Central Asia on the threshold of a new era”, O‘zbekiston Respublikasi TIV materiallari, 13.11.2025.
[11] O‘sha ошнвфтапва.

Yetakchi davlatlar va integratsion tuzilmalar bilan hamkorlik

AQSh bilan munosabatlar. AQSh O‘zbekistonning G‘arbiy yarim shardagi ishonchli hamkorlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar yangi dinamik mazmun kasb etmoqda. 2025-yilda O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi siyosiy muloqotning faollashuvi, davlat rahbarlari darajasidagi uchrashuvlar hamda C5+1 formatidagi hamkorlikning institutsionallashuvi ikki tomonlama munosabatlar uchun muhim bosqich bo‘ldi.

C5+1 formati dastlab muloqot va muvofiqlashtirish maydoni sifatida shakllangan bo‘lsa, hozirda u aniq iqtisodiy kelishuvlar, transport-logistika, energetika, xavfsizlik, ta’lim va texnologik hamkorlikni ilgari suruvchi platformaga aylanmoqda. 2025-yil noyabr oyida AQSh va O‘zbekiston savdo-iqtisodiy kelishuviga ko‘ra, O‘zbekiston keyingi uch yilda AQShning bir qator tarmoqlariga 35 milliard dollar, keyingi o‘n yilda esa 100 milliard dollardan ortiq hajmda investitsiya kiritishni rejalashtirgan.[12]

Patnemga ko‘ra, tashqi kelishuvlar ichki iqtisodiy modernizatsiya, texnologik yangilanish va investitsion faollikka xizmat qilgan taqdirdagina barqaror siyosiy ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, AQSh bilan hamkorlik nafaqat geosiyosiy balans, balki iqtisodiyotini global qiymat zanjirlariga bog‘lashning muhim yo‘nalishidir.

Ikki tomonlama hamkorlikda ta’lim, fan, madaniyat va gumanitar sohalar ham alohida o‘rin tutadi. Talabalar almashinuvi, qo‘shma ilmiy loyihalar, raqamli texnologiyalar, tibbiyot va qishloq xo‘jaligi texnologiyalari sohasidagi hamkorlik O‘zbekistonning inson kapitali va innovatsion salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa Jozef Nay ta’riflagan “yumshoq kuch” kategoriyasining amaliy ifodasidir.

Yevropa Ittifoqi – kutilgan hamkor. So‘nggi yillardagi tashqi siyosatdagi tizimli o‘zgarishlar Bryusselda ijobiy qabul qilinib, siyosiy muloqotning sezilarli darajada jonlanishiga olib keldi. 2025-yilda Samarqandda birinchi “Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi” sammitining o‘tkazilishi mintaqa va YeI munosabatlarida tarixiy voqea bo‘ldi. Yevropa Kengashi va Yevropa Komissiyasining qo‘shma bayonotida ushbu sammit orqali YeI va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi hamkorlik strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani, shuningdek, transport aloqalari, muhim xomashyo resurslari, raqamlashtirish, suv va energetika sohalari uchun 12 milliard yevrolik Global Gateway investitsiya paketi ishga tushirilayotgani qayd etildi[13].

2025-yil 24-oktyabr kuni Bryusselda Kengaytirilgan hamkorlik va sheriklik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Ushbu hujjat 1996-yilda imzolangan Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimga asoslangan huquqiy bazani yangilab, hamkor

[12] Reuters, “Trump says US, Uzbekistan reach trade deal”, 07.11.2025.
[13] Council of the European Union, “Joint press release following the first EU-Central Asia summit”, 04.04.2025.

ko‘lamini sezilarli darajada kengaytiradi. Mazkur bitimning imzolanishini O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasi, qonun ustuvorligi, barqaror rivojlanish, raqamlashtirish hamda energetik transformatsiya sohalarida YeI bilan yangi institutsional bog‘lanish mexanizmi sifatida baholash mumkin[14].

Xitoy bilan keng ko‘lamli hamkorlik. Xitoy eng yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri sifatida mamlakat tashqi siyosatida alohida o‘rin tutadi. Infratuzilma, energetika, transport, sanoat kooperatsiyasi, maxsus iqtisodiy zonalar, texnoparklar, “yashil” energetika va raqamli texnologiyalar sohasidagi hamkorlikda Xitoy strategik hamkor sanaladi.

2024-yilda o‘zaro tovar ayirboshlash 14 milliard dollarga, investitsiya loyihalari portfeli esa 60 milliard dollardan oshgan bo‘lib, savdo va investitsiya, texnologiyalar, transport, turizm, madaniy-gumanitar yo‘nalishlarda hamkorlik ko‘lami sezilarli darajada kengaygan[15].

2025-yil iyun oyida Samarqandda “O‘zbekiston - Xitoy” ikkinchi mintaqalararo forumi o‘tkazildi. “Markaziy Osiyo - Xitoy” sammiti doirasida davlat rahbarlari strategik hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyot, transport, “yashil” energetika, investitsiyalar va savdo bo‘yicha yangi loyihalarni muhokama qildilar. Xitoyning Markaziy Osiyo bilan savdo aylanmasi 2025-yil yakunlariga ko‘ra 106,3 milliard dollarga yetgani mintaqaning Yevroosiyo iqtisodiy geografiyasidagi o‘rni kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.[16] Bu jarayonda O‘zbekiston uchun asosiy vazifa faqat savdo hajmini oshirish emas, balki iqtisodiy hamkorlikni yuqori qo‘shilgan qiymat, texnologiya transferi, lokalizatsiya, logistika va eksport diversifikatsiyasi bilan bog‘lashdan iborat.

Mamlakatimizning bugungi tashqi siyosat modelini “pragmatik-ko‘pvektorlilik” deb tavsiflash maqsadga muvofiq. Ushbu model uchta muhim vazifani bajaradi. Birinchidan, u mamlakatning geosiyosiy muvozanatini saqlaydi. Ikkinchidan, iqtisodiy taraqqiyot uchun tashqi resurslar, bozorlar va texnologiyalarni jalb etadi. Uchinchidan, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash orqali milliy xavfsizlikni ta’minlaydi.

Bunday yondashuv mamlakatni xalqaro munosabatlar subyekti sifatida o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash barobarida, ichki taraqqiyotni rag‘batlantiruvchi institutsional mexanizm sifatida talqin qilish imkoniyatini beradi.

Tashqi siyosat va ichki islohotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchaygani sari diplomatiyaning samaradorlik mezonlari ham o‘zgarmoqda: endilikda diplomatik

[14] European Commission / Council of the European Union, “EU-Uzbekistan Enhanced Partnership and Cooperation Agreement”, 24.10.2025.
[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, “Leaders of Uzbekistan and China discuss issues of further expanding practical cooperation”, 17.06.2025.
[16] Ministry of Commerce of the People’s Republic of China ma’lumotlari asosida: “Trade turnover between China and Central Asia increased by 12% by the end of 2025”, 21.01.2026.

faoliyat natijasi investitsiya, eksport, ish o‘rinlari, texnologiya, ta’lim va ijtimoiy farovonlik ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanmoqda.

Albatta, mazkur model muayyan xatarlarni ham inkor etmaydi. Yirik davlatlar raqobatining kuchayishi, sanksiyalar rejimi, transport yo‘laklaridagi beqarorlik, energetika bozorlaridagi noaniqlik hamda mintaqaviy xavfsizlik tahdidlari O‘zbekiston tashqi siyosatida ehtiyotkorlik, institutsionallashgan muloqot va strategik avtonomiyani saqlashni talab qiladi. Pragmatik ko‘pvektorlilik har bir hamkorlik yo‘nalishida milliy manfaatlar, huquqiy kafolatlar hamda uzoq muddatli samaradorlikni ta’minlashni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Morgenthau, H. J. (2006). Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace. New York: McGraw-Hill.

2. Keohane, R. O., & Nye, J. S. (1977). Power and Interdependence: World Politics in Transition. Boston: Little, Brown and Company.

3. Putnam, R. D. (1988). Diplomacy and Domestic Politics: The Logic of Two-Level Games. International Organization, 42(3).

4. Nye, J. S. (2004). Soft Power: The Means to Success in World Politics. New York: PublicAffairs.

5. Bull, H. (1977). The Anarchical Society: A Study of Order in World Politics. London: Macmillan.

6. Buzan, B., & Wæver, O. (2003). Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge: Cambridge University Press.

7. Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatini yangicha tashkil qilish vazifalari belgilab olindi. // Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15 yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. // https://uza.uz/uz/posts/tashqi-ishlar-vazirligi-va-xorijdagi-diplomatik-vakolatxonalar-faoliyatini-yangicha-tashkil-qilish-vazifalari-belgilab-olindi_807372. Murojaat qilingan sanasi: 15.01.2026.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. (2025, 17-iyun). Leaders of Uzbekistan and China discuss issues of further expanding practical cooperation. www.president.uz.

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026, 22-yanvar). Uzbekistan’s foreign trade turnover exceeded $81 billion in 2025. www.stat.uz.

10. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. (2025, 13-noyabr). Central Asia on the threshold of a new era.

11. Reuters. (2025, 7-noyabr). Trump says US, Uzbekistan reach trade deal.

12. Council of the European Union. (2025, 4-aprel). Joint press release following the first EU-Central Asia summit. www.consilium.europa.eu.

13. European Commission / Council of the European Union. (2025, 24-oktyabr). EU-Uzbekistan Enhanced Partnership and Cooperation Agreement. ec.europa.eu.

14. Ministry of Commerce of the People’s Republic of China. (2026, 21-yanvar). Trade turnover between China and Central Asia increased by 12% by the end of 2025.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ УЗБЕКИСТАНА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ И ЮЖНОЙ АЗИИ

Джумаев Р.
доктор политических наук, профессор
Diplomat University
Ташкент, Узбекистан

Общепризнанно – Республика Узбекистан проводит открытую, взаимовыгодную и конструктивную внешнюю политику, основываясь на национальных интересах страны. Современный внешнеполитический курс республики строится с учетом динамично меняющейся ситуации в мире и регионе, а также масштабных внутренних преобразований в стране. Главная цель внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан – упрочение независимости и суверенитета государства, укрепление его места и роли на международной арене, создание вокруг страны пояса безопасности и стабильности, активное продвижение внешнеэкономических интересов республики. Принципиальной позицией внешней политики республики является приверженность курсу неприсоединения к любым военно-политическим блокам, недопущения размещения иностранных военных баз и объектов на своей территории и неучастия военнослужащих страны в миротворческих операциях за рубежом, решения всех противоречий и конфликтов только мирным политическим путем.

Для достижения этой цели поставлены следующие задачи:

- формирование максимально благоприятных внешнеполитических условий для эффективной реализации проводимых в стране демократических реформ и динамичных процессов модернизации общества и экономики;

- сохранение и укрепление мира и стабильности в Центральной Азии, превращение региона в зону безопасности и устойчивого развития;

- формирование сбалансированной многоплановой системы стратегического партнерства с ведущими государствами мира и международными организациями;

- продвижение международных инициатив Узбекистана по важнейшим направлениям региональной и международной политики;

- содействие в увеличении объема экспорта отечественной продукции и расширении его географии;

- активное содействие привлечению прямых иностранных инвестиций и передовых технологий в приоритетные отрасли национальной экономики;

- содействие привлечению иностранных туристов и развитию туристской инфраструктуры республики;

- оказание содействие в расширении и углублении сотрудничества в сфере транспорта и транзита, развитии международных транспортных коммуникаций и логистической инфраструктуры;

- обеспечение всесторонней защиты прав и интересов граждан и юридических лиц Республики Узбекистан за пределами республики;

- укрепление связей с соотечественниками, проживающими за рубежом.

Главным приоритетом внешней политики является регион Центральной Азии. Политика Узбекистана в Центральной Азии направлена на обеспечение мира и стабильности в регионе, решение ключевых проблем региональной безопасности, включая содействие урегулированию ситуации в Афганистане. Узбекская сторона прилагает все усилия для укрепления региональной торгово-экономической кооперации, развития региональной транспортно-транзитной инфраструктуры, обеспечения рационального и комплексного использования водно-энергетических ресурсов трансграничных рек Центральной Азии и экологической устойчивости региона, завершения процессов делимитации и демаркации границ.

Узбекистан заинтересован в укреплении дружественных и добрососедских связей со странами региона, развитии с ними научно-технического и культурно-гуманитарного сотрудничества, усилении контактов между парламентами, приграничными регионами, общественными организациями и простыми гражданами.

Интересам стран ЦА отвечает также совместное создание в регионе международных транспортных коридоров и международной транспортной инфраструктуры, которая будет способствовать снижению транспортных издержек при поставках экспортной продукции стран ЦА на мировые рынки.

Следует отметить, что все страны региона ЦА заинтересованы в наращивании объемов экспорта и диверсификации своей внешней торговли, выхода на новые внешние рынки, а также создании и использовании новых транспортных маршрутов.

Интерес мирового сообщества к трансформационным процессам в Центральной Азии, и в частности- в Узбекистане, не случаен. Ведь благодаря

усилиям руководства Нового Узбекистана и сотрудничеству с лидерами соседних стран удалось решить многолетние проблемы, связанные с водопользованием, транспортными коридорами, государственными границами.

Политика всё большей открытости Узбекистана и стран региона миру превращается в главное условие обеспечения безопасности и устойчивого, мирного развития Центральной Азии, консолидации и процветания народов данного региона.

Исходя из огромного исторического, научного и духовно-культурного наследия наших народов, взаимодополняемости экономик, наличия интеллектуального потенциала, консолидация совместных усилий, несомненно, даст мощный эффект в кооперации и сотрудничестве стран Центральной и Южной Азии. Взаимосвязанность, сотрудничество, диалог и самое главное – доверие являются, по мнению Президента Шавката Мирзиёева, движущей силой для обеспечения стабильности и устойчивого развития, повышения уровня жизни и благополучия народов наших регионов. Такой подход – веление времени. Все это создает необходимые предпосылки для формирования с одной стороны, пространства межрегионального сотрудничества и партнерства, свободного от конфликтов и социально-экономических потрясений, а с другой – обширного рынка для товаров и услуг, инвестиций и инноваций.

Расширение и укрепление связей Узбекистана и стран Южной Азии вызвано следующим:

Во-первых, укрепление мира и дружбы, доверия и добрососедства, расширение взаимовыгодного сотрудничества между нашими странами, выстраивание открытой и конструктивной политики отвечают общим интересам всех государств Центральной и Южной Азии.

Во-вторых, Узбекистан выступает за формирование устойчивых торгово-экономических и транспортно-коммуникационных связей, что должно стать основным драйвером дальнейшего развития наших стран на долгосрочную перспективу.

В-третьих, главным условием устойчивого развития наших регионов и укрепления партнерства являются безопасность и стабильность. Безопасность Центральной и Южной Азии неделима, и обеспечить ее можно лишь путем конструктивного диалога и совместными усилиями.

Президент Ш.Мирзиёев подчёркивает, что активный и конструктивный диалог между странами Центральной и Южной Азии откроет новые возможности для более полной реализации их торгово-экономического и культурно-цивилизационного потенциала.

Руководством Республики Узбекистан сформулированы стратегические приоритеты в расширении и укреплении сотрудничества двух регионов. Одной из основных задач является формирование благоприятных условий для развития торгово-экономических связей и роста взаимных инвестиций.

Практическим вкладом в решение этих вопросов стала бы выработка и реализация действенных мер для свободного движения инвестиций, товаров и услуг, формирования развитой системы транспортных коммуникаций и энергетической инфраструктуры.

Подобно тому, как это делали наши общие предки, созывая меджлисы и курултаи, лойя джирга, васи мушаварат и сабха, предложено ежегодное проведение межрегионального форума для обсуждения актуальных вопросов расширения экономической повестки сотрудничества, углубления кооперации и инвестиционного взаимодействия наших стран.

Рекомендации и предложения, выработанные в рамках такого диалога, можно трансформировать в конкретные программы и проекты, направленные на создание новых рабочих мест, развитие потенциала и обеспечение устойчивого роста наших экономик. Кроме того, Узбекистан выступил с инициативой совместного экспертного изучения вопроса о заключении многостороннего Соглашения об экономическом сотрудничестве стран наших регионов, а также создания современной, эффективной и безопасной транспортно-логистической инфраструктуры в Центральной и Южной Азии.

Необходимо разработать конкретные меры по реализации цифровой взаимосвязанности – в области торговли, транзита и пересечения границ, принять Стратегию совместных действий. К данной работе важно привлечь ведущих экспертов наших стран, а также специализированных учреждений ООН. Необходим совместный поиск путей обеспечения продовольственной безопасности в нашем обширном регионе. В последнее время наблюдается стремительный рост цен на основные продукты питания, в отдельных регионах мира население испытывает их острую нехватку.

Президент Узбекистана предложил под эгидой Продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН (ФАО) провести встречу министров сельского хозяйства наших стран для выработки Программы по преодолению этих вызовов. Этот документ должен предусматривать проведение совместных разработок и исследований, внедрение передовых технологий, реализацию проектов производственной кооперации.

Немаловажное значение имеет консолидация усилий в борьбе с общими вызовами и угрозами стабильности и безопасности. Лишь сообща можно более эффективно противостоять терроризму, экстремизму, транснациональной преступности, в том числе в киберпространстве. В качестве первого шага было

предложено разработать Совместный антинаркотический план действий, с участием Управления ООН по наркотикам и преступности.

Еще одним важным направлением, по которому необходимо скоординировать усилия, является борьба с угрозой терроризма. Ташкент в 2022 году организовал специальную экспертную встречу по этим вопросам с участием представителей двух регионов. Эта встреча прошла на полях прошедшей в ноябре 2022 года в Ташкенте международной конференции, посвященной десятилетию принятия Совместного плана действий по реализации Глобальной контртеррористической стратегии ООН в Центральной Азии.

Самого пристального внимания требуют вопросы экологии и стимулирования «зеленого» развития. Во всех странах Центральной и Южной Азии происходит бурный промышленный и демографический рост на фоне глобального изменения климата. В этих условиях общими проблемами являются нехватка воды, загрязнение атмосферы и окружающей среды, деградация почв и опустынивание. Печальным последствием крайне негативного влияния экологических вызовов является проблема высыхания Аральского моря, которая все больше приобретает планетарный характер. Необходимо принять все возможные меры по смягчению его последствий, а также предупреждению подобных катастроф в будущем, опираясь на опыт наших предков, которые стремились жить в гармонии с природой.

В целях более полного раскрытия уникального туристического потенциала Центральной и Южной Азии необходимы узнаваемые туристические бренды, новые, доступные продукты и маршруты, особенно учитывая растущий интерес к паломническому туризму, широкое внедрение концепции «Туризм в новых условиях», с взаимным признанием сертификатов о вакцинации. В этом контексте предложено разработать в рамках Всемирной туристической организации Программу по Центральной и Южной Азии, которая будет направлена на популяризацию исторического и культурного наследия наших народов.

Расширение научных и культурно-гуманитарных обменов является одним из важных условий укрепления дружбы и доверия. Приоритетное значение приобретает реализация совместных программ в сфере образования и науки, культуры и спорта, с широким вовлечением молодежи, которая составляет большую часть населения наших государств.

Важным фактором ускоренного развития наших стран выступают высокие достижения в области науки, технологий и инноваций. Необходимо поощрять проведение совместных исследований и инновационных работ, организацию научных и учебных стажировок, программ обмена опытом.

Руководство нашей страны в этой связи предлагает внедрить облегченный визовый режим для ученых и исследователей, а также создать онлайн-платформу сотрудничества университетов и научно-исследовательских центров стран Центральной и Южной Азии.

Сегодня как никогда важна выработка продуманных решений на основе системного изучения и анализа тенденций развития и взаимосвязанности наших регионов. В 2021 году был открыт Международный институт Центральной Азии. На базе данного аналитического центра создан постоянно действующий экспертный пул из видных ученых и исследователей стран двух регионов для продвижения научного сотрудничества.

Учитывая, что в настоящее время, основные торговые маршруты стран ЦА, проложенные в северном направлении, встречают определённые трудности, в целях диверсификации внешней торговли, перспективным направлением экономического сотрудничества является южное направление, в том числе со странами Южной Азии, к которой географически относятся Афганистан, Бангладеш, Бутан, Мальдивы, Непал, Пакистан, Индия и Шри Ланка.

Узбекистан и далее будет расширять связи с Афганистаном, активно участвовать в международных усилиях по мирному урегулированию ситуации в этой стране. Узбекская сторона продолжит содействовать экономическому восстановлению Афганистана, развитию его транспортной, производственной, энергетической и социальной инфраструктуры. Стабильный и процветающий Афганистан является залогом региональной безопасности в Центральной Азии. Важными направлениями двустороннего сотрудничества являются содействие установлению мира и стабильности в Афганистане, борьба с транснациональными угрозами и вызовами.

В товарообороте с Афганистаном основную долю (99,7%) занимает экспорт Узбекистана, что делает Афганистан выгодным торгов-экономическим партнером. Основную долю экспорта Узбекистана в Афганистан составляет электроэнергия (30% от объема экспорта), пшеничная мука и бобовые (24,1%), а также металлургическая продукция.[17]

На территории Афганистана планируется также реализация инвестиционного проекта «Строительства линии электропередачи 500 кВт «Сурхан – Пули-Хумри», протяженностью 260 км. и стоимостью порядка 150 млн.долл., за счет кредитов АБР, из них Узбекистан профинансирует 45

[17] Rahmatov L. Dunyo mamlakatlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 55-64-b.b.

млн.долл. Данная ЛЭП позволит подключить энергосистему Афганистана к единой энергетической системе Узбекистана и Центральной Азии[18].

Ведется также сотрудничество по реализации проекта «Финансирование, проектирование и строительство железнодорожной линии «Мазари-Шариф – Герат», которая станет продолжением ж/д линии «Хайратон – Мазари-Шариф» и сформирует новый трансафганский транспортный коридор.

В ноябре 2020 года Президентом были подписаны два важных, касающихся Афганистана, документа - Постановление «О мерах по дальнейшему расширению и укреплению экономического сотрудничества с Исламской Республикой Афганистан» и Указ «О мерах по дальнейшему развитию деятельности специальных экономических и малых промышленных зон в Сурхандарьинской области и городе Ташкенте», которые создают новые правовые условия для укрепления экономического сотрудничества с Афганистаном.

Документами предусматривается подписание между Узбекистаном и Афганистаном соглашения о преференциальной торговле и доведение годового объема взаимной торговли до 2 млрд. долларов к 2024 году.

В этих целях на территории приграничного с Афганистаном города Термез создана зона свободной торговли «Международный торговый центр Термез», с соответствующей логистической инфраструктурой и особым безвизовым режимом для граждан ИРА и иностранных граждан, въезжающих в эту зону с территории Афганистана.

Кроме этого, Постановлением предусмотрена проработка с заинтересованными странами и международными финансовыми институтами всех аспектов проекта строительства железной дороги «Мазари-Шариф-Кабул». В связи с этим, 2 февраля 2021 года в Ташкенте было проведено заседание трёхсторонней рабочей группы с участием правительственных делегаций Узбекистана, Пакистана и Афганистана по реализации данного проекта. По итогам заседания была подписана совместная «Дорожная карта» по реализации проекта строительства железной дороги «Мазари-Шариф – Кабул – Пешавар».

Строительство данной железной дороги позволит существенно сократить сроки и стоимость транспортировки грузов между странами Южной Азии и Европы через Центральную Азию.

Данная железная дорога обеспечит выход на пакистанские морские порты «Карачи», «Касем» и «Гвадар» и свяжет Южноазиатскую железнодорожную систему с Центральноазиатской и Евразийской

[18] Там же.

железнодорожными системами и значительно повысит транзитный потенциал Центральной Азии.[19]

Афганистан играет географически важную роль в продвижении взаимосвязанности Центральной и Южной Азии. Однако Ташкент понимает, что без долгосрочной стабилизации ситуации в областях, непосредственно граничащих с Узбекистаном, рассуждать об устойчивом экономическом развитии страны и всего региона Центральной Азии (ЦА), диверсификации транспортных коридоров, а также о связанности с Южной Азией представляется крайне сложным.

Неудачи в попытках урегулирования ситуации в Афганистане военным путём за последние более чем 40 лет дают понимание о необходимости поиска новых методов умиротворения конфликтного положения в этой стране. Именно социально-экономические проекты, тесно соединяющие афганские территории с соседними странами и регионами, могут дать первоначальный толчок поиску компромиссов между различными афганскими политическими силами.

По мере вовлечения международных сил в стабилизацию ситуации в Афганистане эта страна становилась ключевой площадкой возобновления исторических контактов между Центральной и Южной Азией, жизненно заинтересованных в стабильности соседней страны. В этой связи, ранее выполнявший функции разделяющей регионы Евразии буферной территории, стабильный Афганистан может стать центром нового макрорегиона, соединяющего Центральную и Южную Азию.

Уникальность Афганистана заключается в том, что страна может переформатировать линии разграничения между Центральной и Южной Азией, проходящие внутри её территории, в границу добрососедства, взаимопонимания и доверия и зону разностороннего прогресса. Вероятно, своеобразная граница между Центральной и Южной Азией проходит через центральные провинции Афганистана, при этом северные и северо-западные провинции страны географически ближе к ЦА, а южные и восточные провинции - к ЮА. Природным разделителем Северного Афганистана от остальной части страны служит горная система Гиндикуш, которая протянулась практически через всю центральную часть Афганистана.

Реализация инфраструктурных проектов, объединяющих разделённые провинции Афганистана также обернётся ростом взаимодействия между регионами ЦА и ЮА. Строительство автомобильных и железных дорог,

[19] Ибрагимова У.Н., Ибрагимов Д.Т. Пути повышения транспортного потенциала Центральной Азии: Углубление межрегионального сотрудничества// Сб.науч. пр. IV Междунар.науч.-практ.конф. Транспорт и логистика. – Россия: Ростов-на-Дону, 2020. – С. 94-101.

пересекающих Афганистан как наиболее короткий маршрут соединения регионов, способно подтолкнуть не только рост социально-экономического сотрудничества, но и наращивание политических и культурно-гуманитарных контактов.

С другой стороны, имплементация масштабных экономических проектов может стимулировать создание рабочих мест, генерацию доходов государственного бюджета и цепочек сервисного обеспечения эффективной работы авто- и железных дорог.

Ожидается, что при полной реализации проекта железной дороги «Мазари-Шариф - Кабул - Пешавар» на транспортировку товаров из Пакистана в Узбекистан придется тратить не 35 дней, а всего 3−5 дней. Согласно прогнозным оценкам, расходы на перевозку контейнера от Ташкента до Карачи ориентировочно составят 1400−1600 долларов США, тогда как по уже эксплуатируемому маршруту «Ташкент - Бандар-Аббас» - 2600−3000 долларов США[20].

Возведение железной дороги из Мазари-Шарифа до Пешавара предполагает создание системной инфраструктуры в виде 264 мостов, 7 тоннелей и 641 водопропускных сооружений, которые могут дать новый импульс развитию территорий пересечения в Афганистане и Пакистане. Вместе с тем, длительное время обсуждаются проекты строительства линий электропередач «CASA-1000» из ЦА в ЮА, а также трансафганского газопровода ТАПИ (Туркменистан-Афганистан-Пакистан-Индия), которые также могли бы углубить уровень кооперации соседних регионов и создать полноценную соединенность между Севером и Югом Евразии, оказав стимулирующее воздействие на экономическое развитие различных частей континента[21].

Потенциал экономического сотрудничества между странами Центральной и Южной Азию, в частности, Узбекистана, следующие. Общий объем внешней торговли Узбекистана со странами Южной Азии в 2022г. составил около 1,5 млрд. долл. или порядка 4% от общего объема внешней торговли. В товарообороте Узбекистана со странами Южной Азии, наибольший объем приходится на Афганистан - 56,2%, Индию - 32% и Пакистан - 8,9%. Товарооборот с Шри-Ланкой, Мальдивами и Непалом

[20] Ибрагимова У.Н., Ибрагимов Д.Т. Пути повышения транспортного потенциала Центральной Азии: Углубление межрегионального сотрудничества// Сб.науч. пр. IV Междунар.науч.-практ.конф. Транспорт и логистика. – Ростов-на-Дону, 2020. – С. 94-101.
[21] Там же

составляет незначительные объемы, а с Бутаном торговля практически не ведется[22].

Индия занимает второе место по объемам товарооборота Узбекистана с странами Южной Азии. В то же время, во взаимной торговле с Индией объемы экспорта Узбекистана значительно отстают от импорта, который в основном представлен востребованной в Узбекистане фармацевтической продукцией. Экспорт Узбекистана в Индию состоит в основном из текстильной продукции (доля 13,6%), недрагоценных металлов (8,4%), продовольственных товаров (5,8%) и др. Импорт Узбекистана из Индии растет в основном за счет роста закупок «фармацевтической продукции», доля которой в импорте составляет 47%, вторую позицию с долей 28,6% занимает – «механическое оборудование». При этом с Индией успешно развивается инвестиционное сотрудничество в фармацевтической сфере, созданы совместные предприятия на территории СЭЗ «Андижан-Фарм». Для подготовки IT-специалистов открыты филиалы индийских университетов «Амити» в Ташкенте и «Шарда» в Андижане. В настоящее время ведется изучение целесообразности заключения между Узбекистаном и Индией «Соглашения о преференциальной торговле». Объём взаимного товарооборота сейчас достигает 300 млн. долларов в год[23].

Торгово-экономическое сотрудничество Узбекистана с Пакистаном в последние годы стало активно развиваться, выросли объемы экспорта готовой, преимущественно сельскохозяйственной, продукции на пакистанский рынок. В структуре экспорта Узбекистана в Пакистан: продовольственные товары составляют 81%; текстильная продукция – 10,5%; услуги – 3,5%.В структуре импорта из Пакистана: фармацевтическая продукция занимает 37%; продовольственные товары (картофель, цитрусовые, рис и др.) - 36%, транспортные услуги – 10%; химическая продукция – 4,5%.Кроме этого, Узбекистан заинтересован в расширении сотрудничества с Пакистаном в транспортной сфере и совместной реализации вышеуказанного проекта строительства ж/д линии «Мазари– Шариф – Кабул – Пешавар». Объём взаимного товарооборота составляет порядка 100 млн. долларов в год. Объёмы взаимного товарооборота и экономического сотрудничества с другими странами Южной Азии незначительны (так, объём взаимной торговли с Шри-Ланкой не превышает 55 млн. долларов).

Заключение. Республика Узбекистан выступает за развитие всесторонних и взаимовыгодных отношений со странами Южной Азии в

[22] Хакимов Ф. Южная Азия-стратегически важный регион во внешней политике Узбекистана /Strategy of Uzbekistan. - №1 (2021).
[23] Rahmatov L. Dunyo mamlakatlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 821-b.

торгово-экономической, транспортно-коммуникационной, туристической и других сферах.

Учитывая экспортно-ориентированные модели экономического развития, страны Центральной Азии остро нуждаются в новых рынках сбыта производимых в регионе товаров и услуг. В последнее столетие основными рынками распространения для ЦА служило нынешнее постсоветское пространство. Наряду с позитивными результатами, подобное однобокое развитие направлений экспорта сужало возможности региона по выбору наиболее оптимальных рынков реализации. Ситуацию усугубили российско-украинский конфликт и многочисленные международные санкции, применённые по отношению к России и Беларуси.

Более того, население постсоветских стран в период с 1989 по 2019 годы выросло всего на 4,2% с 285,7 до 297,8 млн человек. При этом основной вклад в этот рост вложили страны Центральной Азии и Азербайджан, а в остальных постсоветских республиках наблюдается неуклонное снижение численности населения, которое к 2050 году может убавиться до 284 млн и быть меньше населения такой страны, как Нигерия.

В этом свете население Южной Азии в 1,95 млрд человек, высокие темпы экономического развития и наличие в этой части света таких ведущих региональных держав как Индия и Пакистан делает регион привлекательным партнером для Центральной Азии. Активизация и укрепление сотрудничества Узбекистана со странами Южно-азиатского региона- веление времени.

Список использованной литературы

1. «Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 78-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединённых Наций” (20.09.2023г.)//https://president.uz/ru/lists/view/6677

2. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на международной конференции «Центральная и Южная Азия: региональная взаимосвязанность. Вызовы и возможности»// Народное слово, 16.07.2021 г.

3. J.Gordon Melton, Martin Baumann. A Comprehensive Encyclopedia of Beliefs and Practices. – England, Oxford: ABC CLIO, 2010.

4. National Geografiphic Atlas of the World. - 7th.-Washington, DC: National Geografiphic, 1999.

5. “Asia” (pp.90-110) : Olivier Roy. The Central Asia : the creation of nations.-I.B.Tauris, 2000.

6. Rahmatov L. Dunyo mamlakatlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 1180-b.

7. Потапов М.А., Салицкий А.И., Шахматов А.В. Экономика современной Азии. – Москва: Международные отношения, 2008.

8. Хакимов Ф. Южная Азия-стратегически важный регион во внешней политике Узбекистана/Strategy of Uzbekistan- №1 (2021)/ISSN 2181

9. Ибрагимова У.Н., Ибрагимов Д.Т. Пути повышения транспортного потенциала Центральной Азии: Углубление межрегионального сотрудничества// Сб.науч. пр. IV Междунар.науч.-практ.конф. Транспорт и логистика. – Россия: Ростов-на-Дону, 2020. – С. 94-101.

MARKAZIY OSIYO HAMJAMIYATINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Tolipov F.
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Bilim karvoni” nodavlat ilmiy muassasasi direktori,
Toshkent, O‘zbekiston

Markaziy Osiyo Davlat Rahbarlarining Toshkentda 2025-yil 16-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan 7-Maslahat Uchrashuvi muhim natijalarni ko‘rsatdi. Unda bir qator qarorlar orasida O‘zbekiston Presidenti Shavkat Mirziyoyev Maslahat Uchrashuvi formatini “Markaziy Osiyo Hamjamiyati” nomiga o‘zgartirishni taklif etdi. Bu faqat formatning nomini formal o‘zgartirish emas, balki uning mazmun-mohiyatining o‘zgarishini anglatadi. 1991-yildan beri mustaqillik davrida beshta Markaziy Osiyo davlatlari – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston – ikkita fundamental tarixiy jarayonni parallel ravishda amalga oshirib keldi: 1) yangi milliy suveren davlatning asoslari va unsurlarini yaratib xalqaro tizimda mustaqil subyekt sifatida rivojlanish; 2) Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy birlashish, ya’ni integratsiyani amalga oshirish.

Ushbu murakkab va turli burilishlarga boy bo‘lgan jarayon bir qator bosqichlardan o‘tdi; unda yuksalish va pasayish, tezlashish va sekinlashish, olg‘a yurish va ortga qaytish kabi tendentsiyalar kuzatildi. Umuman olganda mazkur jarayonda bir necha bosqichlarni ajratishimiz mumkin.

Bosqichlar. 1991-yili Sobiq Sovet Ittifoqi parchalanishi bilan Markaziy Osiyoda yangi beshta mustaqil davlatlari darhol o‘zining mintaqaviy birlashmasini tuzdi, uning nomi Markaziy Osiyo Hamdo‘stligi (MOH). Bu birlashma jiddiy ramziy ma’noga ega edi: garchi u tom ma’noda integratsion tuzlima bo‘lmasada, MDH tuzilishiga javob bo‘ldi va bundan buyon bu davlatlarning integratsion harakatlari avj ola boshladi.

Vaqt otib, 1994-yilga kelib, MOH Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyat (MOIH) nomiga o‘zgartirildi. Bu bosqichda umumiy iqtisodiy makon va umumiy bozor asoslarini yaratish maqsad qilib qo‘yilgan edi; va bu yo‘nalishda ko‘plab qo‘shma loyihalar bo‘yicha hamkorlik olib borildi. 1997-yilda hatto 5 davlat rahbarlari Markaziy Osiyoni Yadroviy Quroldan Holi Zona deb e’lon qilishdi.

2001-yilda MOIH Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkilotiga (MOHT) aylantirildi. Bu esa siyosiy birlashma tomon yo‘l olingaligidan dalolat berdi. Darhaqiqat, bosqichma-bosqich integratsion jarayon aynan mana shunday yuksalib bordi. Mazkur bosqichlar o‘z navbatida Yevropa Ittifoqi intergratsiyasining institutsionallshuviga o‘xshash tarzda davom etdi.

Ammo 2004-yilda MOHTga Rossiya a’zo bo‘lish uchun murojat qildi va tashkilotga kiritildi. O‘shanda Rossiya bilan birgalikda Markaziy Osiyo davlatlari ham MOHT, ham Evro-Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyatga (EOIH) a’zo edi, bu esa ushbu ikki tashkilot bir birini takrorlamoqda deb ular birlashtirildi, natijada MOHT o‘z faoliyatini to‘xtatdi.

O‘shandan beri tahminan 10 yil davomida mintaqamizda integratsion jarayon muzlatilgan holga tushib qoldi; davlatlar ko‘proq ikki tomonlama munosabatlar formatlariga o‘’tib oldi. 2016-yilda O‘zbekistonda yangi Prezident Shavkat Mirziyoyev saylandi. U O‘zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo ustuvor yo‘nalish bo‘ladi deb bayonot qildi va Markaziy Osiyo Davlat Rahbarlarining Maslahat Uchrashuvlari (DRMU) degan formatni tuzish tashabbusini ilgari surdi. Bu tashabbus hamma prezidentlar tomonidan ma’qullandi
Neofunctionalism, introduced by Ernst B. Haas, highlights the concept of spillover, where integration in one sector promotes integration in others [5]. It assigns a central role to supranational institutions.

Intergovernmentalism emphasizes the role of national governments as primary actors in integration processes [3]. According to this theory, states retain control over decision-making and integration outcomes.

Constructivist approaches focus on identity, norms, and social interaction as drivers of integration [6]. Integration is seen as a socially constructed process shaped by shared values.

Global integration processes demonstrate different models:

European Model. The European Union represents the most advanced integration model, characterized by deep institutionalization and political cooperation. Its development confirms the spillover mechanism [5]. Asian Model. The Association of Southeast Asian Nations follows a flexible and consensus-based model, prioritizing sovereignty and non-interference [7]. North American Model. The North American Free Trade Agreement is a market-oriented integration model focused on trade liberalization [1]. It lacks strong supranational institutions but remains effective economically.

The analysis shows that integration cannot be explained by a single theory. Instead, it reflects a combination of institutional, economic, and socio-cultural factors [2]. The European model supports neofunctionalism, while ASEAN demonstrates the viability of a less institutionalized approach [7]. The North American case highlights the role of economic incentives in integration processes [1]. Thus, successful integration depends on a balance between political will, institutional capacity, and shared interests [3].

Integrative Synthesis of Theoretical Paradigms. A critical synthesis of theoretical approaches demonstrates that regional integration cannot be adequately explained within the boundaries of a single paradigm. Instead, integration should be conceptualized as a multi-level and hybrid process, combining elements of functionalism, neofunctionalism, intergovernmentalism, and constructivism.

From a functionalist perspective, sectoral cooperation in areas such as trade, transport, and energy serve as the initial driver of integration [4]. However, as empirical evidence suggests, purely functional cooperation often reaches its limits without institutional reinforcement. This is where neofunctionalism becomes relevant, as the spillover mechanism explains the transition from economic cooperation to political and institutional integration [5]. At the same time, intergovernmentalism provides a necessary corrective by emphasizing the enduring importance of state sovereignty and national interests [3]. Even in highly integrated systems, such as the European Union, key decisions remain under the control of national governments, particularly in sensitive policy areas.

Constructivism adds a crucial socio-cultural dimension by highlighting that integration is not only driven by material interests but also by shared identity, norms,

and values [6]. Without a sense of collective belonging, integration processes may remain superficial and unstable. Thus, the most comprehensive understanding of integration emerges from a synthetic model, where:

- functional cooperation initiates the process,
- institutional mechanisms sustain it,
- political actors regulate it,
- and social identity legitimizes it.

Quantitative Indicators and Measurement of Integration. An important methodological issue in integration studies is the measurement of integration outcomes. Contemporary research increasingly relies on quantitative indicators to assess the depth and effectiveness of integration processes.

Key indicators include:

- Trade integration index (intra-regional trade share).
- Institutionalization index (number and strength of regional institutions).
- Mobility index (movement of labor and students).
- Policy convergence index (harmonization of legislation).

Studies show that regions with higher levels of institutionalization tend to demonstrate more устойчивые интеграционные процессы [2]. At the same time, excessive institutionalization without economic foundations may lead to inefficiency. In the case of the European Union, integration can be quantitatively measured through indicators such as the single market index and monetary integration (Eurozone). In contrast, ASEAN demonstrates moderate levels of institutionalization but relatively high levels of political stability [7]. The integration of quantitative methods into theoretical analysis allows for a more objective assessment of regional dynamics and enhances the predictive capacity of integration studies.

Strategic Outlook: Toward a New Generation of Integration Models. The evolving global environment requires a rethinking of traditional integration models. Contemporary integration is increasingly influenced by digitalization, globalization, and transnational challenges such as climate change and migration.

New-generation integration models are characterized by:

- network-based governance instead of rigid hierarchies
- digital integration platforms facilitating cross-border interaction
- flexible institutional arrangements allowing differentiated participation

These trends suggest that future integration will move toward adaptive and resilient systems, capable of responding to rapid global changes [2]. In this context, hybrid models combining economic pragmatism, institutional flexibility, and socio-cultural cohesion are likely to become dominant. Such models are particularly

relevant for regions with diverse political systems and varying levels of development.

Conclusion. Theoretical approaches to integration provide essential analytical frameworks, but their applicability depends on regional conditions. Global experience shows that integration models differ significantly across regions. A hybrid approach combining functional cooperation, institutional development, and identity-building mechanisms is the most effective path toward sustainable integration.

In addition, the comparative evidence confirms that integration outcomes are path-dependent and contingent upon the alignment of institutional capacity, economic complementarities, and political commitment across member states [2], [3]. Moreover, the incorporation of quantitative indicators and multi-level governance analysis enhances the explanatory and predictive power of integration theory, allowing for more rigorous evaluation of regional dynamics [2].

Finally, the transition toward hybrid and adaptive integration models – combining functional cooperation, flexible institutions, and identity-building mechanisms – offers a viable pathway for achieving long-term sustainability and resilience in regional integration processes [5], [6].

References:

1. Mattli W. The Logic of Regional Integration. Cambridge University Press; 1999. https://doi.org/10.1017/CBO9780511611995.

2. Börzel TA, Risse T. From the euro to the Schengen crises. Journal of European Public Policy. 2018;25(1):83-108. https://doi.org/10.1080 /13501763.2017.1310284.

3. Moravcsik A. The Choice for Europe. Cornell University Press; 1998. https://doi.org/10.7591/9781501724992.

4. Mitrany D. A Working Peace System. Chicago: Quadrangle Books; 1966. https://doi.org/10.1086/ahr/72.3.952.

5. Haas EB. The Uniting of Europe. Stanford University Press; 1958. https://doi.org/10.1515/9780804766319.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN IQTISODIY HAMKORLIGINING SHAKLLANISHI VA MOHIYATI

Shukurov S.
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi dotsenti v.b.

Ma’lumki, “mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi” [1]. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridan Markaziy Osiyo mamlakatlarining ko‘p tomonlama aloqalari va yaqin hamkorligini mustahkamlash va rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat bera boshlagan [2]. Binobarin, bu borada, iqtisodiy hamkorlik muhim rol o‘ynaganligi bois, avvalo iqtisodiy hamkorlik tushunchasi, shakli va mazmun-mohiyatini tahlil etish joiz.

Darhaqiqat, insoniyatning hayoti moddiy, ma’naviy ehtiyojlar va ularni qondirish uchun bo‘lgan harakatlar asosiga qurilgan. Ibtidoiy tuzum sharoitida yashovchi odamlarning ilk ajdodlari iqtisodiy ehtiyoj yo‘lida harakat qilishgan, muayyan darajada urug‘ jamiyatining shakllanishiga tashqi xavf-hatar va boshqa omillar qatorida iqtisodiy ehtiyoj omili ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Ya’ni, primitiv qurollar sharoitida asosiy ozuqa manbai bo‘lgan o‘zlashtirma xo‘jalik ko‘pchilik hisobiga yuritilishi ancha osonroq bo‘lgan. Vaqtlar o‘tishi bilan kishilik jamiyatining rivoji bilan aynan iqtisodiy ehtiyojlar dastlabki o‘zaro to‘qnashuv va urushlarga sabab bo‘lgan. Chunki, har bir urug‘ jamoasi uchun o‘ziga tegishli hudud bu avvalo uni oziq-ovqat bilan ta’minlash imkoniyatga ega bo‘lgan qamrovni tashkil qilgan. Jamoa a’zolari sonining o‘sishi bilan muayyan hududga asoslanuvchi ta’minot masalasi qiyinlashib borgan. Bunday sharoitda ta’minot hududini kengaytirish tabiiy ravishda qo‘shni jamoalar hududiga da’vo qilish barobarida o‘zaro iqtisodiy aloqalar orqali qanoatlantirilgan. Natijada ilk iqtisodiy munosabatlar asosini tashkil qiluvchi ilk aloqa (ularni hali tom ma’noda savdo yo‘llari deb bo‘lmas edi) yo‘llari shakllana boshladi. Bunga quyidagi omillar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan:

- ibtidoiy makonlarni oziq-ovqat va xom ashyo zahiralari mavjud bo‘lgan hududlar bilan bog‘lashga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj;
- turli mintaqalardagi tabiiy sharoit, flora va faunaning turli-tumanligi o‘zaro mahsulot ayirboshlashni taqozo etishi;
- aholining bir hududdan ikkinchisiga ko‘chishi, ya’ni migratsiya jarayonlari [3].

O‘z vaqtida shotlandiyalik taniqli klassik siyosiy iqtisodchi Adam Smit “o‘zining shaxsiy ehtiyojidan ortiqcha bo‘lgan mehnati mahsulotini o‘zi ehtiyoj sezgan boshqa kishilarning shunday (ehtiyojdan ortiqcha) mahsulotiga ayirboshlash imkoniyatiga ishonchi har bir kishini muayyan maxsus mashg‘ulot (ishlab chiqarish)ga bag‘ishlashga va mazkur sohada tabiiy qobiliyatini takomillashtirishga undagan” degan fikrni bildirib o‘tgan edi [4]. Jumladan, Markaziy Osiyo sharoitida

ham tabiiy iqlimning o‘ziga xos xususiyatlari ibtidoiy davrdan boshlab “ixtisosligidagi” mahsulotlar hisobiga jamoalararo mahsulotlar ayirboshlash jarayonining boshlanishiga xizmat qilgan. Mintaqaning turli hududlari o‘rtasidagi ana shunday iqtisodiy aloqalar mazmunidagi mahsulotlar almashinuvi so‘nggi paleolit va mezolit davridan boshlab shakllana boshlagan [5].

Qadimgi sharqda davlatchilikning paydo bo‘lishi va rivoji bilan endi iqtisodiy manfaatdorlik davlatlar o‘rtasidagi katta-katta urushlarga sabab bo‘la boshladi. Ammo turli omillar – davlatlarning bir-biriga nisbatan qudrati tengligi, hududiy o‘ziga xosligi, ya’ni muayyan iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarni faqat muayyan hududlarda ishlab chiqarilishi, iqtisodiy manfaatdorlik urush va qo‘lga kiritiladigan “o‘ljalar” hisobiga samarasizligi kabilar urushlardan qochib iqtisodiy aloqalar, ya’ni savdo munosabatlari mazmunidagi hamkorlikni o‘rnatishni taqozo etgan. “O‘zining tarixiy rivojlanishi davomida xalqaro savdo alohida va ko‘pincha oraliq tashqi savdo operatsiyalaridan uzoq muddatli, keng ko‘lamli savdo-iqtisodiy hamkorlikka aylandi. Miloddan avvalgi 3-ming yillikka kelganda qadimgi Mesopotamiyaning davlatlarida ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida nafaqat mamlakat ichida, balki uning chegaralaridan tashqarida ham almashinuv (ya’ni mahsulotlar almashinuvi – Sh.S.) mavjud edi [6].

Qadimgi Sharqda ilk davlatchilik kurtaklari paydo bo‘lgan davrda O‘rta Osiyoda ishlab chiqarish xo‘jaliklarining paydo bo‘lishi (neolit davri) pallasiga to‘g‘ri kelib, bu davrda endi mintaqaning janubiy va shimoli-sharqiy hududlarining tarixiy rivojlanishidagi o‘ziga xoslik va tafovutlar iqtisodiy aloqalar bilan birga madaniy ta’sir shaklidagi munosabatlarning va aloqa yo‘llari tarmoqlarining yangi shaklini keltirib chiqarganligini ta’kidlagan tarixchi olim O‘.Mavlonov mil. avv VI-V ming yillikdayoq mintaqaning nisbatan katta hududlarini birlashtirgan aloqa yo‘llarining ilk yo‘nalishlari shakllanganligi haqida xulosa beradi[7]. Shunga asoslangan holda tadqiqot obyekti bo‘lgan zamonaviy Markaziy Osiyodagi davlatlar hududidagi ibtidoiy jamoalar va makonlar, madaniyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ya’ni mahsulot ayirboshlash mazmunidagi aloqalar so‘nggi paleolit va mezolit davriga, aloqalar yo‘llari asosidagi munosabatlar bo‘lsa, neolit davriga borib taqalishi haqida xulosa qilish mumkin.

Qadimgi Sharq, keyinroq antik davlatlar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan savdo aloqalari yo‘llarining shakllanishi bilan rivojlangan bo‘lishiga qaramasdan, baribir bu munosabatlar natural va muayyan qobiq ichida qolib ketdi. Shu boisdan, qadimgi iqtisodiy tizimlar uzoq muddatni tashkil etuvchi spiralli sikllar doirasida izchil rivojlanib bordi[8].

Ta’kidlash kerakki, to Buyuk geografik kashfiyotlargacha davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar mintaqaviy doirada rivojlanib kelgan bo‘lishiga qaramasdan, aynan davlatlarning tashqi iqtisodiy hamkorligi sohasida muayyan

tizimlar va meyyorlar shakllanmay qolavergan. XVI-XVIII asrlarga kelganda xalqaro bozorning shakllanish jarayonida xalqaro savdo paydo bo‘ladi, aynan yangi zamon davridan boshlab iqtisodiy hamkorlik muayyan tashkiliy-huquqiy ko‘rinishni kasb eta boshladi. Asta-sekinlik bilan iqtisodiy ta’limotlar va nazariyalar yaratila boshlandi.

Ta’kidlash kerakki, bugun xalqaro munosabatlar tizimi doirasidagi “xalqaro iqtisodiy munosabatlar/hamkorlik” mazmuni va talqini bo‘yicha tugal va yakuniy yondashuv yo‘q. Jahondagi iqtisodiy maktablar bu borada o‘zlarining qarashlarini va nazariyalarini ilgari suradi, ular o‘rtasida muayyan bog‘liqlik mavjudligi holda yana bir-biriga mos kelmaydigan jihatlar ham uchraydi. Bugun bizning leksikamizda o‘rin egallagan “iqtisodiy hamkorlik” tushunchasi xalqaro ilmiy doirada aynan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima holatida qo‘llanilmaydi. “Iqtisodiy hamkorlik” atamasi ingliz tilidagi adabiyotlarda “xalqaro iqtisodiy hamkorlik/munosabatlar” (*international economic relations*) shaklida tan olinib, u asosan ikki davlat o‘rtasidagi savdo munosabatlarini ham o‘z ichiga oladi. Jumladan, xalqaro iqtisodiy munosabatlar/hamkorlik – jahon iqtisodiyoti doirasidagi cheklangan resurslar hamda xalqaro mehnat taqsimoti muhitida tovarlar, servislar, kapital, g‘oyalarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq ravishda turli mamlakatlar ishtirokchilari o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlar majmui bo‘lib, ya’ni zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy aloqalar majmui bo‘lib, mazkur tizim ichida “jismoniy va yuridik shaxslar, davlatlar va xalqaro tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi” ham inobatga olinadi[9].

Bunday holat ularning davlat boshqaruvi tizimida ham o‘z aksini topgan, ya’ni davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati ko‘pincha “xalqaro” tushunchasi bilan ifodalanadi. Misol uchun, Buyuk Britaniya Vazirlar Mahkamasi (Cabinet of the United Kingdom) tarkibidagi tashqi savdoga mas’ul bo‘lgan mahkamasi “Department for International Trade” – “Xalqaro savdo departamenti” deb nomlanadi. Fransiyada esa tashqi savdo vazirlgi tarzida qo‘llaniladi.

Rusiyzabon adabiyotlarda ham inglizzabon adabiyotlarda qo‘llanilganining muqobil tarjimasi, ya’ni “mejdunarodniye ekonomicheskiye otnosheniye (международные экономические отношения)” tarzida keltirilib, u “turli mamlakatlar xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni” anglatadi. Tizim sifatida xalqaro iqtisodiy aloqalar moddiy mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, taqsimot, almashuv va iste’mol qilish jarayonida turli davlatlar, integratsiyalashgan uyushmalar, ayrim tashkilotlar va xalqaro kompaniyalar o‘rtasida shakllanadigan iqtisodiy bog‘lanishlar majmuasini ifodalaydi. Xalqaro iqtisodiy aloqalar davlatlar hamda ularning xo‘jalik subyektlari o‘rtasida tovar va xizmatlar almashinuvi, ishlab chiqarish hamkorligi, ilmiy-texnologik, valyuta-moliyaviy, kreditlash, investitsiya, ma’lumot almashish, texnologiyalar bilan bog‘liq munosabatlar, shuningdek, ishchi

kuchi harakati orqali namoyon bo‘ladi . Davlatlar va ularning muayyan yirik shaharlari hamda hududlari, makroiqtisodiy darajada, xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlari sifatida e’tirof etiladi [10].

Ilmiy adabiyotlarida esa “xalqaro iqtisodiy munosabatlar”ga tizim sifatida yondashilib, uni “alohida mamlakatlar milliy xo‘jaliklari va ularning tegishli xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmui” sifatida talqin qilishadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xalqaro iqtisodiy aloqalarda o‘zbek tilidagi “iqtisodiy hamkorlik” atamasi o‘rniga “xalqaro iqtisodiy munosabatlar/hamkorlik” terminining qo‘llanishi va uning yordamida davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini ifodalash zarurligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, “iqtisodiy hamkorlik” atamasi “xalqaro iqtisodiy munosabatlar” tushunchasining tarkibiy elementi sifatida qaraladi. Xususan, “davlatlararo iqtisodiy hamkorlik” “xalqaro iqtisodiy hamkorlik”ning kichik tizimi (subsistemasi) sifatida talqin qilinib, u “davlatlararo iqtisodiy hamkorlik – milliy bozorlarni o‘zaro to‘ldirish, milliy iqtisodiyotlarning strategik muvozanatini ta’minlash va jahon iqtisodiy aloqalariga qo‘shilishni ta’minlash maqsadida davlatlar o‘rtasida xalqaro mehnat taqsimoti (xalqaro ixtisoslashuv), tovar almashuvini muvofiqlashtirish, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi, ilmiy-texnologik almashinuv, kredit-moliyaviy aloqalarni rivojlantirish, investitsiyalar va ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarida yuzaga keladigan munosabatlar” sifatida izohlanadi.

Hozirgi davrda xalqaro iqtisodiy aloqalar, ya’ni davlatlararo iqtisodiy hamkorlikning asosiy ko‘rinishlari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:

1) tashqi va jahon savdosi;
2) valyuta va hisob-kitob munosabatlari;
3) kredit munosabatlari;
4) kapitalning migratsiyasi va eksporti;
5) TM va kredit-moliya institutlarini yaratish hamda rivojlantirish [11];
6) ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish kooperatsiyasi;
7) integratsiyalashgan jarayonlar;
8) ishchi kuchlari migratsiyasi;
9) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni davlatlararo tartibga solish;
10) xalqaro iqtisodiy institutlar faoliyati [12].

Umuman olganda xalqaro huquqda “davlatlar boshqa iqtisodiyotlar (ya’ni davlatlar bilan) bilan munosabatlarni olib borish yoki bormaslik huquqiga egaligi” belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bu munosabatlar xalqaro shartnomalar orqali amalga oshirilishi va bunda “xususiy mulk, kasb erkinligi va muloqot erkinligi kafolati, savdoda ta’rifsiz to‘siqlarni, shu jumladan davlat monopoliyasini bekor qilish, xizmatlar savdosini erkinlashtirish, kapital tashkil etish va harakati erkinligi, xorijiy

investitsiyalarni himoya qilish va subsidiyalarni cheklash”larni qamrab olishi ko‘rsatilgan [13].

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorligi va uning rivojlanish tarixiga oid masalalarini tadqiq hamda tahlil etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy strategiyasini jahon iqtisodiyotiga moslashtirish chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqishda globallashuv jarayonida iqtisodiy jihatdan mintaqaviylashuvga alohida e’tibor qaratishi joizligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda, bugungi kunda o‘z bozorlarini to‘liq ochib bera olmaydi, chunki u o‘zining diversifikatsiyalangan ichki iqtisodiyoti va rivojlanmagan zamonaviy xizmatlar sohasini xorijiy raqobatdan himoya qilishi zarur. Shu bilan birga, mamlakat jahon bozorida milliy iqtisodiyot imkoniyatlariga mos keladigan o‘z o‘rnini egallashga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққаиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1– жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

2. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 269 б.

3. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Академия, 2008. – 432 б.

4. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Эксмо, 1776. – С. 63.

5. Типанов В.В. Эволюция международной торговли: различные временные горизонты, аспекты и тенденции // Вестник финансового университета, № 6, 2013. – С. 100.

6. Ломакин В.К. Мировая экономика: Учебник для вузов. – 2–е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ–ДАНА, 2002. – С. 31.

7. Чучулина Е.В. Мировая экономика и международные экономические отношения. [Электронный ресурс]: учебное пособие. – Изд. 2–е. доп. и перераб. – Пермь, 2020. –С.79.

8. Transmilliy kompaniyalar yoki korporatsiyalarning qisqartmasi. Bir necha mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi bo‘limlarga ega bo‘lgan kompaniyalar yoki korporatsiyalar tushuniladi. Bugungi global iqtisodiyotning muhim bir omiliga aylangan.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ВЗАИМОСВЯЗАННОСТИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЮЖНОГО КАВКАЗА: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ

Рахимов А.
Доцент кафедры международных отношений
Университет мировой экономики и дипломатии
Ташкент, Узбекистан

Хужабеков У.
Студент факультета международных отношений
Университет мировой экономики и дипломатии
Ташкент, Узбекистан

Развитие процессов взаимосвязанности Центральной Азии и Южного Кавказа за последние годы стало стратегический трендом, направленный на формирование устойчивого трансевразийского коридора, объединяющего два региона в единое геоэкономическое пространство. С одной стороны, это сопряжение базируются на необходимости диверсификации торговых путей и совместном использовании транспортно-энергетического потенциала. С другой стороны, это указывает на усилении роли таких новых «средних держав» в Евразии как Узбекистан, Казахстан и Азербайджан.

В данном контексте перспективную геополитическую и экономическую инициативу, направленную на соединение двух регионов (5 стран ЦА + 3 страны ЮК) для усиления транзитного потенциала, экономического сотрудничества и обеспечения стабильности обретает интеграция Центральной Азии (ЦА) и Южного Кавказа (ЮК) в формате «5+3». Эту связку следует рассматривать как исторически обусловленную, а не как создание закрытого союза, с особой ролью Азербайджана как моста между регионами.

Интеграция Южного Кавказа и Центральной Азии основана на многовековом опыте сосуществования в рамках единых торговых систем, империй и общих культурных пластов. В период функционирования Великого шелкового пути с II века до н. э. по XV–XVI века н.э. регионы служили ключевыми звеньями трансконтинентальной торговой артерии, связывавшей Китай и Европу. Азербайджан и Центральная Азия были важнейшими узлами для караванов, что способствовало обмену технологиями, религиями и культурой. Путь обеспечивал обмен товарами между Восточной Азией, Центральной Азией, Индией, Ближним Востоком и Европой, являясь важнейшей торговой артерией на протяжении полутора тысяч лет.

Оба региона также неоднократно объединялись под властью одних и тех же держав. Арабский халифат принес на кавказско-центральноазиатское

пространство ислам и общие административные стандарты. В XIII–XV веках Монгольская империя и государство Тимуридов составляли единое политическое и экономическое пространство. Затем почти за два века существования в рамках единого государства в составе Российской империи и СССР оба региона сформировали общую инфраструктуру, транспортные сети и гуманитарные связи.

В процессе этнокультурного синтеза переселения народов, как например, расселение тюркских племен, создали устойчивые этнические и языковые параллели. Например, в XII веке кипчаки превратились из степных кочевников в мощную политическую и военную силу, став опорой для государственности как в Центральной Азии, так и в Грузии. В государстве Хорезмшахов кипчаки составляли ядро регулярной армии, а глубоко интегрированная в управление кипчакская знать фактически сформировала правящую элиту, влияя на престолонаследие и внутреннюю политику.

В это же время, кипчаки стали спасительной силой для Грузии, позволившей стране освободиться от сельджукского давления. В 1118 году царь Давид IV, будучи женат на дочери кипчакского хана Отрака, переселил в Грузию около 40 тыс. кипчакских семей. Таким образом, в обоих регионах кипчаки выступали не просто как наемники, а как государствообразующий элемент, который обеспечил военное доминирование Хорезма на Востоке и расцвет Грузинского царства на Западе. Эта историческая преемственность показывает, что современная взаимосвязанность Центральной Азии и Южного Кавказа является естественным продолжением многовековых процессов.

Что касается современных форматов интеграции, то они развиваются в трех направлениях. Это, прежде всего, транспортные коридоры. Возрождение идеи «Шелкового пути» через такие проекты как TRACECA и «Срединный коридор» (Middle Corridor) ориентированы на соединение железных дорог Узбекистана, Казахстана, Азербайджана и Грузии. В энергетической сфере Каспийское море сегодня выступает в качестве моста для транзита центральноазиатских углеводородов через Кавказ в Европу. Наконец, наблюдается институциональное сближение двух регионов. Идет формирование диалоговых площадок, таких как Организация тюркских государств (ОТГ), где страны Центральной Азии и Азербайджан координируют свои действия.

Можно заключить, что в настоящее время формируется новая архитектура регионального сотрудничества в виде единого геополитического и геоэкономического региона от Каспия до Тянь-Шаня. Вправе также характеризовать данный переход как способ сдерживания дестабилизирующих тенденций и укрепления суверенитета стран региона. Это

особенно актуально на фоне турбулентности современного мира, когда новой нормой миропорядка становится перманентная нестабильность, амбивалентность и высокая неопределенность процессов глобальных изменений. В этих условиях страны Центральной Азии и Южного Кавказа развивают стратегическое партнерство с целью укрепления региональной безопасности, обеспечения долгосрочного экономического роста, а также сопряженности двух регионов.

Список использованной литературы:

1. Aminjonov F. 2026. “Geopolitics of Interconnectivity: Central Asia’s Strategic Pivot to the South.” *Third World Quarterly*. https://doi.org/10.1080/01436597.2026.2627441.

2. Центральная Азия и Южный Кавказ: историческая связка, а не новый союз // *Exclusive.kz*. – URL: https://exclusive.kz/centralnaja-azija-i-juzhnyj-kavkaz-istoricheskaja-svjazka-a-ne-novyj-sojuz/.

3. Эксперт ИСМИ: взаимосвязанность Центральной Азии и Южного Кавказа имеет большие перспективы // *Dunyo Information Agency*. – 10 ноября 2025 г. – URL: https://dunyo.info/ru/undefined/ekspert-ismi-vzaimosvyazannost-tsentralnoy-azii-i-yuzhnogo-kavkaza-imeet-bolshie-perspektivy.

4. Kipchak // *Encyclopaedia Britannica*. – URL: https://www.britannica.com /topic/Kipchak-people.

5. Сильнее вместе: укрепление Кавказа и Центральной Азии // *CAREC Program*. – URL: https://carecprogram.org/?news.

6. Новости // *Minval.az*.. – URL: https://minval.az/news/124517551.

7. Middle Corridor: презентация // *CAREC Program*. – Май 2023 г. – URL: https://www.carecprogram.org/uploads/20th-TSCC-5-CB-Middle-Corridor-Adrian-Powerpoint-May-2023-New-3_RU.pdf.

8. Форум в Ташкенте: ЕС инвестирует в Срединный транспортный коридор // *Deutsche Welle*. – URL: https://amp.dw.com/ru/forum-v-taskente-es-investiruet-v-sredinnyj-transportnyj-koridor/a-74931591.

9. Координация ОТГ усиливает стратегическую роль Азербайджана и Узбекистана в регионе // *UZA*. https://uza.uz/ru/posts/koordinaciya-otg-usilivaet-strategicheskuyu-rol-azerbaydzhana-i-uzbekistana-v-regione_839224.

MARKAZIY OSIYO AXBOROT MAKONIDA MAFKURAVIY XAVFSIZLIK VA MILLIY MA’NAVIYAT MASALALARI

To‘rayev K.
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi,
Toshkent, O‘zbekiston

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi bugungi kunda mintaqada milliy ma’naviy tizimlarga nafaqat tashqi ta’sirlarni kuchaytirmoqda, balki bevosita mafkuraviy bosim omillarini ham oshirmoqda. Bunday sharoitda yuzaga kelayotgan tahdidlar oddiy ijtimoiy o‘zgarish emas, balki ma’naviy va qadriyatlar tizimining ichki barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi real omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, ushbu jarayonlarning mohiyatini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur vaziyatda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining ma’naviy birligi, ijtimoiy jipsligi hamda umumiy qadriyatlar tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Turli mafkuraviy ta’sirlarga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish mintaqaviy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yanada ogoh va sergak bo‘lish eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko‘p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek asrash hamda yanada mustahkamlash O‘zbekistonni o‘z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir”[1]. Albatta ushbu fikrlar jamiyatning ma’naviy birligini mustahkamlashga qaratilgan strategik yondashuv sifatida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi ham global axborot tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot makoni jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib kelib, ijtimoiy ong shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada u nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki mafkuraviy jarayonlar kechadigan murakkab ijtimoiy muhitga aylangan. Mazkur makonning ijobiy imkoniyatlari sifatida axborot almashinuvining tezlashishi, kommunikatsion aloqalarning kengayishi, ta’lim va innovatsion jarayonlarning jadallashuvi hamda fuqarolarning axborotga kirish imkoniyatlarining ortishini qayd etish mumkin. Shu bilan birga, axborot makonining salbiy jihatlari ham mavjud bo‘lib, ular orasida axborot qaramligi, yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligining buzilishi hamda kiberzo‘ravonlik holatlari alohida ajralib turadi.

Axborot makonining jamiyat hayotiga ta’siri, ayniqsa, yoshlar auditoriyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Yoshlar raqamli muhitda faol ishtirok etishi sababli turli mafkuraviy oqimlar ta’siriga nisbatan sezgir hisoblanadi. Bu esa ularning dunyoqarashi shakllanishida ijobiy va salbiy tendensiyalarning bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishiga olib keladi.

Axborot makonining jamiyat hayotiga ta’siri, ayniqsa, yoshlar auditoriyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Yoshlar raqamli muhitda faol ishtirok etishi sababli turli mafkuraviy oqimlar ta’siriga nisbatan sezgir hisoblanadi. Bu esa ularning

dunyoqarashi shakllanishida ijobiy va salbiy tendensiyalarning bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishiga olib keladi. Raqamli muhitning kengayishi sharoitida inson omili va texnologik taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanat masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ba’zan texnologik imkoniyatlardan foydalanish jarayonida ma’naviy mezonlar ikkinchi darajaga tushib qolishi, insonning axborot oqimiga haddan tashqari bog‘lanib qolishiga olib keladi. Shu bilan birga, axborot makonida shaxsiy daxlsizlik masalasi ham jiddiy muammolardan biridir. Foydalanuvchilar tomonidan joylashtirilgan ma’lumotlarning ochiqligi ularning shaxsiy hayotiga bevosita xavf tug‘dirishi mumkin. Bu esa ijtimoiy ishonch muhitining zaiflashishiga olib keladi.

Axborot makonida uzoq muddatli faoliyat yuritish natijasida shaxsning real ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashuvi ham kuzatilmoqda. Bu holat ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy zo‘riqish va ma’naviy beqarorlik kabi holatlarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Axborot oqimlarining haddan tashqari ko‘pligi insonning diqqat barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada u mazmunli faoliyat o‘rniga bevosita axborot iste’moli bilan cheklanib qolishi mumkin. Bu esa ijtimoiy faollikning pasayishiga olib keladi.Shunday qilib, axborot makonida yuzaga kelayotgan muammolar faqat texnik yoki kommunikativ xarakterga ega emas, balki chuqur ijtimoiy-ma’naviy mazmun kasb etadi. Shu bois, ushbu jarayonlarni tartibga solish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish dolzarb vazifalardan biridir.

Axborot makonining yana bir muhim jihati ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Raqamli muhitda axborotning tez tarqalishi jamiyatda yangi axloqiy va madaniy normalarning shakllanishiga olib kelmoqda. Bu jarayon bir tomondan ochiqlikni oshirsa, ikkinchi tomondan yuzaki munosabatlarning kengayishiga sabab bo‘ladi.

Merriam-Webster lug‘atida axborot makoni elektron kommunikatsiya vositalari orqali foydalanuvchilarning ma’lumot va g‘oyalar almashishiga imkon beruvchi tizim sifatida izohlanadi [2]. Bu esa zamonaviy jamiyatda axborotning asosiy resursga aylanganini ko‘rsatadi.

Tahlillarga ko‘ra, mintaqa yoshlarining 80 foizdan ortig‘i asosiy axborot manbai sifatida internet tarmog‘iga, xususan, ijtimoiy platformalarga murojaat qilmoqda. Bu holat ularning axborot oqimlari va mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan sezuvchanligini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli yoshlar bilan ishlash tizimida media savodxonlikni rivojlantirish hamda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday keng axborot imkoniyatlaridan foydalanishga intilayotgan turli g‘arazli kuchlar esa raqamli muhitdan o‘zlarining mafkuraviy maqsadlari yo‘lida foydalanishga urinmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqlar orqali turli destruktiv mazmundagi g‘oyalarni tarqatish va keng jamoatchilik ongiga ta’sir o‘tkazishga intiladilar. Vayronkor g‘oyalar mohiyatan jamiyatning barqaror rivojlanishiga zid

bo‘lgan, ijtimoiy ongni beqarorlashtirishga qaratilgan mafkuraviy konstruksiyalar sifatida namoyon bo‘ladi[3]. UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, internet foydalanuvchilarining sezilarli qismi voyaga yetmagan shaxslardan iborat bo‘lib, bu esa ularning axborot xavfsizligini ta’minlash zaruratini kuchaytiradi. Ishonchsiz va tekshirilmagan axborotlarning keng tarqalishi mafkuraviy vahima fenomenining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa jamiyatda beqarorlik kayfiyatini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo axborot makoni globallashuv sharoitida murakkab mafkuraviy jarayonlar kesishgan hududga aylanib bormoqda. Ushbu jarayonlar bir tomondan rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan ma’naviy va mafkuraviy xavflarni ham kuchaytirmoqda. Shu sababli mintaqaviy darajada mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash va milliy ma’naviyatni mustahkamlash strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. https://uza.uz/oz/posts/millatlararo-do-stlik-va-hamjihatlik-xalqimiz-tinchligi-va-f-24-01-2017?ysclid=mp440wgp46760646347

2. Social network. https://www.merriam-webster.com/dictionary/social%20network.

3. Quronov M., Daminov I. va boshqalar. Dunyoning mafkuraviy manzarasi. –Toshkent: Muharrir, 2017. – 178-b.

ТРАНСФОРМАЦИОННОЕ ВЛИЯНИЕ ИНТЕГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ НА СИСТЕМУ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

Аметов Т.А.
Доктор философии по историческим наукам, доцент
Diplomat University
Tashkent, Uzbekistan

В системе современных международных отношений процессы региональной интеграции стали важным фактором укрепления основ государственности и модернизации национальных моделей управления. В частности, новая политическая и экономическая динамика, происходящая в Центральноазиатском регионе, оказывает непосредственное трансформационное влияние на систему государственного управления государств-членов, в том числе Республики Каракалпакстан как составной части Республики Узбекистан. Данный процесс требует не только расширения

функциональных обязанностей государственных органов, но и адаптации механизмов принятия управленческих решений к новым требованиям регионального сотрудничества.

Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев: «Сегодня необходимость эффективного решения существующих проблем в жизни общества, последовательного продолжения широкомасштабных реформ требует создания совершенно новой системы в сфере государственного управления»[80].

Трансформирующее влияние интеграционных процессов проявляется, прежде всего, в совершенствовании институциональной структуры институтов экономического и социального управления. Развитие транспортно-логистических коридоров, активизация трансграничной торговли и инвестиционных потоков определили в качестве стратегической задачи повышение эффективности управления внешнеэкономической деятельностью в системе исполнительной власти Каракалпакстана. Вместе с тем региональная экологическая безопасность, в частности, межгосударственные усилия по преодолению последствий Аральской катастрофы, способствуют глубокой имплементации принципов экологического менеджмента и устойчивого развития в систему государственного управления.

Данная исследовательская работа направлена на научно-теоретическое обоснование влияния интеграционных процессов в Центральной Азии на систему государственного управления Каракалпакстана. В ней систематически анализируются трансформация вертикальных и горизонтальных отношений в системе управления, связь административных реформ с региональной интеграцией, а также особенности адаптации государственного аппарата к новым геополитическим реалиям. Актуальность исследования объясняется разработкой оптимальных моделей государственного управления в условиях региональной интеграции и определением их стратегического значения в региональном развитии.

Научно подтверждается, что за хронологический период с 1936 по 1993 год Конституции СССР, Узбекской ССР и Каракалпакской АССР в различных редакциях служили фундаментальным политико-правовым материальным источником в формировании и эволюционном развитии государственно-правовых отношений между двумя республиками. Хотя в 50-60-х годах XX века субъективные права Каракалпакской АССР были расширены по

[80] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Ташкент: Ўзбекистон, 2018. – Т.2. – Б. 88.

некоторым направлениям системы государственного управления, в целом наблюдается ограниченный характер сферы полномочий республики[81].

В частности, наблюдаются несоответствия в вопросе языковой политики и правового статуса: несмотря на то, что в Конституции Каракалпакской АССР 1932 г. каракалпакский язык имел статус официального государственного языка, в течение 1932–1937 годов практическое делопроизводство не было организовано на этом языке[82]. Впоследствии в Основных законах республики 1937 и 1978 годов вопрос о правовом статусе каракалпакского языка как государственного не нашел своего отражения[83].

Новая Конституция стала важным новшеством в государственном строительстве Каракалпакстана. В связи с этим был сделан вывод о том, что Конституция 1993 г. разработана и принята на основе глубоких научных подходов к каждой норме, с учетом опыта других государств, с ее всенародным обсуждением, что свидетельствует о демократизации общественной и государственной жизни в республике[84]. Основной Закон Республики Каракалпакстан юридически легитимирует государственный суверенитет субъекта, закрепляет гарантии прав и свобод человека и определяет фундаментальные принципы и сферы полномочий формирования государственного аппарата.

В результате процессов модернизации политический авторитет Жокаргы Кенеса возрос, в его деятельности значительно расширились демократические принципы и законодательные функции. В рамках историко-институциональных изменений, в 1994 году высший представительный орган республики был переведен из номенклатуры “Жокаргы Совет” в статус “Жокаргы Кенес” (парламент). Если ранее этот орган одновременно сочетал в себе законодательные, исполнительно-распорядительные и контрольные полномочия, то после реформ он превратился в орган, выполняющий функции чисто законодательной власти в соответствии с классическим принципом разделения властей. В связи с повышением требований к профессионализму в парламенте страны было сокращено количество депутатов. Опираясь на аналитические результаты деятельности Жокаргы Кенеса, Президиума и комитетов, выдвигается необходимость трансформации на более совершенные и эффективные модели организации парламентской работы. В

[81] Ниетуллаев С.Д. Совершенствование государственного строительства в Республике Каракалпакстан (опыт и проблемы): Автореф. дисс. … доктора юрид. наук. – Ташкент, 1993. – 36 с.
[82] Ерниязова Г.Е. Развития законодательства о правовом статусе Республики Каракалпакстан и проблемы его совершенствования: Автореф. дисс. … канд. юрид. наук. –Ташкент, 1993. –11 с.; Очерки Каракалпакской АССР. В 2-х т. – Ташкент: Наука, 1964. – Т. II. – 184 с.
[83] Nietullaev S. Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Konstituciyalıq huqıqı. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2005. – 49-50-b.
[84] Ниетуллаев С.Д. Совершенствование государственного строительства в Республике Каракалпакстан (опыт и проблемы): Автореф. дисс. … доктора юрид. наук. – Ташкент, 1993. – 36 с.

связи с этим сформирован постоянно действующий депутатский корпус на профессиональной основе, направленный на обеспечение баланса прав граждан и интересов государства, а также на повышение качества законотворчества и контроля исполнения. С 1937 по май 1993 года в системе государственного управления Каракалпакстана центральное место занимал Президиум Жокаргы Кенеса, который выполнял функции постоянно действующего и подотчетного ему коллегиального органа парламента. В период между сессиями данный институт осуществлял функции высшей государственной власти в рамках своих конституционных полномочий. В частности, в процессах трансформации в период с 1989 по 1993 год данный орган осуществлял широкий спектр полномочий в управлении государственным строительством, экономической и социально-культурной сферами.

Также седьмая сессия Жокаргы Кенеса Республики Каракалпакстан двенадцатого созыва, состоявшаяся 9 января 1992 года, внесла существенные изменения в правовое положение постоянных комиссий, превратив их в комитеты при Жокаргы Совете Республики Каракалпакстан. Этот орган служит укреплению конституционного строя в республике, защите конституционных прав и свобод граждан в законодательной сфере[85].

Комитеты обеспечивают бесперебойную и эффективную работу высшего государственного представительного органа республики. Правовой статус, порядок и деятельность Комитета конституционного надзора при Жокаргы Кенесе, созданного в 1989 году, определяются Законом «О Комитете конституционного надзора Республики Каракалпакстан» от 19 июля 1990 г. До настоящего времени данный закон адаптируется и совершенствуется в соответствии с требованиями времени.

В соответствии с конституционными нормами Республики Каракалпакстан, Совет Министров обладает статусом высшего исполнительного и распорядительного органа системы государственного управления. Данная структура правительства, наряду с отраслевыми министерствами и территориальными инстанциями управления, является субъектом, уполномоченным осуществлять исполнительно-распорядительные функции в рамках государственной власти[86].

---

[85] Ерниязова Г. Е. Развития законодательства о правовом статусе Республики Каракалпакстан и проблемы его совершенствования: Автореф. дисс. … канд. юрид. наук. – Ташкент, 1993. –С. 21.

[86] Кутыбаева Е.Д. Органы исполнительной власти Республики Каракалпакстан. –Нукус: Каракалпакстан, 2002. –108 б.; Умарова К.У. Правовая и политическая культура народов Узбекистана и Каракалпакстана: исторический опыт и современные факторы детерминации: Автореф. дисс. … доктор юрид. наук. – Ташкент, 2006. – 48 с.

К данной категории субъектов будут включены местные исполнительные аппараты, возглавляемые Советом Министров и хокимами. Система государственного управления состоит из институциональных структур центрального уровня (министерств, государственных комитетов, ведомств) и территориальных подразделений, вертикально подчиненных органам общей исполнительной власти. Эти органы обладают полномочиями по принятию нормативно-правовых актов, юридическая сила которых иерархически ограничена и имеет строго функциональный и ведомственный характер, то есть их исполнение является обязательным только для предприятий, организаций и учреждений в соответствующей сфере.

Исторически функционировавшие исполнительные комитеты подверглись институциональной трансформации, и вместо них было введено управление хокимиятом. Хокимы, наряду с осуществлением своих функциональных обязанностей на основе принципов монократии (единоначалия), согласно конституционным нормам Республики Каракалпакстан, несут персональную юридическую ответственность за правовые акты и действия подведомственных административных структур.

Институт хокима в пределах своей компетенции имеет право принимать решения императивного (обязательного) характера для всех хозяйствующих субъектов, учреждений, общественных объединений, должностных лиц и физических лиц соответствующей административно-территориальной единицы[87]. Механизмы организации деятельности этих должностных лиц и правовые рамки их полномочий регламентированы Законом «О государственной власти на местах», утвержденным в новой редакции на четырнадцатой сессии Жокаргы Кенеса Республики Каракалпакстан 29 января 1998 г.

Структурная и функциональная трансформация аппарата исполнительной власти обуславливает необходимость модернизации законодательной базы в данной сфере и совершенствования её правовых основ. Процессы трансформации в экономической системе обуславливают необходимость модернизации институтов управления и переориентации существующих отраслевых министерств, государственных комитетов и ведомств на различные корпоративные структуры - союзы, союзы и концерны.

С этой точки зрения структурную основу системы исполнительной власти Республики Каракалпакстан составляют министерства финансов, экономики, труда и социальной защиты населения, внешнеэкономических связей, инвестиций и торговли, сельского и водного хозяйства, юстиции,

[87] Дауменов Б.А. Организация деятельности аппарата хакимията в Республике Каракалпакстан: Автореферат дисс... канд. юрид.наук. – Ташкент, 2010. – 25 с.

внутренних дел, по делам культуры и спорта, здравоохранения и народного образования. Кроме того, в эту систему наряду с Управлением статистики, Налоговым, Лесным и Таможенным управлениями включены Государственные комитеты по демонополизации и развитию конкуренции, по управлению государственным имуществом, по охране природы и по вопросам архитектуры и строительства.

В современных условиях эти институциональные структуры функционируют как структурный сегмент государственного аппарата на основе нормативных актов высших законодательных и исполнительных инстанций. В транзитном периоде перехода к рыночной экономике они осуществляют руководство определенными отраслями народного хозяйства и культурно-социальной сферы в соответствии с требованиями общественно-политического и государственного строительства, реализуют стратегические меры по оптимизации эффективности системы.

В результате исследования трансформирующего влияния интеграционной динамики в Центральноазиатском регионе на систему государственного управления Республики Каракалпакстан были сделаны следующие научные выводы:

Во-первых, процессы региональной интеграции выступают катализатором модернизации институциональной структуры органов государственного управления. В результате активизации внешнеэкономических связей и расширения трансграничного сотрудничества в аппарате управления республики наблюдалась имплементация элементов экономической дипломатии, инвестиционного менеджмента и цифрового управления. Этот процесс привел к появлению новых административных механизмов, обеспечивающих оперативность и гибкость в принятии управленческих решений.

Во-вторых, функциональная трансформация в системе государственного управления характеризуется усилением принципов децентрализации. Необходимость эффективного управления инфраструктурными и логистическими проектами на региональном уровне потребовала расширения круга полномочий местных органов государственной власти и повышения их самостоятельности в разработке стратегий территориального развития. Вместе с тем, системное внедрение в систему управления принципов экологической безопасности и "зеленой" экономики в рамках региональной экологической интеграции свидетельствует о переходе государственного строительства на качественно новый этап.

В-третьих, под влиянием интеграционных процессов трансформировались требования к кадровому потенциалу и

профессиональным компетенциям государственного аппарата. Адаптация к международным и региональным стандартам усилила системные реформы по повышению квалификации государственных служащих в области стратегического планирования, системного анализа и применения международно-правовых норм.

Все страны региона не имеют выхода к океану, а часть из них является «дважды замкнутыми», что увеличивает транспортные издержки. Внутрирегиональная инфраструктура развита слабо: транспортные маршруты недостаточно связаны и не образуют единого пространства. Это во многом связано с советским наследием, когда связи строились по вертикали через центр. После распада СССР они переориентировались наружу, а внутренние горизонтальные связи остались слабыми. В итоге регион остаётся фрагментированным.

Политические режимы и институциональные ограничения Политическая система также ограничивает интеграцию. В странах региона преобладают авторитарные и гибридные режимы с высокой централизацией власти. Это снижает готовность к передаче полномочий наднациональным структурам. Региональные организации остаются слабыми и функционируют в основном на межправительственной основе. Недостаток прозрачности и устойчивых правовых механизмов дополнительно затрудняет сотрудничество.

В Европе важным стимулом интеграции стали последствия Вторая мировая война, сформировавшие стремление предотвратить новые конфликты. В Центральной Азии подобного опыта нет. После распада СССР страны сосредоточились на укреплении суверенитета, а не на его ограничении. Региональные противоречия скорее усиливают осторожность, а общей объединяющей идеи, придающей интеграции смысл, не сформировалось.

Таким образом, сочетание слабой экономической взаимосвязанности, сырьевой модели, инфраструктурных и политических ограничений, а также отсутствия исторического мотива существенно сдерживает развитие интеграции в Центральной Азии.

Геополитическое положение Центральной Азии делает регион сильно зависимым от внешних факторов. В отличие от Европы, где интеграция шла

«изнутри», здесь её во многом формируют внешние силы, прежде всего Россия и Китай. Влияние России реализуется через Евразийский экономический союз, однако этот формат остаётся асимметричным, с доминирующей ролью Москвы. Китай, в свою очередь, продвигает инициативу Belt and Road Initiative, развивая инфраструктуру и торговые маршруты. Хотя это способствует экономическому росту, оно усиливает ориентацию региона на внешние рынки.

В результате страны Центральной Азии сильнее интегрируются во внешние сохранить автономию снижают готовность к передаче полномочий наднациональным структурам и тормозят внутреннюю интеграцию.

Дополнительной проблемой является наличие нескольких параллельных интеграционных инициатив. В регионе нет единого центра, как в Европе. Помимо ЕАЭС, важную роль играет Шанхайская организация сотрудничества, которая ориентирована скорее на безопасность и политическое взаимодействие, чем на экономическую интеграцию.

Сосуществование разных форматов приводит не к усилению, а к раздробленности. Страны участвуют сразу в нескольких проектах с разными целями, что мешает выработке общей стратегии и снижает согласованность политики. В итоге интеграция остаётся фрагментарной и во многом зависит от внешних игроков.

Сегодня Центральная Азия всё чаще рассматривается как арена нового геополитического соперничества - своего рода «второго большого соревнования». В регионе пересекаются интересы таких факторов, как Россия, Китай, США и Европейский союз. Они продвигают собственные проекты, конкурируя за влияние, ресурсы и транспортные коридоры.

В этих условиях страны региона вынуждены балансировать между разными центрами силы. Такая стратегия даёт гибкость, но одновременно мешает углублению внутренней интеграции. Более того, внешние факторы не заинтересованы в появлении полностью самостоятельного регионального блока.

В итоге регион оказывается «разделённым» между внешними интересами, а интеграция носит зависимый и несистемный характер. В отличие от Европы, где она стала инструментом внутреннего объединения, в Центральной Азии геополитическая конкуренция, наоборот, сдерживает формирование устойчивого интеграционного пространства.

Несмотря на географическую близость и общее историческое наследие, Центральная Азия остаётся слабо институционализированным регионом. Показательный пример -Центральноазиатское экономическое сообщество, которое не смогло стать устойчивой интеграционной платформой.

Главная проблема -слабость региональных институтов: у них нет чётких полномочий, автономии и механизмов принуждения. Их решения часто остаются декларативными и зависят от политической ситуации. Отсутствие долгосрочной стратегии, единых правил и согласованной экономической политики снижает предсказуемость и уровень доверия между странами.

В итоге возникает ситуация «регион есть, но регионализма нет» - пространство существует, но эффективных институтов, способных его объединить, не сформировалось. Это серьёзно ограничивает возможности глубокой интеграции.

Попытки интеграции на современном этапе: новые тенденции и ограничения

В последние годы в Центральной Азии заметно оживление сотрудничества. Казахстан, Узбекистан, Кыргызстан, Таджикистан и Туркменистан активнее взаимодействуют, проводят регулярные встречи и обсуждают экономику, безопасность и инфраструктуру. Улучшаются двусторонние отношения, растёт число совместных проектов.

При этом интеграция развивается не по европейской модели. Она остаётся гибкой, слабо институционализированной и строится на сохранении суверенитета. Страны предпочитают координацию и практическое сотрудничество без создания жёстких наднациональных структур.

Скорее всего, регион будет двигаться к «мягкому» регионализму - постепенному сближению на основе межправительственного взаимодействия и многовекторной внешней политики, а не глубокой интеграции по европейскому образцу.

Проведённый анализ показывает, что европейская модель интеграции сформировалась благодаря сочетанию исторических, экономических и политических факторов. Высокая взаимозависимость, развитые институты, готовность делегировать суверенитет и последствия Вторая мировая война создали основу глубокой интеграции. В Центральной Азии эти условия выражены слабее: низкая экономическая связанность, сырьевая структура, слабые институты и влияние внешних факторов ограничивают воспроизводство европейского опыта.

При этом интеграционный потенциал сохраняется. В регионе формируется более гибкая модель сотрудничества с акцентом на суверенитет и координацию без наднациональных структур - «мягкий» регионализм.

Таким образом, европейская модель – это уникальный исторический пример, а интеграция в Центральной Азии развивается по собственной логике.

Список использованной литературы:

1. Haas E. B. The Uniting of Europe: Political, Social, and Economic Forces 1950–1957. Stanford: Stanford University Press, 1958.

2. Moravcsik A. *The Choice for Europe: Social Purpose and State Power from Messina to Maastricht*. Ithaca: Cornell University Press, 1998.

3. Keohane R. O. *After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy*. Princeton: Princeton University Press, 1984.

4. Pomfret R. *The Central Asian Economies since Independence*. Princeton: Princeton University Press, 2006.

5. Cooley A. *Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia*. Oxford: Oxford University Press, 2012.

6. Laruelle M. *Russia's Central Asia Policy and the Role of Regional Integration*. Washington: Central Asia Program, 2018.

7. World Bank. *Enhancing Regional Connectivity in Central Asia*. Washington, DC: World Bank Group, 2019.

8. Asian Development Bank (ADB). *Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Program: Progress and Outlook*. Manila: ADB, 2021.

9. European Council on Foreign Relations (ECFR). *The EU Model of Regional Integration*. Brussels: ECFR, 2021.

10. Chessa et al. (2013). *Is Europe Evolving Toward an Integrated Research Area?*

MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYA JARAYONLARIGA QOZOG'ISTON VA TOJIKISTON RESPUBLIKALARI MADANIY-GUMANITAR HAMKORLIGINING TA'SIRI

Raxmanov B.
Euroasian Multidisciplinary University
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti
Toshkent, O'zbekiston

Kirish. Madaniy-gumanitar masalalar doimo davlatlararo hamkorlikni shakllanishi va rivojlanishi asosida mintaqaviy integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Bu borada Qozog'iston Respublikasining Tojikiston Respublikasi bilan madaniy-gumanitar hamkorligi Markaziy Osiyoda integratsiya jarayoni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo xalqlarini tarixiy va madaniy o'ziga xoslik, iqtisodiy, moliyaviy, ta'lim va ekologik standartlarning yaqinligi birlashtiradi, bu esa ularning mintaqaviy hamkorlikka sodiqligini belgilaydi [9, S. 10].

Metodologiya. Maqola sifat tahliliga asoslangan. Tadqiqotda normativ-huquqiy va institutsional yondashuv, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda kontent-analiz

usullari qo‘llanildi. Manbalar sifatida ochiq nashrlar, tahliliy maqolalar va Qozog‘iston va Tojikiston respublikalari madaniy-gumanitar hamkorligiga oid rasmiy hamda ilmiy ishlardan foydalanildi. Ushbu yondashuv madaniy-gumanitar hamkorlikning faqat ikki tomonlama jihatlarini emas, balki Markaziy Osiyodagi integratsiyalashuv jarayonlariga ijobiy ta’sirini ham ochib berishga imkon beradi. Tadqiqotda quyidagi savollar markaziy o‘rin tutadi:

- Qozog‘iston va Tojikiston respublikalari madaniy-gumanitar hamkorligi qanday tarixiy va siyosiy sharoitda yuzaga keldi?
- U Markaziy Osiyodagi integratsiyalashuv jarayonlari uchun qanday institutsional afzalliklar yaratadi?
- Nima sababdan bu madaniy-gumanitar hamkorlik mintaqaviy ko‘p tomonlama hamkorlikning barqaror vositasiga aylangan?

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanadi. Birinchidan, hujjatli tahlil usuli: Qozog‘iston va Tojikiston respublikalarining rasmiy hujjatlari, madaniy-gumanitar hamkorlikka doir yig‘ilishning qo‘shma hujjatlari (1991–2025) tahlil qilindi. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil doirasi 1992-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan o‘ttiz yillik davrni qamrab oladi.

Natija va muhokama. Madaniy-gumanitar aloqalar ikki tomonlama hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi ekanligi ma’lum. Qozog‘iston birinchi prezidenti N.Nazarbayev fikricha, integratsiyaning eng qadimgi vositalaridan biri Buyuk Ipak yo‘li hisoblanadi, u muntazam savdo va diplomatik kanal bo‘lib xizmat qilgan [5, S. 110]. Ming yillar davomida madaniyatlarni madaniyatlar bilan bog‘lab bir-birnii boyitib boravergan.

Mustaqillikka erishganidan so‘ng Qozog‘iston fuqarolarning etnik o‘ziga xosliklari saqlab qolishga harakat qila boshladi va bu masalani ancha muvaffaqiyatli amalga oshira olgan postsovet davlatlaridan biridir. Bu muvaffaqiyat Qozog‘istondagi davlat hokimiyati etnik va fuqarolik o‘ziga xosliklari o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlashga muvaffaq bo‘lganligi bilan asoslanadi. Bu davlatning milliy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi [4, S. 9]. Albatta millatlararo totuvlikni saqlash, asrab-avaylashda davlatlararo madaniy-gumanitar hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, bu borada Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonning madaniyatlarning ta’siri haqidagi so‘zlarini eslash o‘rinli: “Har bir xalq madaniyatining o‘ziga xosligini tan olgan holda, biz shu bilan birga butun Markaziy Osiyo madaniyatini rad etmaymiz. Bu bizning unda yashovchi barcha xalqlar bilan samimiy, do‘stona munosabatlarimizni belgilaydi. Tashqi ta’sirga, boshqa sivilizatsiya, siyosat, madaniyat yoki iqtisodiyot ta’siriga duch kelmagan birorta ham xalq yo‘q” [8].

Darhaqiqat, madaniy aloqalarda Buyuk Ipak yo‘li nafaqat savdo rivojlanishiga turtki bo‘ldi, balki fan va madaniyatdagi ilg‘or g‘oyalarni ham o‘zgartirdi. O‘rganib chiqan ilmiy asarlar tahliliga qaraganda, ikki xalq o‘rtasidagi munosabatlar tarixida madaniy ta’sirning muhim rolini ko‘rishimiz mumkin. X–XI asrlarda ikki xalqning madaniy qadriyatlarining o‘zaro ta’sirining yorqin namunasi Abu Ali ibn Sinoning hayotidan uning avtobiografiyasida bayon etilgan bir hikoyadir. Yosh olim Aristotelning “Metafizika” asarini ko‘p marta o‘qidi va qayta-qayta o‘qidi, ammo uning chuqur ma’nosini o‘zining mashhur salafi Abu Nasr Forobiyning (hozirgi Qozog‘iston hududidagi O‘tror shahrida tug‘ilgan) qo‘lyozmalariga duch kelmaguncha tushuna olmadi. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari, o‘z navbatida, taniqli Yusuf Xos Hojib Balosog‘uniy kabi yetakchi turkiyzabon olimlar va shoirlarga ta’sir ko‘rsatdi [6, S. 39].

Ikki xalq o‘rtasidagi madaniy aloqalar sovet Ittifoqi davrida ham to‘xtab qolmagan. Qozoq va tojik xalqlari o‘zlarining madaniy-gumanitar hamkorligini rivojlantirib borgan. Ushbu xalqlarning madaniy-gumanitar hamkorligi sifatli rivojlanishi va progressiv tabiati bilan ajralib turardi. SSSR parchalanganidan keyin mustaqillikning dastlabki yillaridan ikki davlat o‘rtasidagi madaniy-gumannitar hamkorlik o‘zgaruvchan holatda edi. Fikrimizcha, bu munosabatlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qancha omillar mavjud edi: Birinchidan, yetarli va samarali ikki tomonlama madaniy-gumanitar hamkorlik huquqiy bazasining yo‘qligi; Ikkinchidan, mustaqillikning nisbiy eyforiyasi, milliy davlatchilik tuzilmasining mustahkamlanishi, xalqaro tashkilotlarga qo‘shilish va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashga intilishlar; Uchinchidan, bu munosabatlarning MDH doirasidagi past samaradorligi; To‘rtinchidan, Tojikistondagi keskin siyosiy vaziyat. Ya’ni, fuqarolar urushi tufayli Tojikistondagi og‘ir vaziyatga qaramay, Qozog‘iston bilan madaniy almashinuv davom etdi. Tojikiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar asoslari to‘g‘risidagi shartnoma (1993-yil 13-yanvar) madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan edi [10, S. 20].

Qozog‘iston va Tojikiston davlatlari madaniy-gumanitar hamkorligi asta-sekin ijobiy tomonga qarab o‘zgara boshladi. Ikkala mamlakatning ilmiy delegatsiyalari Abayning 150 yilligi, Jambul Jaboyevning 150 yilligi va Somoniylar davlatining 1100 yilligiga bag‘ishlangan madaniy tadbirlarda ishtirok etdilar. Matbuot, radio, televideniye va badiiy adabiyot madaniy qadriyatlar almashinuvi va madaniy hamkorlikni kengaytirish uchun katta salohiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash joiz. Bir-birining umuminsoniy qadriyatlariga tayanadigan milliy madaniyatlarning umumiyligi, umumiy ildizlarini targ‘ib qilish xalqlarning madaniy yutuqlarini targ‘ib qilishda katta ahamiyatga ega.

Qozog‘istondagi tojik diasporasi ham o‘ziga xos mavqega ega bo‘lib, 49827 nafar kishi(2021-yil)ni tashkil etadi [3, S. 11]. Uning asosan SSSR parchalanishidan oldin u yerga doimiy ravishda kelgan tojiklardan iborat. Shuningdek, ko‘plab tojikistonliklar 1990-yillarning boshlarida ham Qozog‘istonga ko‘chib o‘tishgan. Ta’kidlash joizki, tojik diasporasi Qozog‘iston jamiyatiga integratsiyalashgan va tojikistonlik odamlar boshqalar bilan bir qatorda barcha huquqlardan foydalanadilar.

1999-yil 29-sentabrda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston madaniyat va fan arboblarining xalqaro uchrashuvida nutq so‘zlagan Qozog‘iston Prezidenti N.A. Nazarboyev Markaziy Osiyoda yagona geosiyosiy va geoiqtisodiy makon yaratish muhimligini ta’kidlab, shunday dedi: "Bizning strategik iqtisodiy maqsadimiz yagona iqtisodiy makon, yagona savdo va bojxona zonasi, yagona valyuta makoni va yagona iqtisodiy strategiyani shakllantirishdir". U 2004-yil 18-fevraldagi murojaatida “Qozog‘iston, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida imzolangan abadiy do‘stlik shartnomalari bunday birlashish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari ittifoqini” yaratishga chaqirdi [7, S. 183].

Shuni ta’kidlash kerakki, Qozog‘istondagi tojiklar zich joylashgan hududlarda milliy jamoalar va markazlar mavjud bo‘lib, tojik diasporasi mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy-gamanitar hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Janubiy Qozog‘iston viloyatining Olmaota, Qarag‘anda, Qostanay, Petropavlovsk, Taraz, Chimkent shaharlarida va Sariagash tumanida, shuningdek, Jambul va Janubiy Qozog‘iston viloyatlaridagi viloyat markazlarida sakkizta madaniy markaz mavjud. 2003-yil fevral oyida ular birlashib, “Qozog‘istonning “Somoniyon” tojik madaniy va jamoat birlashmalari assotsiatsiyasini tashkil etishdi [10, S. 20-21].

2003-yil fevral oyidan beri Qozog‘iston xalqlari assambleyasi homiyligida faoliyat yuritib kelmoqda. Assotsiatsiya tarkibidagi eng katta jamoa Janubiy Qozog‘iston viloyatining Maxtaaral tumanidagi “Panch” tojik madaniy markazi bo‘lib, unda taxminan 30 000 tojik istiqomat qiladi. Ko‘plab tojiklar ushbu viloyatning Sari-Agash tumanida ham yashaydi. Tojik millatiga mansub aholisi ko‘p bo‘lgan hududlarda oltita tojik tilidagi maktab faoliyat yuritadi. Tojik diasporasi bilan ishlash Tojikiston elchixonasining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Tojikiston hukumati tojiklarning barcha viloyat va shahar milliy madaniy markazlari bilan muntazam aloqada bo‘lib turadi.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 13-iyunda Tojikiston Respublikasiga rasmiy tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi ijtimoiy, madaniy va gumanitar aloqalarni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu tashrif davomida imzolangan shartnomalar ijtimoiy-madaniy sohada o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Tojikiston

Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi deklaratsiyada ikki davlat xalqlari o‘rtasida ma’naviy o‘zaro tushunishni mustahkamlash muhimligini e’tirof etgan holda, ilmiy, texnik, madaniy-gumanitar hamkorlikni, shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida rivojlantirishga sodiq ekanligi ta’kidlash joiz [10, S. 21].

Ikki mamlakat o‘rtasida madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo‘shgan yana bir hujjat Tojikiston Respublikasi hukumati va Qozog‘iston Respublikasi hukumati o‘rtasida Ta’lim sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim bo‘ldi. Ushbu hujjatda ikki mamlakat ta’lim sohasida ikki tomonlama hamkorligini rivojlantirishga intilib tuzganligidan dalolat beradi. Ushbu hujjatda quyidagi sohalarda hamkorlik qilishga kelishib olganlar: oliy, boshlang‘ich va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimi va tuzilishi, islohotlar va yangi ta’lim texnologiyalari, o‘quv va metodik materiallar haqida ma’lumot almashish kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olgan. Tomonlar boshlang‘ich, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratganligining guvohi bo‘lamiz [10, S. 21].

Ushbu kelishuvlar doirasida ikki mamlakat olimlari astrofizika, o‘simliklar fiziologiyasi va genetikasi, suv muammolari va ekologiyasi, seysmologiya, tarix, sharqshunoslik va boshqa sohalarda tadqiqotlar olib boradilar. Qozog‘iston Respublikasining ko‘plab ilmiy markazlari, shuningdek, Qozog‘iston Respublikasi Milliy Fanlar akademiyasi institutlari bilan Tojikiston ilmiy tadqiqot institutlari o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatilgan [10, S. 21].

Shuningdek, Qozog‘iston va Tojikiston o‘rtasida madaniy-gumanitar sohalarda ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirishda Tojikistonda “Tojikiston-Qozog‘iston” do‘stlik jamiyatining tashkil etilishi muhim bosqich bo‘lganligini qayd etish lozim. Bu ikki mamlakat o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda [10, S. 22]. 2004-yilda elchixona tashabbusi bilan Qozog‘iston-Tojikiston do‘stlik jamiyati tashkil etilgan. Unga tarix fanlari doktori va Qozog‘iston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti direktori M.X.Abuseitova rahbarlik qiladi. Uning asosiy maqsadi madaniy kunlar, ko‘rgazmalar, xalq hunarmandchiligi namoyishlari va kinofestivallarni tashkil etish va o‘tkazish orqali ikki mamlakat jamoatchiligini fan, madaniyat, texnologiya, iqtisodiyot, ta’lim va hayotning boshqa sohalaridagi tarix, an’analar va yutuqlar bilan tanishtirishdir [2].

Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqlari turli tarixiy bosqichlarini birgalikda bosib o‘tishgan. 1991 – 2025-yillar mobaynida Qozog‘iston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan davlatlararo aloqalarini keng miqyosda rivojlantirish vazifasi ushbu davlatlar munosabatlarining mustahkam

huquqiy asoslarini yaratilishiga olib keldi. Shuni ta’kidlash kerakki, Qozog‘iston Respublikasi mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning huquqiy asoslarini bir qator imzolangan hujjatlar tashkil etadi.

Qozog‘iston va Tojikiston davlatlari o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik XXI asr boshlariga kelib yangicha ruhda zamon bilan hamnafas ruhda ilmiy va gumanitar sohalarda jadal rivojlana boshladi. Tojikistonlik olimlar va mutaxassislar Qozog‘istonda o‘tkaziladigan xalqaro konferensiyalar va simpoziumlarda muntazam ravishda ishtirok etadilar. Tojikistonlik mutaxassislar doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo‘yicha Qozog‘iston ilmiy kengashlari yig‘ilishlarida rasmiy opponentlar sifatida ishtirok etadilar. Qozog‘iston Milliy universiteti, Ilmiy-texnika instituti, Aloqa va fuqaro aviatsiyasi akademiyalari hamda Menejment, iqtisodiyot va prognozlash institutida tojik talabalari va stajyorlarining ancha katta kontingenti mavjud. Harbiy ta’lim muassasalari Tojikiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Davlat chegarasini himoya qilish davlat qo‘mitasi uchun ofitserlar tayyorlaydi. 2006-2007-yillarda Tojikistondan qo‘shimcha 100 ta birinchi kurs talabasi Qozog‘iston universitetlari talabalari orasida tahsil oladi [2]. Ushbu kvota Tojikiston prezidenti Imomali Rahmonning 2006-yil 4-6-may kunlari Qozog‘istonga rasmiy tashrifi chog‘ida Tojikistonga berilgan edi. Ushbu tashrif davomida yagona axborot va madaniy makon yaratish va ikki mamlakat olimlari, yozuvchilari va san’atkorlari o‘rtasida muntazam uchrashuvlarni tashkil etish zarurligi haqida fikr almashilganligini tahlil etishimiz mumkin [10, S. 22].

Shuningdek, tojik tilida ta’lim beradigan maktablarni darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlashni muhim deb biladi. Har yili ushbu maktablarning bitiruvchilari Tojikiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ajratilgan kvota bo‘yicha Tojikistondagi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuboriladi. Xususan, E.Rahmonovning 2006-yilgi tashrifi davomida ushbu kvota 40 o‘ringa oshirilgan va o‘sh paytga kelib jami 130 qozog‘istonlik tojik millatiga mansub yoshlar Tojikiston Respublikasi universitetlari va institutlarida tahsil olganligining guvohi bo‘lamiz.

R.R.Aliyeva fikricha, integratsiya integratsiyalashgan milliy iqtisodiyotlarning kelajakdagi farovonligini belgilovchi muhim rivojlanish omilidir. U kapital, tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchi harakatini milliy to‘siqlardan ozod qilish jarayonini ifodalaydi. Integratsiya, ilmiy-texnik taraqqiyot, asosiy kapitalga investitsiyalar va inson kapitaliga investitsiyalar kabi iqtisodiy o‘sishning boshqa tan olingan omillari bilan bir qatorda, har qanday mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Integratsiyaning asosiy maqsadi iqtisodiy o‘sishga erishish va integratsiya assotsiatsiyasi mamlakatlari bo‘ylab turmush darajasini tenglashtirishdir [1, S. 188].

Binobarin, Qozog‘istonning mintaqa davlatlari bilan tarixan tarkib topgan do‘stona aloqalar zamini – mintaqah xalqlari madaniyatlari mushtarakligi, bir-birini

to‘g‘ri tushunish va o‘zaro ishonch orqali qozoq, qirg‘iz, tojik, o‘zbek va turkman xalqi uchun ona Vatani Qozog‘istonga munosib farzandlar sifatida kamol topishlari hamda ularning Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniy-gumanitar hamkorligi taraqqiyoti va istiqboli yo‘lida sidqidildan xizmat qilishlari maqsadga muvofiqdir, deb o‘ylaymiz.

Xulosa. Qozog‘iston va Tojikiston respublikalari madaniy-gumanitar hamkorligi Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi yuzasidan tadqiqot olib borish jarayonida ko‘rib chiqilgan hujjatlar tahliliga ko‘ra, Qozog‘iston Respublikasi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lib, dini, madaniyati va urf-odatlaridan kelib chiqib, ular o‘zaro yaqin munosabatlarda bo‘lgan. Bu esa, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarini mustahkamlashda Qozog‘iston va Tojikiston respublikalari madaniy-gumanitar hamkorligi muhim ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: maqola Markaziy Osiyo davlatlarining jahon hamjamiyatiga integratsiyasi tahlilida Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlariga Qozog‘iston va Tojikiston respublikalari madaniy-gumanitar hamkorligining ta’sirini muhim integratsiyalashuv misoli sifatida ko‘rib chiqilganligi e’tiborni jalb qiladi. Shuningdek, mintaqa davlatlari uchun tavsiya sifatida quyidagilarni ma’lum qilish mumkinki, ko‘pvektorli siyosat doirasida Qozog‘iston va Tojikiston respublikalari madaniy-gumanitar hamkorligi formatidan nafaqat Tojikiston bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, balki mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, o‘zaro ishonch muhitini mustahkamlash uchun ham samarali foydalanish zarur. Kelajakda Qozog‘iston Respublikasining mintaqa davlatlari bilan madaniy-gumanitar hamkorligini kuchaytirish – Markaziy Osiyo integratsiyasi jarayonlari rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алиева Р.Р. Интеграция - фактор устойчивого развития и стабильности государств Центральной Азии. –С.188. // https://cyberleninka.ru/article/n/ integratsiya-faktor-ustoychivogo-razvitiya-i-stabilnosti-gosudarstv-tsentralnoy-azii/viewer (Murojaat etilgan sana: 15.04.2026.).

2. Искандаров А. «Казахстан для Таджикистана главный партнер» https://centrasia.org/newsA.php?st=1156481460#gsc.tab=0 (Murojaat etilgan sana: 15.04.2026.).

3. Итоги Национальной переписи населения 2021 года в Республике Казахстан. Нұр-Сұлтан 2022. –63 с. -С. 11.

4. Кадыржанов Р.К. Этнокультурный символизм и национальная идентичность Казахстана / Под общ. ред. З.К. Шаукеновой. – Алматы: Институт философии, политологии и религиоведения КН МОН РК, 2014. – С.9. – 168 с.

5. Назарбоев Н. В потоке истории (на тадж. языке). - Душанбе, 2001. – С. 110.

6. Нуралиев А. Таджикско-казахские культурно-литературные связи конца XIX начала XX вв. Душанбе, 2001. – С. 39.

7. Омаров М.М. Роль интеграционных инициатив Казахстана в обеспечении безопасности в Центральной Азии. Polit Book. 2012/3. // https://cyberleninka.ru/article/n/rol-integratsionnyh-initsiativ-kazahstana-v-obespechenii-bezopasnosti-v-tsentralnoy-azii; https://cyberleninka.ru/journal/n/politbook?i=1158980

8. Субрегиональная стратегия устойчивого развития Центральной Азии. 2013. – С.10.

9. Шарипов А.Н. Дипломатические, торгово-экономические и культурные взаимоотношения Таджикистана с Казахстаном (1991-2006 гг.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе-2011. – С. 20.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТЕНЦИАЛЬНОГО ПРИСОЕДИНЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА К ЕВРАЗИЙСКОМУ ЭКОНОМИЧЕСКОМУ СОЮЗУ В КОНТЕКСТЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Нургалиева И.
ст. ОП «Мировая экономика»
Esil University
Астана, Казахстан

Талимова Г.
магистр, ст. преподаватель
Esil University,
Астана, Казахстан

Вопрос возможного присоединения Евразийский экономический союз к Узбекистану представляет собой многослойную научно-практическую проблему, находящуюся на пересечении экономической интеграции, институционального сближения и геополитического балансирования в регионе Центральной Азии. Узбекистан, обладая одной из наиболее динамично развивающихся экономик региона, выступает важным актором, чьи решения в сфере внешнеэкономической стратегии способны существенно

повлиять на конфигурацию региональных интеграционных процессов. В условиях усиливающейся взаимозависимости экономик постсоветского пространства, а также трансформации глобальных цепочек поставок, дискуссия о возможном участии страны в ЕАЭС приобретает не только экономическое, но и стратегическое измерение, затрагивая вопросы долгосрочной устойчивости развития и внешнеполитического позиционирования государства.

С институциональной точки зрения ЕАЭС представляет собой форму углублённой региональной интеграции, основанной на принципах свободного движения товаров, услуг, капитала и рабочей силы, а также согласованной макроэкономической политики. В соответствии с теорией экономической интеграции Бела Баласса, развитие подобных объединений проходит стадии от зоны свободной торговли до экономического и политического союза. ЕАЭС на текущем этапе сочетает элементы общего рынка с частичной координацией экономической политики, что создаёт как возможности, так и ограничения для потенциальных новых участников. Дополнительно следует отметить, что институциональная архитектура союза предполагает наличие наднациональных органов регулирования, что требует от стран-участниц определённой степени делегирования суверенных полномочий.

Узбекистан в последние годы демонстрирует последовательную либерализацию экономики, реформирование валютного регулирования и улучшение инвестиционного климата. Эти процессы сближают его институциональную среду с требованиями ЕАЭС, однако сохраняются значимые различия в таможенно-тарифной политике, регулировании труда и степени государственного участия в экономике. Согласно обновленным докладам Всемирного банка (прогноз на 2025–2026 гг.), структура узбекской экономики проходит через этап глубокой трансформации, но сохраняет потребность в защите внутренних рынков, что предполагает необходимость адаптационного периода в случае интеграции. В этой связи особое значение приобретает вопрос гармонизации нормативно-правовой базы и поэтапного снижения протекционистских барьеров.

Экономические эффекты возможного присоединения могут быть рассмотрены через призму торговой диверсификации и изменения транзитного потенциала страны. С одной стороны, вступление в ЕАЭС потенциально расширяет доступ узбекских товаров на рынки России, Казахстана, Беларуси, Армении и Кыргызстана, снижая нетарифные барьеры и транзакционные издержки. С другой стороны, возможна частичная переориентация торговых потоков, что может повлиять на существующие соглашения в рамках финализации процесса вступления в ВТО в 2025–2026

годах и двусторонних режимов свободной торговли. По оценкам Евразийского банка развития (2025), наибольший выигрыш Узбекистан может получить в сфере трудовой миграции и цифровизации трансграничных платежей, которые составляют значимую долю валютных поступлений страны. Кроме того, потенциально усиливается роль страны как центрального звена транзитных коридоров в рамках развития маршрутов «Север - Юг» и «Китай - Киргизия - Узбекистан».

Особое значение имеет фактор трудовой миграции, поскольку миллионы узбекских граждан работают на территории стран ЕАЭС, прежде всего в России. Институционализация их статуса в рамках общего рынка труда может привести к снижению административных барьеров, улучшению условий занятости и повышению защищённости мигрантов. Однако одновременно возникает зависимость от экономической конъюнктуры отдельных государств союза, что усиливает уязвимость национальной экономики к внешним шокам. В долгосрочной перспективе это может стимулировать необходимость диверсификации направлений трудовой миграции и развития внутреннего рынка труда.

Геополитическое измерение данного вопроса не менее значимо. Центральная Азия в последние годы становится пространством пересечения интересов различных центров силы, включая Россию, Китай, Европейский союз и Турцию. Участие Узбекистана в ЕАЭС может рассматриваться как усиление евразийской интеграционной оси, однако при этом страна традиционно придерживается многовекторной внешней политики, стремясь балансировать между различными интеграционными инициативами. В этой связи вступление в ЕАЭС может восприниматься как частичное усиление институциональной привязки к российско-центричной интеграционной модели, что требует тонкого политического баланса и гибкости дипломатической стратегии.

С учётом трансформации региональных процессов к 2026 году, оценка не устойчивости интеграции в Центральной Азии смещается от формально-правовых рамок к практикам функционального взаимодействия и институциональной адаптивности. Современные аналитические доклады Organisation for Economic Co-operation and Development (2024–2025) подчёркивают, что эффективность интеграционных объединений определяется не столько глубиной формального членства, сколько способностью государств синхронизировать экономическую политику, цифровые регуляторные среды и транспортно-логистические системы при сохранении стратегической автономии. В этих условиях всё более актуальной становится модель «гибкой» или «модульной» интеграции, при которой

государства участвуют в отдельных направлениях сотрудничества без полного институционального присоединения. Узбекистан в 2026 году фактически реализует именно такой подход во взаимодействии с Евразийским экономическим союзом: сохраняя статус наблюдателя, страна последовательно углубляет участие в торгово-экономических, таможенных и инфраструктурных инициативах союза, что позволяет извлекать практические выгоды интеграции без принятия всех обязательств полноценного членства.

Такая модель позволяет апробировать преимущества интеграции, минимизируя при этом потенциальные издержки.

Дополнительным фактором выступает конкуренция интеграционных проектов. Параллельно с ЕАЭС развивается китайская инициатива «Один пояс - один путь», которая формирует альтернативную инфраструктурную и торговую связанность региона. Узбекистан активно участвует в обоих процессах, что усиливает его роль как транзитного узла, но одновременно усложняет выбор институциональной траектории и требует согласования различных внешнеэкономических приоритетов.

Таким образом, потенциальное присоединение Узбекистана к ЕАЭС нельзя рассматривать исключительно в экономической плоскости. Это комплексный процесс, включающий институциональную адаптацию, перераспределение торговых потоков, трансформацию миграционных режимов и геополитическое позиционирование страны. Наиболее вероятным сценарием в краткосрочной перспективе представляется углубление секторального сотрудничества без полного членства, что позволяет минимизировать риски и одновременно извлекать выгоды из интеграционных процессов. В более долгосрочной перспективе многое будет зависеть от динамики внутренних реформ в Узбекистане и эволюции самого ЕАЭС как интеграционного объединения.

Список использованной литературы:

1. Balassa, B. (1961). The Theory of Economic Integration.

2. World Bank (2025). Uzbekistan Economic Update.

3. Asian Development Bank (2025). Central Asia Regional Economic Cooperation Report.

4. OECD (2021). Regional Integration in Central Asia: Opportunities and Challenges.

5. Eurasian Economic Commission (2025.). Statistical Yearbook of the EAEU.

6. Pomfret, R. (2019). The Central Asian Economies in the Twenty-First Century.

7. Vinokurov, E. (2017). Eurasian Economic Union: Current State and Preliminary Results.

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN HAMKORLIGINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Sa’diyev B.
Diplomat University
Ijtimoiy va siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston

Xamrayeva M.
Diplomat University
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

Kirish. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo sezilarli darajada o‘zgardi va bu o‘zgarishlar olimlar hamda siyosatchilarning e’tiborini tobora ko‘proq tortmoqda. Geosiyosiy muvozanatning o‘zgarishi va iqtisodiy aloqalarning kuchayishi mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. 1991-yilda mustaqillikka erishgandan so‘ng, mintaqa davlatlari o‘z davlatchiligini qurish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish va yangi tashqi siyosatni shakllantirish kabi murakkab vazifalarni hal qilishga majbur bo‘ldi. Bu jarayon hech bir davlat uchun oson kechmadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston mintaqada alohida ajralib turibdi. U qo‘shni davlatlar bilan faolroq aloqalar o‘rnatish, barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan siyosatni olib bormoqda. Ushbu faol yondashuv 2010-yillarning o‘rtalaridan boshlab kuchaydi. Bungacha O‘zbekiston ko‘proq ehtiyotkor va ichki masalalarga yo‘naltirilgan siyosat yuritgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda qo‘shnilar bilan ochiq muloqot o‘rnatish va chegaralar, savdo kabi eski muammolarni hal etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada savdo-sotiq hajmi oshib, qo‘shma loyihalar soni ko‘paydi.

Ushbu mavzu bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar yozilgan. Aleksandr Kuli (Alexander Cooley) yirik davlatlarning raqobati va xalqaro institutlarning mintaqa tashqi aloqalariga ta’sirini tadqiq qiladi. Marlene Laruell esa identifikatsiya va geosiyosiyat atrofidagi o‘zgaruvchan narrativlarni o‘rganadi. Farhod Tolipov kabi mahalliy ekspertlar esa xavfsizlik va integratsiya masalalariga mintaqa ichidagi nuqtai nazardan yondashadilar. Bularning barchasi Markaziy Osiyo endi faqat tashqi kuchlarning ta’sir doirasi emasligini, balki

mamlakatlar o‘z hamkorlik siyosatini mustaqil ravishda ilgari surayotganini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi o‘zgarishlari mintaqaviy hamkorlikda haqiqiy burilish yasaganini ko‘rsatadi. Diplomatik aloqalarning kuchayishi, nizolarni hal etish va infratuzilmani rivojlantirish ana shu jarayonning muhim qismlari hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi vaqtda dolzarb bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar quyidagilar ekanligi ta’kidlanadi: savdoni liberallashtirish, transport aloqalarini yaxshilash, energiya resurslarini birgalikda ishlatish, suv resurslarini boshqarish, ekologik muammolar va xavfsizlik masalalari. Olimlarning fikricha, ushbu yo‘nalishlarda muvaffaqiyatga erishish nafaqat alohida davlatlar, balki butun mintaqaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu maqola xorijiy va mahalliy manbalardan olingan fikr va yondashuvlarni birlashtirgan holda O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot asosiy ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratadi. So‘nggi siyosiy qarorlarni kengroq nazariy doiraga joylashtirish orqali hamkorlikni rag‘batlantiruvchi omillar, mavjud muammolar va kelajakdagi istiqbollarni tushunish maqsad qilingan.

Asosiy qism. Savdo va iqtisodiy integratsiya. Markaziy Osiyoda hamkorlikning asosiy ustunlaridan biri mintaqa ichidagi savdoni kengaytirish va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishdir. 2016-yildan boshlab O‘zbekiston savdo to‘siqlarini sezilarli darajada kamaytirdi, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirdi hamda qo‘shni davlatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzishni faol davom ettirdi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yildan 2020-yillarning boshlariga qadar Markaziy Osiyoda mintaqa ichidagi savdo hajmi 50 foizdan ortiq o‘sdi, bu o‘sishda O‘zbekiston yetakchi omillardan biri bo‘ldi.

Olimlar bu tendensiyani pragmatik mintaqaviylikka o‘tishning namoyon bo‘lishi deb baholaydilar. Aleksandr Kuli (Alexander Cooley) Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlik tobora “ideologik yo‘nalishlardan ko‘ra funksional ehtiyojlar” asosida shakllanayotganini ta’kidlaydi, ayniqsa savdoni osonlashtirish va bozorlarga kirish masalalarida. Mahalliy nuqtai nazardan esa Farkhod Tolipov O‘zbekiston siyosati “iqtisodiy ochiqlikning yangi bosqichini boshlab bergani, chegaraoldi tadbirkorlik va mintaqaviy qiymat zanjirlarini shakllantirishni rag‘batlantirayotgani”ni qayd etadi. Natijada mintaqada chegaraoldi savdo zonaları, qo‘shma korxonalar va sanoat hamkorligi loyihalari tobora kuchaymoqda.

Transport va logistika aloqalari. Markaziy Osiyoning quruqlikka qamalgan geografik holatini hisobga olgan holda, transport va logistika hamkorlikning yana bir muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyotni jahon bozorlariga integratsiya qilish uchun aloqalarni mustahkamlash zarur. O‘zbekiston temir yo‘llarni modernizatsiya qilish, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish hamda mintaqani

Janubiy Osiyo, Xitoy va Yevropa bilan bog‘laydigan tranzit koridorlarini yaratishni faol rag‘batlantirmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki transport infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar tranzit vaqtini va xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirganini hamda mintaqaning raqobatbardoshligini oshirganini ta’kidlaydi. Marlene Laruell “aloqadorlik nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ahamiyatga ham ega” ekanligini ta’kidlab, yaxshi infratuzilma o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirishi va mojarolar ehtimolini kamaytirishini qayd etadi. Mintaqaviy temir yo‘l koridorlari va ko‘p modal logistika markazlari kabi loyihalar aloqadorlikni hamkorlikning muhim omili sifatida kuchaytirayotganini ko‘rsatmoqda.

Energiya hamkorligi. Energiya sohasidagi o‘zaro bog‘liqlik mintaqaviy munosabatlarni shakllantiruvchi muhim omillardan biridir. Markaziy Osiyo davlatlari bir-birini to‘ldiruvchi energiya resurslariga ega: Qirg‘iziston va Tojikiston kabi yuqori oqimdagi davlatlar gidroenergetika salohiyatiga boy bo‘lsa, O‘zbekiston va Qozog‘iston kabi quyi oqimdagi davlatlar uglevodorodlar bilan boy.

So‘nggi paytlarda elektr energiyasi savdosi va gaz yetkazib berish bo‘yicha tuzilgan kelishuvlar hamkorlik qilishga tayyorlikning ortib borayotganini ko‘rsatadi. Xalqaro energetika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, mintaqaviy elektr energiyasi almashinuvi kuchaygan bo‘lib, bu energiya xavfsizligi va samaradorligini oshirishga hissa qo‘shmoqda. Farhod Tolipov “Markaziy Osiyoda energiya hamkorligi raqobatdan o‘zaro to‘ldirish tamoyiliga o‘tishni aks ettiradi” deb ta’kidlaydi. Bu esa mamlakatlarga resurslardan samarali foydalanish va ta’minot tizimlarini barqarorlashtirish imkonini beradi.

Suv resurslarini boshqarish va ekologik muammolar. Suv resurslarini boshqarish mintaqadagi eng murakkab va nozik masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryo tizimlari bir nechta davlatlar tomonidan baham ko‘riladi, bu esa muvofiqlashtirilgan boshqaruvni talab qiladigan o‘zaro bog‘liqlikni keltirib chiqaradi.

Orol dengizi inqirozi merosi mintaqaviy ekologik siyosatni shakllantirishda hamon muhim ta’sir ko‘rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi hisobotlarida suvni taqsimlash, iqlimga moslashish va ekotizimlarni tiklash bo‘yicha hamkorlik zarurligi ta’kidlanadi. Marlene Laruell atrof-muhit sohasidagi hamkorlikni “mintaqaviylikning yetuklik darajasini sinovdan o‘tkazuvchi lakmus qog‘ozi” deb baholaydi, chunki u milliy manfaatlarni umumiy barqarorlik maqsadlari bilan muvozanatlashtirishni talab qiladi.

Xavfsizlik va mintaqaviy barqarorlik. Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik mintaqaviy munosabatlarning yana bir muhim yo‘nalishidir. Markaziy Osiyo chegara boshqaruvi, ekstremizm va transchegaraviy tahdidlar kabi bir qator muammolarga duch kelmoqda. O‘zbekiston ishonchni oshirish choralari va

mintaqaviy muloqot orqali kollektiv xavfsizlikni mustahkamlashga faol hissa qo‘shmoqda.

Aleksandr Kuli mintaqaviy xavfsizlik mexanizmlari tobora “ko‘p qatlamli” bo‘lib borayotganini, ular mintaqaviy tashabbuslar va tashqi hamkorlikni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, mahalliy olimlar mahalliy yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaydilar. Farhod Tolipovning fikricha, Markaziy Osiyoda barqaror xavfsizlik “tashqi bosimdan ko‘ra mintaqaviy egalik va ishonchga asoslangan mexanizmlar” orqali ta’minlanishi mumkin.

Institutsional va madaniy hamkorlik. Institutsional rivojlanish va ko‘p tomonlama muloqot mintaqaviy hamkorlikni saqlab qolish uchun zaruriy shartga aylandi. 2018-yildan boshlab Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari umumiy muammolarni muhokama qilish va siyosiy ustuvorliklarni muvofiqlashtirish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu mexanizmlar mintaqada oshkoralik, ishonch va muvofiqlashtirishni oshirdi.

Bundan tashqari, madaniy va gumanitar hamkorlik mintaqaviy identifikatsiyani mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy almashinuvlar, turizm tashabbuslari va madaniy dasturlar jamiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni kuchaytiradi.

Xulosa. O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik tobora chuqurroq iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy integratsiya bilan xarakterlanmoqda. Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlari mintaqa ichidagi savdo hajmining o‘sishini, transport aloqalarining yaxshilanishini va iqtisodiy bog‘lanishlarning kengayishini tasdiqlamoqda.

Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari savdo, transport va logistika, energetika, suv resurslarini boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda mintaqaviy xavfsizlikni o‘z ichiga oladi. Amudaryo va Sirdaryo suvlarini boshqarish, shuningdek, Orol dengizi inqirozining uzoq muddatli oqibatlari kabi umumiy muammolar mintaqaviy miqyosda muvofiqlashtirilgan harakatlar zarurligini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Umuman olganda, mintaqaviy hamkorlik yanada tizimli va o‘zaro manfaatli tus olmoqda. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda barqarorlik va integratsiyani mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Laruelle, M., & Peyrouse, S. (2013). Globalizing Central Asia: Geopolitics and the challenges of economic development. Routledge.

2. Laruelle, M. (2018). Being Muslim in Central Asia: Practices, politics, and identities. Brill.

3. Starr, S. F., & Cornell, S. E. (2018). Uzbekistan’s new face. Rowman & Littlefield.

4. Fumagalli, M., & Laruelle, M. (Eds.). (2012). Central Asia in contemporary world politics. (Various academic chapters on regional cooperation).

5. Tolipov, F. (2014). Flexibility or strategic confusion? Foreign policy of Uzbekistan. Central Asia Program, George Washington University.

6. Tolipov, F. (2025). Foreign policy decision-making in Uzbekistan: IR theoretical perspective. Insight Turkey.

7. Weitz, R. (2017). Uzbekistan's new foreign policy: Change and continuity under new leadership. Silk Road Papers.

8. Allison, R. (2020). Challenges and prospects for Central Asian regionalism. Central Asian Survey.

9. Bobokulov, I. (2006). Central Asia: Is there an alternative to regional integration? Central Asian Survey.

10. World Bank. (2025–2026). Central Asia economic update and integration indicators.

11. Asian Development Bank. (2023–2026). Central Asia regional cooperation and CAREC reports.

12. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). Water, climate, and environmental cooperation in Central Asia.

CENTRAL ASIA IN A TRANSFORMING INTERNATIONAL ORDER: FOREIGN POLICY APPROACHES AND GLOBAL CONNECTIVITY

Sodikova N.
Lecturer at the University of World Economy and Diplomacy
Tashkent, Uzbekistan

Today, the geopolitical competition of major actors in Central Asia is expressed through the "New Great Game" concept. When analyzing the foreign policy activities of the Central Asian states, it is appropriate to examine the foreign policy initiatives within the framework of Central Asia+ formats, the projects and initiatives being implemented on the path to regional integration, and the future prospects of these Central Asia+ formats.

Central Asia + Russia. Summits held within the Central Asia + Russia platform further strengthen the unique dialogue between Central Asia and Russia. The Communiqué adopted at the second "Central Asia + Russia" summit, which took place in Dushanbe in October 2022, clearly affirmed a "commitment to the development of a multipolar world order" and the indivisibility of security. It placed

special emphasis on strategic partnership, with the leaders of the Central Asian states noting the "importance of further strengthening the strategic partnership with the Russian Federation"[88].

The joint statements outline wide-ranging economic and connectivity goals, including the elimination of trade barriers, the enhancement of the North-South corridor, and the creation of a "space for industrial cooperation" in areas such as digital technologies and low-carbon energy. A Joint Action Plan for 2025-2027 was adopted at this summit, which serves to elevate relations between the Central Asian states and the Russian Federation to a higher level. At the same time, security issues were not overlooked; the summit communiqué noted the need to continue six-party cooperation against terrorism, extremism, drug trafficking, and illicit trade.

According to political scientist Brian G. Carlson, "Russia today retains important instruments of influence in the security sphere in the region"[89]. Essentially, the "CA+Russia" platform reflects Russia's goal of strengthening its ties in Eurasia and preserving its institutional influence, while the Central Asian states support the idea of creating a common security community.

Central Asia + China. This mechanism, first formalized as the "China - Central Asia" summit held in Xi'an in 2023, serves to elevate Beijing's regional ties to an institutional level. "With the official Xi'an Declaration, this summit was established as a permanent, high-level, biennial structure aimed at jointly building the "China-Central Asia Community of Common Destiny"[90].

The primary objective of the People's Republic of China is to achieve mutual development and stability: the Xi'an Declaration clearly affirms "support for the Central Asian countries' choice of their own development path" and respect for their sovereignty[91]. From an economic perspective, the summit's statement calls for developing a comprehensive China-Central Asia energy partnership covering the entire supply chain (oil, gas, renewable energy, nuclear energy) to guarantee the stability of supply in the energy sector, as well as accelerating the construction of Line D of the Turkmenistan-China gas pipeline.

Infrastructural connectivity holds a key place for China and the Central Asian countries. In particular, the statements of the Chinese leadership place special emphasis on the "Belt and Road" Initiative projects and the proposal to establish a

[88] Communiqué of the Dushanbe Summit: Central Asia and Russia Reaffirm Commitment to Multipolarity and Strategic Partnership. // Electron resource: https://www.newscentralasia.net/2025/10/09/communique-of-the-dushanbe-summit-central-asia-and-russia-reaffirm-commitment-to-multipolarity-and-strategic-partnership/

[89] Brian G. Carlson. Central Asia in an Era of Great-Power Rivalry. CSS Analyses in Security Policy. 2023. –P.2. // Electron resource: https://ethz.ch/content/dam/ethz/special-interest/gess/cis/center-for-securities-studies/pdfs/CSSAnalyse327-EN.pdf

[90] Xi'an Declaration of the China-Central Asia Summit. 2023. // Electron resource: https://www.newscentralasia.net/2023/05/20/xian-declaration-of-the-china-central-asia-summit

[91] Xi'an Declaration of the China-Central Asia Summit. 2023. // Electron resource: https://www.newscentralasia.net/2023/05/20/xian-declaration-of-the-china-central-asia-summit

joint multilateral secretariat. According to Chinese declarations, "security cooperation is primarily aimed at jointly combating terrorism and extremism and resisting "external forces""[92]. In practice, the "Central Asia + China" format embodies Beijing's strategy of deepening economic interconnectivity under its leadership, while emphasizing China's support for the sovereignty of the Central Asian states.

Central Asia + USA. The decline of Western influence in Central Asia, the conflict between Russia and the West, the growing US-China rivalry, and the strengthening China-Russia partnership are profoundly impacting Central Asia's geopolitical and geoeconomic landscape. The C5+1 format, established at the UN in 2015, is Washington's primary mechanism for cooperation with Central Asia. It includes annual meetings of the foreign ministers of the US and the five republics, with these meetings now being elevated to the head-of-state level.

"The C5+1 format reflects US security and resource interests, including stabilizing Afghanistan, combating terrorism, preventing weapons proliferation, and accessing critical minerals and infrastructure"[93] "At a C5+1 meeting in April 2021, Secretary of State Blinken reaffirmed "the US commitment to the independence, sovereignty, and territorial integrity of the C5 countries". "This, in turn, demonstrated that the format also serves as a geopolitical counterbalance to Russian and Chinese influence"[94]. In practice, the C5+1 agenda has expanded beyond the scope of politics to also encompass the energy and economic sectors. For example, Washington launched the "Critical Minerals Dialogue" focusing on rare earth elements and lithium.

At the same time, "high-level working groups on trade and transport are aimed at developing the "Middle Corridor", connecting Central Asia with Europe while bypassing Russia"[95]. Thus, in addition to supporting security and development, the C5+1 also demonstrates the US's aspirations in geoeconomic competition, such as diversifying supply chains and promoting renewable energy. The emphasis in official C5+1 statements on topics like regional connectivity and counter-terrorism indicates Washington's strategic focus on Eurasia.

Central Asia + European Union. The European Union"s participation in the Central Asia+ format has recently been elevated to the highest level. The first "European Union - Central Asia" summit, held in Samarkand in April 2025, raised

[92] State Council of the People's Republic of China. China's position on global security initiative. Beijing. 2022. // https://www.mfa.gov.cn/eng/xw/wjbxw/202405/t20240530_11343749.html#:~:text=The%20Global%20Security%20Initiative%20(GSI)%20was%20proposed,cooperation**%20China%20focuses%20on%20action%20not%20rhetoric

[93] U.S. Department of State. (2020). United States Strategy for Central Asia 2019–2025: Advancing sovereignty and economic prosperity. Washington, DC.https://www.state.gov/united-states-strategy-for-central-asia-2019-2025/

[94] Brian G. Carlson. Central Asia in an Era of Great-Power Rivalry. CSS Analyses in Security Policy. 2023. –P.3.

[95] Charles E. Ziegler, "US Strategy in Central Asia and Shanghai Cooperation Organization," World Economy and International Relations, no. 4. 2024. –P.18.

the relationship to the status of a "strategic partnership"[96]. "The EU reaffirmed the goals of its 2019 Strategy for Central Asia, such as effective governance, the rule of law, and sustainable development, and designated the 2023 Joint Roadmap as the key document for cooperation"[97].

The official statements and joint declarations of the Central Asia-European Union summit gave special attention to reforms in interconnectedness, energy, education, and governance. In particular, at multilateral meetings, including the Central Asia+Italy summit which also covered EU topics, Central Asian leaders welcomed the "expansion and deepening" of ties within the framework of the EU Strategy and Roadmap[98]. In the Samarkand Declaration, the European Union committed to supporting regional integration through backing the Kyrgyz-Tajik border agreements and economic projects aimed at diversifying trade routes.

Central Asia + Japan. Since 2004, Japan has regularly held the "Central Asia + Japan Dialogue" at the foreign minister level. This dialogue was elevated to the level of a leaders' summit in December 2025. Japan views Central Asia as a stable source of resources and a security partner, and also seeks to balance the influence of Russia and China in Eurasia. The "Tokyo Declaration" reaffirms the long-standing cooperation. "It emphasizes Japan's role as a 'catalyst' for regional projects in human resource development, counter-terrorism, water resource management, and disaster risk reduction"[99]. Economically, the declaration launched a new Economic and Energy Dialogue to deepen trade, investment, and infrastructure connections.

"Japan has also pledged official development assistance and private investment for Central Asian railways and energy networks under the 'global partnership' initiative"[100]. Security cooperation, border control, and counter-terrorism training are clearly noted in the ministerial protocols. Overall, the Central Asia + Japan format solidifies Tokyo's interest in the energy and communications sectors and presents Japan as a reliable partner for Central Asia's independence and development.

Today, the states of Central Asia, as part of their multi-vector and pragmatic foreign policy, are consistently deepening their relations with Turkey, a country with which they share common historical, cultural, and civilizational affinities. This

[96] European External Action Service. EU-Central Asia Summit, Samarkand, Uzbekistan, 4 April 2025 [Press release]. European Union. // Electron resource: https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/eu-central-asia-summit-samarkand-uzbekistan-4-april-2025_en

[97] European Union & Central Asia States. Joint Roadmap for Deepening Ties between the European Union and Central Asia. Brussels. 2023.

[98] Qazinform. 2025, May 30. Central Asia + Italy Summit: Joint Declaration adopted. // Electron resource: https://qazinform.com/news/central-asia-italy-summit-joint-declaration-adopted-99e855

[99] Tokyo Declaration of the Summit of the "Central Asia plus Japan" Dialogue. // Electron resource: https://www.mofa.go.jp/files/100954362.pdf

[100] Central Asia and Japan discuss new cooperation formats at inaugural Tokyo summit. // Electron resource: https://www.euronews.com/2025/12/20/central-asia-and-japan-discuss-new-cooperation-formats-at-inaugural-tokyo-summit

cooperation, formed at the intersection of geopolitical, geo-economic, and geocultural dimensions, serves to strengthen the region's position in the international system and expand its foreign policy maneuvering capabilities.

From a political-philosophical perspective, "the concept of the Turkic world, built on factors such as shared historical memory, linguistic affinity, cultural heritage, and collective identity, serves as an ideological foundation that forms and strengthens 'normative proximity' in the regional arena. This approach allows regional cooperation to be interpreted not only through a balance of pragmatic interests or geopolitical calculations but also on the basis of common values, historical experience, and symbolic unity"[101].

As a result, relations between the Central Asian states and Turkey are being enriched not only by instrumental pragmatism - that is, trade, security, and transit interests - but also by a paradigm of civilizational solidarity. This transforms regional cooperation into a multi-layered model, elevating it to the level of an identity-based integration process not limited to economic or geopolitical aspects. From a geopolitical perspective, "Turkey considers Central Asia a strategic link in the Eurasian space and strives to support regional stability through security, transport-communication corridors, and multilateral diplomatic formats"[102]. In particular, institutional cooperation within the Organization of Turkic States creates opportunities for systematizing political dialogue, strengthening normative convergence, and shaping a common strategic agenda.

Conclusion. In the changing international order of the 21st century, the Central Asian region is emerging not as a passive geopolitical space, but as an active actor pursuing a multi-vector foreign policy and reshaping its geo-economic and geostrategic potential. The evolution of the international system towards multipolarity, the intensification of competition among global power centers, and the restructuring of transport, logistics, and energy corridors create new opportunities for the region's states while also demanding complex balancing strategies from them.

The research findings confirm that the foreign policy strategies of Central Asian states are primarily based on the principles of strategic balance and multi-vector diplomacy. This model allows the countries of the region to expand their capacity for sovereign decision-making while maintaining pragmatic cooperation in relations with major powers, namely Russia, China, the US, the European Union, Japan, and Turkey. From this perspective, the states of the region are striving to build

[101] A. Davutoğlu. Stratejik derinlik: Türkiye'nin uluslararası konumu. Küre Yayınları. 2023. –S.62.
[102] Strengthening transport and energy connectivity among Turkic states. Report on Turkic Economies 2024. Turkic Academy – ERCNET May 2025. –B.118.

their foreign policy not on inter-bloc confrontation, but on functional interests, investment flows, transport and communication projects, and energy diversification.

Regional integration processes are also reaching a qualitatively new stage. While consultative meetings in the "Central Asia+" format have become the internal driving force of regionalization in recent years, cooperation within external formats - particularly the Organization of Turkic States and the Eurasian Economic Union - is shaping a multi-layered integration model. From the perspective of functional integration theory and the concept of complex interdependence, this process serves to strengthen the institutional and normative foundations of regional cooperation.

The "Turkic World" concept, advanced within the framework of the Organization of Turkic States, is emerging as a distinct geopolitical and geocultural sphere in the modern system of international relations. This concept embodies a comprehensive strategic approach aimed at harmonizing historical and linguistic commonalities, cultural heritage, and civilizational proximity with modern integration mechanisms. In particular, the institutional foundations for deepening political dialogue, trade and economic cooperation, transport and logistics links, and humanitarian exchanges among the states of the Turkic space are being strengthened through the platform of the Organization of Turkic States.

References:

1. Communiqué of the Dushanbe Summit: Central Asia and Russia Reaffirm Commitment to Multipolarity and Strategic Partnership. // Electron resource: https://www.newscentralasia.net/2025/10/09/communique-of-the-dushanbe-summit-central-asia-and-russia-reaffirm-commitment-to-multipolarity-and-strategic-partnership/

2. Brian G. Carlson. Central Asia in an Era of Great-Power Rivalry. CSS Analyses in Security Policy. 2023. –P.2. // Electron resource: https://ethz.ch/content/dam/ethz /special-interest/gess/cis/center-for-securities-studies/pdfs/CSSAnalyse327-EN.pdf

3. Xi'an Declaration of the China-Central Asia Summit. 2023. // Electron resource: https://www.newscentralasia.net/2023/05/20/xian-declaration-of-the-china-central-asia-summit

4. State Council of the People's Republic of China. *China's position on global security initiative.* Beijing. 2022. // https://www.mfa.gov.cn/eng/xw/wjbxw/202405/t20240530_11343749.html#:~:text=The%20Global%20Security%20Initiative%20(GSI)%20was%20proposed,cooperation**%20China%20focuses%20on%20action%20not%20rhetoric

5. U.S. Department of State. (2020). *United States Strategy for Central Asia 2019–2025: Advancing sovereignty and economic prosperity*. Washington, DC.https://www.state.gov/united-states-strategy-for-central-asia-2019-2025/

6. Charles E. Ziegler, “US Strategy in Central Asia and Shanghai Cooperation Organization,” World Economy and International Relations, no. 4. 2024.

7. European External Action Service. *EU-Central Asia Summit, Samarkand, Uzbekistan, 4 April 2025* [Press release]. European Union. // Electron resource: https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/eu-central-asia-summit-samarkand-uzbekistan-4-april-2025_en

8. European Union & Central Asia States. *Joint Roadmap for Deepening Ties between the European Union and Central Asia*. Brussels. 2023.

9. Qazinform. 2025, May 30. *Central Asia + Italy Summit: Joint Declaration adopted. //* Electron resource: https://qazinform.com/news/central-asia-italy-summit-joint-declaration-adopted-99e855

10. Tokyo Declaration of the Summit of the “Central Asia plus Japan” Dialogue. // Electron resource: https://www.mofa.go.jp/files/100954362.pdf

11. Central Asia and Japan discuss new cooperation formats at inaugural Tokyo summit. // Electron resource: https://www.euronews.com/2025/12/20/central-asia-and-japan-discuss-new-cooperation-formats-at-inaugural-tokyo-summit

12. A. Davutoğlu. *Stratejik derinlik: Türkiye'nin uluslararası konumu*. Küre Yayınları. 2023.

13. Strengthening transport and energy connectivity among Turkic states. Report on Turkic Economies 2024. Turkic Academy – ERCNET May 2025.

ТРАНСПОРТНО-ЛОГИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ КАК ОСНОВА ЭКОНОМИЧЕСКОГО СБЛИЖЕНИЯ СТРАН РЕГИОНА

Талимова Г.У.
старший преподаватель Esil University,
Астана, Казахстан

Байгутдинов Р.
Ст. ОП «Мировая экономика» Esil university,
Астана, Казахстан

Транспортно-логистическое взаимодействие стран Центральной Азии сегодня выступает одним из ключевых механизмов укрепления экономической связанности региона. Именно транспортные маршруты определяют реальную степень интеграции рынков, производственных систем и внешнеторговых потоков. В условиях географической удаленности от

морских путей и высокой зависимости от транзита через соседние государства логистика перестает быть вспомогательной сферой и приобретает стратегическое значение, формируя основу экономической связности региона.

Центрально-азиатское пространство исторически выполняло роль связующего звена между Востоком и Западом, входя в структуру Великого Шёлкового пути. В современных условиях эта функция трансформируется: регион постепенно переходит от пассивного транзитного положения к формированию собственной системы транспортных связей и развитию интеграционных процессов. Особое значение в этом процессе приобретают международные транспортные коридоры, прежде всего так называемый «Средний коридор», который соединяет Китай, страны Центральной Азии, Каспийский регион, Кавказ и европейские рынки. Данный маршрут формирует альтернативную логистическую ось Евразии и снижает зависимость от традиционных северных направлений.

В данной системе особая роль принадлежит Казахстану, который занимает центральное географическое положение и выполняет функции основного транзитного узла между Китаем, Россией и странами Каспийского региона. Развитая железнодорожная сеть и участие в международных транспортных проектах позволяют стране выступать в роли регионального логистического центра. Узбекистан укрепляет свои позиции за счет расширения транспортной инфраструктуры и роста транзитных потоков. Кыргызстан и Таджикистан, несмотря на сложные природные условия, развивают автомобильные маршруты, обеспечивающие внутреннюю и внешнюю связность. Туркменистан использует потенциал выхода к Каспийскому морю, формируя альтернативное направление транспортных потоков.

Несмотря на существующие возможности, уровень транспортной интеграции в регионе остается неоднородным и сталкивается с рядом системных ограничений. Эти ограничения связаны как с инфраструктурными особенностями, так и с институциональными различиями.

Одной из наиболее значимых проблем является исторически сформированная несогласованность транспортной инфраструктуры. Существующие транспортные сети создавались в условиях централизованной экономической системы и были ориентированы преимущественно на внешние центры, а не на внутрирегиональные связи. Это приводит к тому, что маршруты внутри региона часто оказываются непрямыми, требуют транзита через третьи страны и увеличивают стоимость перевозок. В результате снижается эффективность логистических цепочек и конкурентоспособность региональной торговли.

Дополнительным препятствием выступает различие в нормативно-правовом и таможенном регулировании. Несмотря на наличие международных соглашений, сохраняются различия в процедурах оформления грузов, тарифных системах и правилах пересечения границ. Отсутствие единой цифровой и административной среды приводит к росту транзакционных издержек и снижает скорость транспортных операций. В современных условиях, где ключевыми факторами являются оперативность и предсказуемость, такие барьеры существенно ограничивают потенциал интеграции.

Серьезным ограничением остается недостаточный уровень развития современной логистической инфраструктуры. В регионе ощущается нехватка мульти-модальных транспортных узлов, современных складских комплексов и распределительных центров, соответствующих международным стандартам. Это приводит к тому, что значительная часть логистических операций осуществляется за пределами региона, а Центральная Азия сохраняет преимущественно транзитную функцию, не формируя полноценную добавленную стоимость в логистической цепочке.

Дополнительным фактором является экономическая неоднородность стран региона. Различия в уровне развития, структуре экономики и внешнеэкономической ориентации создают дисбаланс в возможностях участия в интеграционных процессах. Более развитые экономики обладают ресурсами для модернизации инфраструктуры, тогда как менее развитые страны ограничены в финансовых и технологических возможностях, что затрудняет формирование единой транспортной стратегии.

Также следует отметить недостаточную цифровую связанность логистических систем. Несмотря на отдельные национальные инициативы, в регионе отсутствует единая цифровая платформа, обеспечивающая сквозное сопровождение грузов и интеграцию данных. Это снижает прозрачность логистических процессов и ограничивает возможности оптимизации транспортных маршрутов.

Тем не менее, потенциал транспортно-логистической интеграции в Центральной Азии остается значительным. Его реализация требует комплексного подхода, включающего институциональные преобразования, развитие инфраструктуры и внедрение цифровых технологий.

В институциональном плане важным направлением является сближение таможенных и транспортных правил. Это предполагает унификацию процедур пересечения границ, сокращение административных барьеров, внедрение принципа «единого окна» и развитие согласованных механизмов регулирования транзита. Подобные меры позволяют повысить

предсказуемость логистических процессов и снизить административные издержки.

Инфраструктурное развитие предполагает создание интегрированной сети транспортных коридоров, основанных на мультимодальном подходе. Особое значение имеет формирование логистических центров, объединяющих железнодорожные, автомобильные и авиационные перевозки. Существенную роль играет развитие Каспийского направления, обеспечивающего выход на международные рынки через альтернативные маршруты. Модернизация железнодорожной сети и развитие приграничной инфраструктуры становятся ключевыми факторами повышения эффективности транспортной системы.

Технологическая модернизация логистики связана с внедрением цифровых платформ, автоматизацией таможенных процедур, развитием систем спутникового мониторинга и переходом к электронному документообороту.

Эти меры позволяют снизить издержки, повысить прозрачность операций и ускорить прохождение грузов через транспортные узлы.

Важную роль в развитии интеграции играет участие частного сектора и международных инвесторов. Глобальные логистические компании способствуют внедрению современных стандартов управления и развитию конкурентной среды. Одновременно необходимо создавать условия для расширения участия регионального бизнеса, особенно малого и среднего, в международных цепочках поставок.

Таким образом, транспортно-логистическая интеграция Центральной Азии представляет собой не только инструмент повышения эффективности торговли, но и основу формирования устойчивого экономического пространства региона. Последовательное развитие транспортных коридоров, устранение институциональных ограничений и цифровая трансформация логистики способны обеспечить переход от разрозненной системы взаимодействия к более согласованной и взаимосвязанной модели регионального развития. В перспективе это приведет к росту внутрирегиональной торговли, усилению инвестиционной привлекательности и укреплению экономической устойчивости Центральной Азии.

Список использованной литературы

1. Asian Development Bank (ADB) – Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Program Reports Содержат анализ региональной транспортной интеграции, развития инфраструктуры и торгово-логистических коридоров в Центральной Азии. 2025.

2. World Bank – Trade and Transport Corridor Analysis in Central Asia. Оценка эффективности транспортных коридоров, барьеров торговли и потенциала транзитных маршрутов региона.

3. United Nations ESCAP – Transport Connectivity in Eurasia. Исследование транспортной связанности, цифровизации логистики и устойчивого развития транспортных сетей. 2025.

4. OECD – Connectivity and Logistics Performance Index Reports. Международные сравнительные оценки логистической эффективности, качества инфраструктуры и таможенных процедур. 2026.

5. UNCTAD – Review of Maritime Transport and Trade Facilitation Reports. Глобальный анализ морских перевозок, цепочек поставок и влияния внешних шоков на мировую торговлю. 2025.

O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA ETNODEMOGRAFIK RIVOJLANISH JARAYONINING IJTIMOIY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Salayev F.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
o‘qituvchisi
Toshkent, O‘zbekiston

Markaziy Osiyoning jamiyat taraqqiyotida demografik jarayonlar muhim ijtimoiy omil sifatida shakllanib kelgan. Aholi sonining o‘zgarishi, etnik tarkibning shakllanishi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari jamiyatning iqtisodiy, madaniy hamda ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli zamonaviy ijtimoiy falsafada etnodemografik jarayonlar insoniyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri sifatida talqin etiladi.

XXI asrda globallashuv, axborotlashuv va kommunikatsion jarayonlarning kengayishi natijasida etnodemografik jarayonlar yanada murakkablashdi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida so‘nggi davrda yuz bergan demografik transformatsiyalar ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Mintaqa davlatlarida aholi sonining o‘sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi, ichki va tashqi migratsiya jarayonlarining faollashuvi hamda urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan etnodemografik rivojlanish inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatlarning ifodasidir. Chunki demografik o‘zgarishlar faqat statistik ko‘rsatkichlar yig‘indisi emas, balki insonning turmush tarzi, qadriyatlari va ijtimoiy ongidagi o‘zgarishlar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

N.Nazarovning fikriga ko‘ra, jahon etnik xaritasi bugungi kunda hech bir davlatni sof bir millatli tizim sifatida tasavvur qilish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Turli etnik guruhlarning bir ijtimoiy makonda yashashi ular o‘rtasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning uzluksiz rivojlanishiga sharoit yaratadi hamda barqaror fuqarolik hamkorligining shakllanishiga asos bo‘ladi.[1]

Etnodemografik jarayonlar jamiyatdagi etnik tarkib, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, migratsiya, urbanizatsiya hamda aholi joylashuvining tarixiy o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarning asosiy xususiyati ularning doimiy harakat va o‘zgarishda ekanligidir. Ijtimoiy falsafada bu holat dialektik rivojlanish tamoyili orqali izohlanadi. Dialektik yondashuvga ko‘ra, har qanday ijtimoiy hodisa ichki qarama-qarshiliklar va o‘zaro ta’sirlar asosida rivojlanadi.

Etnodemografik jarayonlarda ham ushbu murakkab o‘zaro bog‘liqlik kuzatiladi. Bir tomondan, aholining o‘sishi jamiyatning iqtisodiy va madaniy salohiyatini oshiradi. Ikkinchi tomondan esa urbanizatsiya jarayonlari, resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar hamda ekologik muammolarni yuzaga keltiradi.

Demografik rivojlanishning muhim jihatlaridan biri inson kapitalining shakllanishidir. Zamonaviy jamiyatda aholining soni emas, balki uning sifat ko‘rsatkichlari – ta’lim darajasi, sog‘lom turmush tarzi va intellektual salohiyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois etnodemografik taraqqiyot jamiyatning madaniy va ma’naviy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) tahlillariga ko‘ra, demografik o‘zgarishlar nafaqat aholining soni va tarkibini, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, mehnat resurslari hamda rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillardan biridir. Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoshlar ulushining yuqoriligi “demografik dividend” sifatida baholanadi va strategik ijtimoiy resurs hisoblanadi.[2]

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda aholining tabiiy o‘sishi davom etdi, bu esa jamiyatning ijtimoiy tarkibida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Aholi sonining ortishi urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarini jadallashtirdi. Qishloq hududlaridan shaharlarga ichki migratsiyaning kuchayishi natijasida yangi ijtimoiy muhit shakllanmoqda. Shaharlar iqtisodiy, madaniy va kommunikatsion markaz sifatida etnik guruhlar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirmoqda.

Natijada turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasida yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanmoqda. Bu holat tolerantlik va bag‘rikenglik qadriyatlarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlari ham etnodemografik rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mehnat migratsiyasi insonlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Migratsiya natijasida turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri kuchayib, transmilliy ijtimoiy aloqalar shakllanmoqda. Ijtimoiy falsafada bu jarayon madaniy transformatsiya sifatida izohlanadi. Migratsiya nafaqat geografik harakatni, balki ijtimoiy identitet, qadriyatlar va dunyoqarash tizimining o‘zgarishini ham keltirib chiqaradi.

Sotsiolog M. Kastells globallashuv sharoitida jamiyatlar “tarmoq jamiyati” modeliga o‘tishini ta’kidlaydi. Bunday jamiyatda madaniy identitetlar barqaror emas, balki doimiy o‘zgarish va qayta shakllanish jarayonida bo‘ladi. Bu holat etnik va madaniy identitetlarning transformatsiyasini kuchaytiradi.[3]

Markaziy Osiyo mamlakatlari umumiy tarixiy va madaniy makonga ega bo‘lgani sababli mintaqadagi etnodemografik jarayonlar o‘xshash xususiyatlarga ega. Aholining tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lib, yoshlar ulushi sezilarli darajada katta. Shu bilan birga migratsiya va urbanizatsiya barcha davlatlarda muhim ijtimoiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuv sharoitida milliy-madaniy identitetni saqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Internet va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali global madaniyatning keng tarqalishi an’anaviy qadriyatlarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Bu esa etnodemografik jarayonlarning nafaqat biologik yoki statistik, balki ma’naviy-ijtimoiy hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

UNFPAning Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, mintaqadagi demografik o‘zgarishlar uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Yoshlarning ta’lim olishi, kasbiy rivojlanishi va urban madaniyatga moslashuvi jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda.

Shuningdek, oilaviy munosabatlar tizimida ham transformatsion jarayonlar kuzatilmoqda. Nikoh yoshining o‘zgarishi, oilalar hajmining qisqarishi va ayollarning ijtimoiy faolligi ortishi zamonaviy demografik rivojlanishning muhim tendensiyalaridir.

Etnodemografik jarayonlar jamiyatning ijtimoiy ongiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Urbanizatsiya, migratsion harakatchanlik va axborot oqimining kuchayishi insonlarning dunyoqarashini o‘zgartirmoqda. Natijada individualizm va kollektivizm o‘rtasidagi nisbat yangi shaklga ega bo‘lmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada inson omili taraqqiyotning markaziy kategoriyasi sifatida talqin qilinadi. Shu bois demografik rivojlanishning asosiy maqsadi insonning sifat jihatdan kamol topishini ta’minlashdan iboratdir. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va madaniy rivojlanish etnodemografik taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichlaridir.

Etnodemografik rivojlanish jamiyatning ma’naviy birdamligi va ijtimoiy integratsiyasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Turli etnik guruhlarning yagona ijtimoiy

makonda yashashi madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi va tolerantlik qadriyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, etnodemografik jarayonlar O‘zbekiston va Markaziy Osiyo jamiyatlarining ijtimoiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Aholining tabiiy o‘sishi, urbanizatsiya, migratsiya va madaniy transformatsiyalar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi hamda insonlarning dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan etnodemografik rivojlanish inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning ifodasidir. Ushbu jarayonlar bir tomondan yangi imkoniyatlar yaratadi, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy moslashuv va madaniy identitet bilan bog‘liq murakkab masalalarni yuzaga keltiradi. Shu sababli etnodemografik jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, inson kapitalini rivojlantirish va madaniyatlararo integratsiyani mustahkamlash ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Назаров Н.А. Марказий Осиёда миллатлараро муносабатлар. – Тошкент: “Global books”. 2018.

2. United Nations Population Fund (UNFPA). UNFPA, 2024.

3. Manuel Castells. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2010.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA ISLOM MOLIYASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Zokirov S.
Diplomat University
o‘qituvchi
Toshkent, O‘zbekiston

Jahon iqtisodiyotida moliyaviy tizimlarning diversifikatsiyasi va muqobil moliyalashtirish mexanizmlariga ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda Islom moliyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda Islom moliyasi nafaqat musulmon davlatlarida, balki Yevropa, Amerika va Osiyoning ko‘plab mamlakatlarida ham jadal rivojlanayotgan moliyaviy tizimlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy tamoyillari – foizning taqiqlanishi, real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, risklarni adolatli taqsimlash va ijtimoiy mas’uliyat hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston – tarixan Islom sivilizatsiyasining muhim hududlaridan biri bo‘lib kelgan. Aholining katta qismi musulmonlardan iborat bo‘lgani sababli ushbu mintaqada Islom moliyasiga bo‘lgan qiziqish tobora ortmoqda. Ayniqsa,

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, kichik biznesni rivojlantirish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishda Islom moliyasi muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Islom moliyasi – shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy tizim bo‘lib, unda ribo (foiz), g‘arar (ortiqcha noaniqlik) va maysir (qimor) taqiqlanadi. Ushbu tizim iqtisodiy faoliyatning real sektor bilan bog‘liq bo‘lishini talab qiladi.

Islom moliyasining asosiy instrumentlari quyidagilar hisoblanadi:

- **Murabaha** – ustama asosidagi savdo moliyalashtirishi;
- **Mudaraba** – investor va tadbirkor o‘rtasidagi sheriklik;
- **Musharaka** – qo‘shma investitsion faoliyat;
- **Ijara** – Islomiy lizing;
- **Sukuk** – Islom obligatsiyalari;
- **Takaful** – Islom sug‘urtasi.

Mazkur instrumentlar iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va moliyaviy risklarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Qozog‘istonda Islom moliyasining rivojlanishi

Qozog‘iston Markaziy Osiyoda Islom moliyasi eng rivojlangan davlat hisoblanadi. 2009-yilda mamlakatda Islom moliyasi bo‘yicha maxsus qonunchilik qabul qilindi. Shu asosda Islom banklari va sukuk bozori shakllana boshladi.

Mamlakatda:

- Islom banklari faoliyat yuritmoqda;
- Islomiy investitsiya fondlari tashkil etilgan;
- xalqaro moliya markazlari orqali Islom investitsiyalari jalb qilinmoqda.

Ayniqsa, Astana International Financial Centre mintaqaviy Islom moliyasi markaziga aylanishni maqsad qilgan. Bu esa Qozog‘istonning xalqaro moliya bozoridagi raqobatbardoshligini oshirmoqda.

O‘zbekistonda Islom moliyasining rivojlanish tendensiyalari

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Islom moliyasini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda Islom moliyasiga bo‘lgan talabning ortishi bank tizimida yangi moliyaviy xizmatlarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda:

- ayrim tijorat banklarida Islomiy moliyalashtirish xizmatlari sinov tariqasida joriy qilinmoqda;
- Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik kengaymoqda;
- sukuk chiqarish bo‘yicha muhokamalar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatda Islom moliyasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga e’tibor kuchaymoqda.

Qirg‘iziston tajribasi

Qirg‘iziston Markaziy Osiyoda Islom bankchiligi amaliyotini birinchilardan bo‘lib yo‘lga qo‘ygan davlatlardan biri hisoblanadi. 2006-yildan boshlab Islomiy moliyalashtirish bo‘yicha pilot loyihalar amalga oshirilgan.

Bugungi kunda:

- Islom bank oynalari faoliyat yuritmoqda;
- mikromoliyalashtirish xizmatlari rivojlanmoqda;
- murabaha va ijara xizmatlari keng qo‘llanilmoqda.

Qirg‘izistonda Islom moliyasi ayniqsa kichik biznes va qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Tojikiston va Turkmanistonda Islom moliyasi

Tojikiston va Turkmanistonda Islom moliyasi nisbatan sust rivojlanmoqda. Tojikistonda ayrim Islomiy moliyalashtirish xizmatlari joriy etilgan bo‘lsa-da, bank tizimidagi muammolar va investitsion muhitning zaifligi rivojlanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Turkmanistonda esa moliya tizimining yuqori darajada markazlashganligi va iqtisodiy yopiq model Islom moliyasining keng rivojlanishiga imkon bermayapti. Biroq kelajakda xalqaro Islom moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish istiqbollari mavjud.

Markaziy Osiyoda Islom moliyasining istiqbollari

Markaziy Osiyo davlatlarida Islom moliyasining rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1. Musulmon aholining ko‘pligi;
2. Halol moliyaviy xizmatlarga talabning ortishi;
3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zarurati;
4. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash ehtiyoji;
5. Moliyaviy inklyuzivlikni oshirish zarurati.

Kelgusida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq:

- Islom moliyasi bo‘yicha yagona huquqiy bazani shakllantirish;
- sukuk bozorini rivojlantirish;
- Islomiy fintech xizmatlarini joriy qilish;
- oliy ta’lim muassasalarida Islom moliyasi mutaxassislarini tayyorlash;
- xalqaro Islom moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Xulosa. Markaziy Osiyo davlatlarida Islom moliyasi bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, Qozog‘iston va Qirg‘iziston ushbu sohada mintaqadagi yetakchi davlatlar hisoblanadi. O‘zbekistonda ham Islom moliyasi bozorini rivojlantirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Tojikiston va Turkmanistonda esa tizim endigina shakllanish bosqichida turibdi.

Islom moliyasi mintaqa iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita

bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlarida Islom moliyasini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Taqi Usmoniy. An Introduction to Islamic Finance. Karachi, 2002.
2. Zamir Iqbal, Abbas Mirakhor. Islamic Finance: Theory and Practice. Wiley Finance, 2011.
3. Islamic Financial Services Board hisobotlari.
4. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions standartlari.
5. Islom taraqqiyot banki statistik ma’lumotlari va hisobotlari.
6. Markaziy Osiyo davlatlari Markaziy banklari rasmiy ma’lumotlari.
7. Islom iqtisodiyoti va bank tizimi bo‘yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar.
8. Astana International Financial Centre materiallari.

RAQAMLI TURIZM VA TRANSMILLIY KOMPANIYALAR: O‘ZBEKISTONDA MADANIY IDENTITET, GLOBAL TA’SIR VA SAYOHAT FALSAFASI

Xidirov J.
Diplomat University
bo‘lim mutaxassisi
Toshkent, O‘zbekiston

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi turizm sohasini zamonaviy global tizimning eng tez transformatsiyalashayotgan tarmoqlaridan biriga aylantirdi. Bugungi kunda turizm nafaqat geografik harakat yoki iqtisodiy xizmatlar majmui, balki raqamli platformalar, algoritmlar va global kommunikatsiya tarmoqlari orqali boshqariladigan murakkab ijtimoiy fenomen sifatida shakllanmoqda. Xususan, transmilliy raqamli kompaniyalar ushbu jarayonning markaziy subyektlariga aylanib, sayohatni rejalashtirish, tanlash va tajriba almashish jarayonini tubdan o‘zgartirdi.

Booking Holdings, Airbnb, Expedia Group va Tripadvisor kabi global platformalar turizm bozorini yagona raqamli ekotizimga integratsiya qildi. Bugungi kunda ular nafaqat vositachi, balki global axborot va xizmat infratuzilmasini shakllantiruvchi va boshqaruvchi asosiy institutlar sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Natijada sayyohlar boradigan manzilni tanlashda an’anaviy turizm agentliklariga emas, balki raqamli platformalarga tobora ko‘proq tayanmoqda. Bu holat turizmni

klassik iqtisodiy modeldan “platforma iqtisodiyoti” modeliga o‘tkazib, iste’molchi qarorlarini algoritmik tavsiyalar bilan bog‘liq tizimga yaqinlashtirmoqda.

Masalan, Booking Holdings platformasi orqali dunyoning 220 dan ortiq mamlakatidagi mehmonxona va turar joy takliflari yagona tizimga birlashtirilgan bo‘lib, foydalanuvchi tanlovi reytinglar, sharhlar va algoritmik tavsiyalar asosida shakllanadi. Airbnb esa an’anaviy mehmonxona modelini chetlab o‘tgan holda, xususiy uy-joylarni global turizm bozoriga integratsiya qildi. Bu jarayon turizmni markazlashmagan, biroq platformalar orqali kuchli boshqariladigan iqtisodiy tizimga aylantirdi.

Shu bilan birga, Airbnb modeli mahalliy uy-joy egalari va xalqaro sayyohlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri raqamli aloqani ta’minlab, mahalliy aholining turizm daromadlaridagi ishtirokini kengaytirdi. Biroq bu jarayon madaniy muhitning global standartlar va platforma talablariga moslashuvi tendensiyasini ham kuchaytirmoqda. Natijada mahalliy turmush tarzi va madaniy ifodalar global iste’mol uchun qayta formatlanish jarayoniga duch kelmoqda.

Raqamli turizmning eng muhim xususiyatlaridan biri geografik masofani qisqartirib, sayohat tajribasini oldindan vizuallashtirish va simulyatsiya qilish imkonini yaratishidir. Bugungi sayyoh qarorni real tashrifdan avval raqamli tasvirlar, reytinglar va ijtimoiy tarmoqlardagi kontent asosida qabul qiladi. Shu tariqa sayohatning o‘zi emas, balki uning oldindan yaratilgan “raqamli obrazi” muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon turizmni “tajriba iqtisodiyoti”dan “tasvir iqtisodiyoti”ga yaqinlashtirmoqda.

O‘zbekiston kontekstida raqamli turizm so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Davlatning ochiq turizm siyosati, vizasiz rejimlarning kengaytirilishi hamda elektron viza tizimining joriy etilishi mamlakatni Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan turizm yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlar global platformalarda yuqori reytingli turistik yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, O‘zbekistonni nafaqat tarixiy-madaniy markaz, balki global raqamli turizm xaritasining faol ishtirokchisiga aylantirmoqda.

Biroq ushbu jarayon faqat iqtisodiy o‘sish bilan cheklanmaydi. Eng muhim masala – madaniy identitetning transformatsiyasi hisoblanadi. Raqamli platformalar orqali madaniyat global auditoriyaga taqdim etilar ekan, u ko‘pincha soddalashtirilgan, estetiklashtirilgan va marketing talablari asosida qayta ishlangan shaklda ifodalanadi. Natijada madaniyatning ichki falsafiy mazmuni va uning tashqi raqamli tasviri o‘rtasida tafovut yuzaga keladi. Bu holat globallashuv sharoitida “madaniyatning qayta kodlanishi” sifatida talqin qilinishi mumkin.

Shu jihatdan, transmilliy platformalar nafaqat texnologik vosita, balki madaniy interpretatsiya tizimi sifatida ham faoliyat yuritadi. Ular qaysi madaniy

obyektlar ko‘proq ko‘rinishini, qaysi joylar “turistik trend”ga aylanishini va qaysi tajribalar global iste’molga mosligini belgilovchi muhim mexanizmga aylanmoqda. Bu esa madaniyatning o‘z-o‘zini ifodalash jarayoniga bilvosita tashqi boshqaruv elementini kiritadi.

Turizm falsafasi ham ushbu jarayonda sezilarli o‘zgarishlarga uchramoqda. An’anaviy antropologik yondashuvda sayohat insonning dunyoni bevosita idrok etishi va boshqa madaniyatlar bilan yuzma-yuz uchrashuvi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, raqamli davrda u ko‘proq “mediatsiyalashgan tajriba”ga aylanmoqda. Ya’ni sayyoh real tajribani emas, balki oldindan shakllantirilgan raqamli obrazga mos tajribani izlaydi. Bu esa sayohatning ekzistensial mazmunini o‘zgartirib, uni ko‘proq tasdiqlash va moslashtirish jarayoniga aylantiradi.

Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) 2024-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, [1] global sayyohlarning katta qismi (80 %) sayohat qarorlarini ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardagi kontent asosida qabul qilmoqda. Bu esa turizmning ijtimoiy media va raqamli tasvirlar bilan chuqur integratsiyalashganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston uchun raqamli turizm strategik ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy va kommunikativ ta’sir vositasiga aylanmoqda. Joseph Nye tomonidan ilgari surilgan “soft power” konsepsiyasiga ko‘ra [2], davlatlar o‘z madaniyati, imiji va jozibadorligi orqali global maydonda ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonning tarixiy merosi va madaniy boyliklarining raqamli platformalar orqali global auditoriyaga taqdim etilishi mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Falsafiy nuqtai nazardan, raqamli turizm globallashuvning yangi bosqichini ifodalaydi. Unda madaniyatlar o‘zaro ta’sirga kirishadi, biroq bu ta’sir teng emas, balki platformalar va algoritmik tizimlar orqali shakllantiriladi. Natijada madaniyat faqat ichki ijtimoiy jarayon emas, balki global raqamli makonda qayta ishlab chiqiladigan va iste’mol qilinadigan obyektga aylanadi. Bu esa identitetning barqaror emas, balki doimiy transformatsiya jarayonida ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli turizm va transmilliy platformalar O‘zbekistonni global turizm tizimiga integratsiya etish orqali yangi iqtisodiy va madaniy imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon madaniy identitetning qayta talqin qilinishi, sayohat falsafasining o‘zgarishi hamda global platformalarning ta’sir kuchi ortishi kabi murakkab tendensiyalarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli zamonaviy turizmni faqat iqtisodiy sektor sifatida emas, balki madaniyat, falsafa va global kommunikatsiya tizimlari kesishgan murakkab maydon sifatida tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.unwto.org/global-and-regional-tourism-performance

2. Nye, J. S. (2004). Soft power: The means to success in world politics. New York. Public Affairs.

3. Buhalis D., Law R. Progress in Information Technology and Tourism Management: 20 Years on and 10 Years after the Internet. — Tourism Management, 2008. — Vol. 29, No. 4. — P. 609–623.

4. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart Tourism: Foundations and Developments. — Electronic Markets, 2015. — Vol. 25, No. 3. — P. 179–188.

5. Xiang Z., Fesenmaier D.R. Analytics in Smart Tourism Design. — Cham: Springer, 2017. — 320 p.

6. UNWTO (World Tourism Organization). Digital Transformation in Tourism. – Madrid: UNWTO Publications, 2021. — 150 p.

7. Richards G. Tourism, Culture and Identity. — London: Routledge, 2018. – 280 p.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА ЕС СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Мухиядин Ж.
Карагандинский университет Казпотребсоюза,
Караганда, Казахстан

Жангабулова Ж.
магистр, старший преподаватель
Карагандинский университет Казпотребсоюза,
Караганда, Казахстан

Политика «мягкой силы» Европейский Союз в Центральноазиатском регионе представляет собой системно организованный комплекс инструментов и механизмов воздействия, направленных на продвижение нормативных установок, институциональных стандартов и ценностных ориентиров ЕС. Ее реализация основывается на принципах привлекательности, добровольного заимствования и партнерского взаимодействия, что позволяет формировать устойчивое влияние без применения принудительных методов. Одним из таких методов является образовательное сотрудничество и академическая мобильность. Это их базовый инструмент «мягкой силы» ЕС является образовательная политика, ориентированная на долгосрочное формирование человеческого капитала. Ключевую роль в данном направлении играет программа Erasmus+, обеспечивающая институционализированные формы академической мобильности. Реализация образовательных инициатив способствует:

трансферу знаний и образовательных стандартов ЕС; модернизации национальных систем высшего образования; формированию профессиональных сообществ, интегрированных в европейское академическое пространство. Продвижение демократии и прав человека. Существенное место в структуре «мягкой силы» ЕС занимает поддержка демократических институтов и прав человека. Данная деятельность осуществляется посредством специализированных финансовых и институциональных механизмов, включая Европейский инструмент демократии и прав человека. Ключевыми направлениями являются: развитие институтов гражданского общества; поддержка правозащитных инициатив; институционализация диалога по вопросам прав человека между ЕС и странами региона. В совокупности эти меры формируют нормативную среду, ориентированную на принципы верховенства права, транспарентности и подотчетности государственной власти.

В последние десятилетия Европейский союз (ЕС) стал важным партнером для стран Центральной Азии, включая Казахстан, Узбекистан, Киргизия, Таджикистан и Туркменистан. Сотрудничество между ЕС и регионом охватывает широкий спектр направлений - от экономики и энергетики до образования и устойчивого развития [1, стр. 100].

Европейский союз и Казахстан являются партнерами с 1995 года (вступило в силу в 1999).

3. Всемирный банк поддерживает проект Рогунской ГЭС для улучшения доступа к финансово доступной, надёжной и устойчивой электроэнергии в Таджикистане и Центральной Азии //https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2024/12/17/world-bank-support-rogun-hydropower-project-to-improve-access-affordable-reliable-and-sustainable-electricity-tajikistan

4. Энергетическое сотрудничество между странами Центральной Азии укрепляется//https://www.vb.kg/doc/444605_energeticheskoe_sotrydnichestvo_m

5. Эксперт рассказал, как работает единая энергосистема Центральной Азии//https://kun.uz/ru/30786736?q=%2Fru%2F30786736

6. 4-5 сентября 2025 года прошло в Чолпон-Ате 44-заседание координационного электроэнергетического совета // https://nesk.kg/ru/press-centr/novosti-i-press-relizy/4-5-sentyabrya-2025-goda-g-cholpon-ata-issyk-.

MARKAZIY OSIYO TAJRIBASIDA MEDIADA HAMMUALLIFLIK HUQUQI VA ETIKASI

Melisova N.
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti
Toshkent, O‘zbekiston

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli media muhitining jadal rivojlanishi axborot ishlab chiqarish va tarqatish jarayonlarini tubdan o‘zgartirdi. Ayniqsa, podkastlar, YouTube platformalari va mustaqil media loyihalarining ommalashuvi natijasida kontent yaratish jarayoni individual faoliyatdan kollektiv ijod shakliga o‘tmoqda. Bugungi kunda bitta media mahsulotni yaratishda boshlovchi yoki boshlovchilar, mehmon, muharrir, operator va montajchi kabi bir nechta subyektlar ishtirok etadi, bu esa mualliflik huquqining an’anaviy tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Xalqaro amaliyotda hammualliflik bir nechta shaxslarning yagona ijodiy natijani yaratishdagi birgalikdagi faoliyati sifatida talqin etiladi[3]. Biroq mazkur yondashuv asosan an’anaviy asarlar uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, raqamli media kontentning ko‘p bosqichli va interaktiv tabiatini to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli zamonaviy media mahsulotlarida mualliflik hissasini aniqlash, uni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish hamda javobgarlik chegaralarini belgilash murakkab masalaga aylanmoqda[4]. O‘zbekiston va Qozog‘iston kabi Markaziy Osiyo davlatlarida mualliflik huquqiga oid normativ-huquqiy baza shakllangan bo‘lsa-da, raqamli media sohasida hammualliflik munosabatlarini tartibga solish yetarli darajada aniq emas. Xususan, O‘zbekistonda “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunda hammualliflik umumiy tarzda belgilangan bo‘lib, raqamli kontent ishlab chiqarish jarayonidagi murakkab subyektlar tizimi alohida ko‘rib chiqilmagan[1]. Qozog‘istonda ham shunga o‘xshash holat kuzatilib, amaliyotda ko‘plab media loyihalar norasmiy kelishuvlar asosida faoliyat yuritmoqda[4]. Natijada media amaliyotida mualliflikni e’tirof etish, ishtirokchilarning huquqlarini ta’minlash va kontent uchun javobgarlikni aniqlash bilan bog‘liq qator muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, kontent yaratishda ishtirok etgan shaxslarning muallif sifatida ko‘rsatilmasligi, ularning ijodiy hissasi e’tibordan chetda qolishi yoki materiallarning kontekstdan uzib taqdim etilishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa masalaning nafaqat huquqiy, balki etik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Media etikasi nuqtayi nazaridan mualliflikni to‘g‘ri ko‘rsatish, axborotni buzmasdan yetkazish va ishtirokchilarning huquqlarini hurmat qilish zamonaviy jurnalistika va raqamli kontent ishlab chiqarishning muhim tamoyillari hisoblanadi[6]. Shu bois hammualliflik masalasi faqat huquqiy normalar doirasida emas, balki etik

yondashuv bilan uyg‘un holda tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi – O‘zbekiston va Qozog‘iston misolida mediada hammualliflik huquqi va etikasi bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish, mavjud yondashuvlarni taqqoslash hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mualliflik huquqi tizimida hammualliflik, asosan, bir nechta shaxslarning yagona asarni yaratishda ijodiy hissa qo‘shishi bilan bog‘liq bo‘lib, muhim mezon sifatida aynan ijodiylik darajasi va natijaning yaxlitligi e’tirof etiladi[5]. Ya’ni, har qanday ishtirok emas, balki mualliflik huquqi bilan himoyalanishi mumkin bo‘lgan ijodiy hissa hammualliflik subyektlarini aniqlashda ularning kontentga qo‘shgan hissasining xarakteri hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli media sharoitida esa aynan mana shu mezon murakkablashadi. Masalan, podkast yoki video kontent yaratishda boshlovchi yoki bir necha boshlovchilar, suhbatdosh, muharrir hamda montajchining ishtiroki turlicha xarakterga ega bo‘lib, ularning har biri bir xil darajada “ijodiy muallif” sifatida baholanmasligi mumkin. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda mualliflikni aniqlashda faqat ishtirok faktining o‘zi emas, balki kontent mazmuniga bevosita ta’sir darajasi mezon sifatida ilgari suriladi[5]. Biroq bu mezon amaliyotda aniq chegaralanmaganligi sababli turli talqinlarga olib keladi. Bundan tashqari, hammualliflik masalasida mualliflar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar ham muhim hisoblanadi. Klassik yondashuvga ko‘ra, hammualliflar o‘zaro kelishuv asosida asardan foydalanish tartibini belgilaydi. Ammo raqamli media amaliyotida bunday kelishuvlar ko‘pincha rasmiylashtirilmaydi, bu esa keyinchalik mualliflik huquqining amalga oshirilishi bilan bog‘liq noaniqliklarni yuzaga keltiradi[3]. Shu bilan birga, hammualliflikni amiqlash jarayoni media etikasi bilan bevosita bog‘liq. Chunki amaliyotda mualliflik mezonlari huquqiy jihatdan aniq belgilanmagan holatlarda kontent ishtirokchilarining hissasini e’tirof etish, ularni to‘g‘ri ko‘rsatish va materialni buzmasdan taqdim etish kabi masalalar ko‘proq etik tamoyillar asosida hal etiladi. Shu nuqtai nazardan, media sohasida hammualliflik faqat huquqiy kategoriya emas, balki professional etik mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi[6].

O‘zbekistonda mualliflik huquqi munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunga ko‘ra, hammualliflik bir necha shaxslarning birgalikdagi ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan asarga nisbatan vujudga keladi va hammualliflar o‘zaro kelishuv asosida undan foydalanish tartibini belgilaydi[1].Shuningdek, agar asar ajralmas bo‘lsa, undan foydalanish barcha hammualliflarning roziligi bilan amalga oshiriladi. Biroq qonunchilikda hammualliflik umumiy tarzda belgilangan bo‘lib, raqamli media mahsulotlari, xususan podkastlar, video kontent yoki multimediaviy loyihalarda ishtirok etuvchi

subyektlarning huquqiy maqomi aniq ko‘rsatib berilmagan. Qonunda “asar” tushunchasi mavjud bo‘lsa-da, podkast va YouTobe kontenti kabi zamonaviy formatlar alohida obyekt sifatida konkretlashtirilmagan[1]. Natijada amaliyotda ushbu turdagi kontentga nisbatan klassik yondashuv qo‘llanilmoqda. Amaliy media faoliyatida esa kontent yaratish jarayoni bir nechta ishtirokchilar ishtirokida amalga oshiriladi. Masalan, podkastlarda boshlovchi kontentni boshqaradi, mehmon mazmunni shakllantirishga bevosita hissa qo‘shadi, montajchi esa yakuniy mahsulotning tuzilishini belgilaydi. Shunga qaramay, amaliyotda ko‘pincha faqat loyiha egasi yoki kanal nomi muallif sifatida ko‘rsatiladi, qolgan ishtirokchilarning huquqiy maqomi aniqlashtirilmaydi. Bu holat hammualliflikni aniqlashda yagona mezon yo‘qligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, media amaliyotida mualliflik munosabatlari ko‘pincha shartnomaviy asosda rasmiylashtirilmaydi. Qonunchilik hammualliflar o‘rtasida kelishuv bo‘lishini nazarda tutsa-da[1], real amaliyotda bu ko‘pincha og‘zaki kelishuv bilan cheklanadi. Bu holatni o‘zbek internet segmentida o‘z auditoriyasiga ega bo‘lgan “Lolazor” podkasti misolida ham ko‘rish mumkin, unda bir necha boshlovchi va mehmon ishtirok etishiga qaramay, muallif asosan loyiha bilan bog‘lanadi. Mazkur podkast bir necha boshlovchilardan iborat bo‘lib, unda turli soha vakillari – jurnalistlar, huquqshunoslar va ekspertlar muntazam ishtirok etadi. Podkast epizodlarida muhokama qilinadigan mavzular ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalarni qamrab olib, mehmonlar ham mavzu shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ayrim sonlarda tashqi mehmonlar(jumladan, davlat amaldorlari) ishtirok etib, muhokamaning asosiy yo‘nalishini belgilab beradi. Shunga qaramay, bunday kontentda mualliflik odatda loyiha nomi yoki boshlovchilar bilan bog‘lanadi, mehmonlarning huquqiy maqomi aniqlashtirilmaydi. Natijada kontentdan foydalanish, uni tarqatish yoki tijorat maqsadlarida qo‘llash jarayonida etik tamoyillar buzilishiga olib keladi hamda nizolar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida intellektual mulkni himoya qilish tizimida Qozog‘iston Respublikasining 1996-yil 10-iyundagi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonun markaziy o‘rin tutadi. Ushbu qonun hujjatiga 2018-yil 20-iyunda kiritilgan so‘nggi o‘zgarishtirishlar media mahsulotlarni yaratish va tarqatishda hammualliflik institutini yanada takomillashtirdi. Qonunning 9-moddasiga muvofiq, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi, asarning tuzilishi va qismlarining mustaqilligidan qat’iy nazar, hammualliflarga tegishli hisoblanadi. Qozog‘iston tajribasida ham hammualliflikning huquqiy tabiati asarning bo‘linish yoki bo‘linmasligiga qarab farqlanadi[2]. Media tahririyatlar amaliyotida esa hammualliflar o‘rtasidagi mulkiy munosabatlar asosan shartnomaviy asosda tartibga solinadi. Qonunchilik mualliflarga o‘zaro kelishuv orqali foyda taqsimoti va

huquqlarni boshqarish erkinligini taqdim etadi. Xususan, ijodiy munosabatlar va media mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida mualliflik huquqlarini taqsimlash ko‘pincha fuqarolik-huquqiy shartnomalar orqali amalga oshiriladi. Biroq bu yondashuv asosan professional va tijorat loyihalariga xos bo‘lib, mustaqil raqamli kontent ishlab chiqarishda keng qo‘llanilmaydi[4]. Amaliyotda podkastlar va boshqa raqamli media formatlarida hammualliflikni aniqlash masalasi ochiq qoladi va bu bir qator etik qoidalarning buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Intervyu va suhbat asosidagi kontentlarda mehmon mazmunni shakllantirishda bevosita ishtirok etsa-da, u odatda muallif sifatida emas, balki ishtirokchi sifatida talqin etiladi. Bu holat mualliflikni aniqlash mezonlarining amaliyotda bir xil qo‘llanilmayotganini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvni Qozog‘istondagi “CoolTobe” podkasti misolida tahlil qilishimiz mumkin. Mazkur podkast ham “Lolazor” singari suhbat formatiga asoslangan bo‘lib, kontent bir necha boshlovchilar va mehmon o‘rtasidagi muloqot orqali shakllantiriladi hamda jamiyatdagi ilmiy-ijtimoiy muammolar muhokama qilinadi. Bunda mehmonning fikrlari mazmunning muhim qismini tashkil etsa-da, u odatda muallif sifatida e’tirof etilmasligi; kontentning yakuniy ko‘rinishi montaj jarayonida shakllansa-da, ushbu bosqichdagi ishtirokchilar ham muallif sifatida baholanmasligi hamda kontent muallifligi faqat loyiha prodyusseriga tegishli ekanligi podkast boshlovchisidan olingan ma’lumot asosida xulosa qilindi. Bu holat hammualliflikni aniqlashda ijodiy hissa mezonining amaliyotda yetarli darajada qo‘llanilmayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston tajribasi shuni anglatadiki, har ikkala davlatda hammualliflik umumiy huquqiy normalar bilan tartibga solingan bo‘lsa-da, ularni raqamli media kontentiga nisbatan qo‘llash mexanizmlari yetarli darajada aniqlashtirilmagan. O‘zbekistonda bu munosabatlar asosan norasmiy shaklda amalga oshirilsa, Qozog‘istonda ayrim professional loyihalarda shartnomaviy yondashuv uchraydi[1][2]. Biroq har ikki holatda ham podkast kabi ko‘p subyektli kontentda mualliflikni aniqlashda yagona mezon shakllanmagan. “Lolazor” va “CoolTobe” podkastlari misolida kontent bir necha ishtirokchi o‘rtasidagi muloqot natijasida shakllansa-da, amaliyotda mualliflik asosan loyiha yoki platforma bilan bog‘lanadi. Bu holat media amaliyotining huquqiy tartibga solishdan tezroq rivojlanayotganini ko‘rsatadi[3].

Xulosa qilib aytganda, tahlil natijalari raqamli media sharoitida hammualliflikni tartibga solishda amaldagi yondashuvlar yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bois raqamli media kontentini mualliflik huquqi obyektlari sifatida aniqroq belgilash, hammualliflikni aniqlashda ijodiy hissa mezonlarini ishlab chiqish va kontent yaratishda ishtirok etuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni shartnomaviy asosda tartibga solish zarur. Shu bilan birga, media amaliyotida

mualliflikni e’tirof etish va kontentdan foydalanishda yagona etik yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42-son. https://lex.uz/ru/docs/-1022944

2. Қазақстан Республикасының “Авторлық құқық және сабақтас құқықтар туралы” Заңы. 10 маусым 1996 жыл. – № 6-I (20.06.2018 ж. өзгерістерімен). https://adilet.zan.kz/kaz/docs/Z960000006

3. World Intellectual Property Organization (WIPO). Copyright and Related Rights. – Geneva, 2020.

4. Bolotov. Yu. *Права авторов в Казахстане... Они есть, их нужно брать и использовать*. Bolotov & Partners. https://ru.bolotovip.com/publications/

5. Goldstein P., Hugenholtz B. *International Copyright: Principles, Law, and Practice*. – Oxford University Press, 2019

6. Ward S. *Ethics and the Media: An Introduction*. – Cambridge University Press, 2015.

7. https://www.youtube.com/@Lolazorpodcast

8. https://youtube.com/@cpskz?si=92DGlAgn14Yj3_0l

XX ASR XALQARO MUNOSABATLARIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH: DAVLATLARNING INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI

Tursunov T.
Diplomat University
Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar mutaxassisligi magistranti
Toshkent, O‘zbekiston

XX asrning global siyosiy va huquqiy arxitekturasida inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni davlatlarning bevosita ishtirokisiz transformatsiya qilish imkonsiz deb baholanadi. Shu munosabat bilan, subyektlar inson huquqlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan ko‘p tomonlama xalqaro bitimlarga ratifikatsiya qilish orqali qo‘shilib, o‘z zimmasiga qat’iy xalqaro-huquqiy majburiyatlarni yukladilar. Ushbu jarayon milliy qonunchilik tizimlarini xalqaro standartlar hamda umume’tirof etilgan prinsiplar bilan unifikatsiya va garmonizatsiya qilish vazifasini ham o‘z ichiga oldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimida davlatlarning faol legitimatsiyasi asosida faoliyat yurituvchi institutsional mexanizmlar inson

huquqlari monitoringini amalga oshirishda tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, inson huquqlari bo‘yicha komissiya hamda uning vorisi hisoblangan Inson huquqlari kengashi davlatlar tomonidan qabul qilingan konvensiyaviy majburiyatlarning implementatsiya qilinishini nazorat qiluvchi asosiy organlardir. Davlatlar universal davriy hisobot mexanizmi orqali o‘zlarining inson huquqlari sohasidagi faoliyati to‘g‘risida xalqaro jamoatchilikka muntazam ravishda axborot taqdim etib boradilar.

Inson huquqlari bo‘yicha shartnomaviy organlar alohida xalqaro-huquqiy hujjatlarga tayangan holda, ishtirokchi davlatlarning majburiyatlari bajarilishini monitoring qiluvchi mustaqil ekspert qo‘mitalaridir. Hozirgi kunda BMT tizimida o‘nta shartnomaviy organ faoliyat ko‘rsatib, ularning to‘qqiztasi bevosita shartnoma normalari ijrosini nazorat qiladi. O‘ninchi organ – Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha quyi qo‘mita esa preventiv monitoring vakolatiga ega bo‘lib, ozodlikdan mahrum qilish joylarida tekshiruvlar o‘tkazadi. Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Boshqarmasi esa ushbu organlarning ish metodologiyasini muvofiqlashtirishda texnik-huquqiy ko‘mak ko‘rsatadi.

Mintaqaviy miqyosda inson huquqlari arxitekturasi universal tizim bilan korellyatsiyada rivojlanmoqda. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) xavfsizlikning gumanitar o‘lchovini ta’minlash doirasida inson huquqlarini himoya qilishni kompleks chora-tadbirlar orqali amalga oshiradi. YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi saylov jarayonlarining demokratik standartlarga muvofiqligini monitoring qilish bilan birga, milliy institutlar va fuqarolik jamiyati segmentlari rivojlanishini stimullashtiradi. Shuningdek, Milliy ozchiliklar bo‘yicha Oliy komissari instituti etnik nizolarning oldini olishda preventiv diplomatiya va barvaqt ogohlantirish mexanizmlaridan samarali foydalanadi.

Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) doirasidagi hamkorlik ham inson huquqlari global tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. 2011-yilda tashkil etilgan Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiya (IHMDK) xalqaro huquq normalari va islomiy madaniy-axloqiy qadriyatlar simbiozi asosida inson huquqlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tuzilma a’zo davlatlarda fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy huquqlarni ilgari surishda maslahatchi organ maqomiga ega.

XX asrning ikkinchi yarmi inson huquqlari konsepsiyasining deklarativ xarakterdan imperativ-huquqiy tizimga o‘tishi bilan tavsiflanadi. 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan so‘ng qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi hamda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktlar inson huquqlari universalligini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu davrda inson huquqlari masalasi davlatning eksklyuziv ichki vakolatlari doirasidan chiqib, xalqaro huquqning

universal ob’ektiga aylandi. Bu esa davlat suvereniteti tamoyilini inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro majburiyatlar bilan o‘zaro uyg‘unlikda talqin qilish zaruratini keltirib chiqardi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr global tizimida inson huquqlari arxitekturasi quyidagi fundamental tendensiyalar bilan xarakterlanadi: normalarning universallashuvi, ko‘p tarmoqli shartnomaviy-huquqiy bazaning shakllanishi, monitoring mexanizmlariga ega institutsional tuzilmalarning takomillashuvi hamda davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi doirasining kengayishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Donnelly J. Universal Human Rights in Theory and Practice. – Ithaca: Cornell University Press, 2013. – 320 p.

2. Forsythe D.P. Human Rights in International Relations. – Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – 390 p.

3. Ishay M.R. The History of Human Rights: From Ancient Times to the Globalization Era. – Berkeley: University of California Press, 2008. – 458 p.

4. Freeman M. Human Rights: An Interdisciplinary Approach. – Cambridge: Polity Press, 2017. – 250 p.

5. Alston P., Goodman R. International Human Rights. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 540 p.

MARKAZIY OSIYODA ISLOM OMILI VA MINTAQAVIY GEOSIYOSIY BARQARORLIK

Saydullayev O.
Diplomat university
“Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar”
mutaxassisligi magistranti
Toshkent, O‘zbekiston

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik jihatidan strategik ahamiyatga ega hudud sifatida tobora ortib borayotgan e’tiborni tortmoqda. Yevrosiyo makonining markazida joylashgan ushbu mintaqa global kuchlar manfaatlari kesishgan, transport-logistika yo‘laklari va energetik resurslar bilan bog‘liq muhim geosiyosiy tugun hisoblanadi. Shu bois Markaziy Osiyoda kechayotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar mintaqaviy barqarorlik bilan bir qatorda xalqaro xavfsizlik tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, global va mintaqaviy xavfsizlik diskursida Islom omili ko‘pincha radikalizm, ekstremizm va terrorizm bilan bog‘lab talqin qilinmoqda. Bunday yondashuv Islomning murakkab va ko‘p qirrali mohiyatini soddalashtirib,

uni asosan xavf manbai sifatida ko‘rsatishga olib keladi. Natijada diniy omilning ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni rivojlantirish va jamiyatda konstruktiv qadriyatlarni qaror toptirishdagi salohiyati yetarlicha e’tibordan chetda qolmoqda. Aslida esa Islom omili mintaqada nafaqat mafkuraviy, balki madaniy va ijtimoiy resurs sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyoda Islom omilining geosiyosiy barqarorlikka ta’siri masalasi ko‘p qatlamli va murakkab xarakterga ega. Bir tomondan, diniy qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy intizom, axloqiy mas’uliyat va solidarizmni mustahkamlash orqali ichki barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin. Ikkinchi tomondan, diniy omilning siyosiylashtirilishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mintaqaviy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarni yuzaga keltirishi ehtimolini oshiradi. Ayniqsa, transmilliy tahdidlar, Afg‘oniston omili va axborot makonidagi mafkuraviy ta’sirlar fonida mazkur masala yanada dolzarb tus olmoqda.

Shu sababli Islom omilining Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarga ta’sirini biryoqlama emas, balki kompleks va ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Islom omilining Markaziy Osiyo mintaqasida geosiyosiy barqarorlikni shakllantirish va saqlashdagi rolini aniqlash, uning barqarorlashtiruvchi salohiyati hamda mumkin bo‘lgan destabilizatsion jihatlarini xolis baholashdan iborat. Mazkur yondashuv mintaqada diniy siyosat va xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi kutiladi.

Islom omilining geosiyosiy jarayonlarga ta’siri masalasi xalqaro munosabatlar, xavfsizlik tadqiqotlari hamda dinshunoslik sohalarida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasi misolida ushbu masalaning kompleks va tizimli tahlili nisbatan cheklanganligicha qolmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotlar asosan uch asosiy yo‘nalishda jamlangan: birinchisi — Islom omilining tarixiy va sivilizatsion jihatlari; ikkinchisi — diniy radikalizm va xavfsizlik masalalari; uchinchisi — Islomning geosiyosiy va “yumshoq kuch” (soft power) omili sifatidagi roli [2].

Islomning Markaziy Osiyodagi tarixiy va madaniy ildizlari masalasi ko‘plab klassik va zamonaviy tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, B. G‘afurov kabi sharqshunos olimlar o‘z asarlarida Markaziy Osiyoda Islomning tarqalishi va uning mahalliy ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar bilan uyg‘unlashuvini ilmiy asosda tahlil qilgan. Ushbu tadqiqotlarda Islom mintaqada tashqi sivilizatsion bosim emas, balki mahalliy madaniyat va an’analar bilan sintezlangan ijtimoiy institut sifatida shakllangani asoslab beriladi. Bu yondashuv zamonaviy tadqiqotlar uchun metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi [1].

Mustaqillikdan keyingi davrda Islom omilining qayta tiklanishi va uning siyosiy-huquqiy oqibatlari masalasi G. Fuller, O. Roy, J. Esposito kabi g‘arb olimlari

tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, O. Roy “The New Central Asia” asarida mintaqada diniy uyg‘onish jarayonlarini ideologik radikalizm bilan avtomatik tarzda bog‘lash ilmiy jihatdan asossiz ekanini ta’kidlab, diniy identitetning ko‘proq ijtimoiy va madaniy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. J. Esposito esa Islomni global siyosatda monolit hodisa sifatida talqin qilish xatoligini ko‘rsatib, uning turli mintaqalarda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘lishini ilmiy asoslaydi[2].

Markaziy Osiyoda Islom va xavfsizlik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosan diniy ekstremizm va radikalizm muammosiga yo‘naltirilgan. A. Rashid, M. B. Olcott, S. Peyrouse kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida mintaqadagi diniy radikalizmning sabablari diniy emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va institutsional omillar bilan bog‘liqligini asoslab beradi [3]. Xususan, M. Olcott Markaziy Osiyo davlatlarida olib borilgan qat’iy xavfsizlikka yo‘naltirilgan siyosat ayrim hollarda radikal kayfiyatlarning kuchayishiga zamin yaratganini ta’kidlaydi. Ushbu xulosalar Islom omilini geosiyosiy barqarorlikka tahdid sifatida emas, balki noto‘g‘ri boshqarilgan omil sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Mintaqaviy va mahalliy tadqiqotlarda, jumladan, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston olimlari ishlarida Islom omilining ijtimoiy barqarorlikdagi o‘rni masalasi tobora ko‘proq e’tibor qozonmoqda. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarda (xususan, diniy siyosat, vijdon erkinligi va milliy xavfsizlikka bag‘ishlangan ilmiy ishlar) an’anaviy Islomni qo‘llab-quvvatlash va ma’rifiy yondashuvni rivojlantirish ekstremizmga qarshi samarali mexanizm sifatida baholanadi. Ushbu dissertatsiyalarda davlat va diniy institutlar o‘rtasidagi konstruktiv hamkorlik ichki barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida ko‘rsatib beriladi [5].

So‘nggi yillarda Islom omilini geosiyosiy jarayonlar va “soft power” konsepsiyasi doirasida tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar ham paydo bo‘lmoqda. J. Nye tomonidan ilgari surilgan “yumshoq kuch” nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlarda diniy-madaniy omillar davlatlarning tashqi siyosiy nufuzi va mintaqaviy barqarorlikka ta’sir etuvchi resurs sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv doirasida Islom omili Markaziy Osiyo davlatlari uchun nafaqat ichki barqarorlik, balki mintaqaviy hamkorlik va diplomatik aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida baholanmoqda [6].

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati Islom omilining alohida jihatlariga e’tibor qaratib, uni mintaqaviy geosiyosiy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq, kompleks hodisa sifatida yetarlicha yoritmagan. Ayniqsa, Islom omilining barqarorlashtiruvchi salohiyati va uning siyosiy instrument sifatida noto‘g‘ri talqin qilinishidan kelib chiqadigan xavflar o‘rtasidagi muvozanat masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda Islom omili mintaqaviy geosiyosiy barqarorlikka biryoqlama emas, balki ko‘p qirrali va tizimli ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini berdi. O‘rganilgan siyosiy amaliyotlar, davlatlar tomonidan olib borilayotgan diniy siyosat modellari hamda mintaqaviy xavfsizlik jarayonlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Islom omili to‘g‘ri boshqarilgan sharoitda barqarorlashtiruvchi resurs sifatida namoyon bo‘ladi, noto‘g‘ri siyosiylashtirilgan holatlarda esa xavfsizlik tahdidlariga zamin yaratishi mumkin.

Birinchidan, tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo davlatlarida Islom omilining ichki siyosiy barqarorlikka ta’siri davlatning diniy siyosati xarakteri bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston va Qozog‘iston misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, sekulyar davlat modeli doirasida an’anaviy Islomni qo‘llab-quvvatlash, diniy ta’limni institutsional asosda rivojlantirish va noqonuniy diniy faoliyatni ajratib ko‘rsatish ichki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida xizmat qilmoqda[6]. Xususan, so‘nggi yillarda diniy-ma’rifiy siyosatning kuchayishi diniy radikalizmga moyillikni kamaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, tadqiqot shuni aniqladiki, Markaziy Osiyoda diniy radikalizm va ekstremizmning kuchayishi bevosita Islom omilining o‘zi bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, siyosiy inklyuzivlikning past darajasi va axborot makonidagi tashqi mafkuraviy ta’sirlar bilan chambarchas bog‘liq. Ayrim davlatlarda diniy faoliyatning haddan tashqari cheklanishi yoki diniy institutlar bilan muloqotning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani norozilik kayfiyatlarining diniy tus olishiga olib kelgan holatlar kuzatilgan[7]. Bu esa Islom omilining destabilizatsion ko‘rinishlari ko‘proq noto‘g‘ri boshqaruv natijasi ekanini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, mintaqaviy darajada olib borilgan tahlil Islom omilining transmilliy xavfsizlik jarayonlariga ta’siri mavjudligini ko‘rsatdi. Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat Markaziy Osiyo uchun muhim tashqi omil bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Afg‘onistondagi diniy-siyosiy jarayonlar mintaqa davlatlarida xavfsizlik siyosatini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining Afg‘oniston bilan bog‘liq yondashuvlari tobora pragmatik va xavfsizlikdan tashqari iqtisodiy hamkorlik elementlarini ham o‘z ichiga ola boshlagani kuzatilmoqda [8]. Bu esa Islom omilining mintaqaviy geosiyosatda mutlaq xavf manbai sifatida emas, balki boshqarilishi zarur bo‘lgan omil sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari yirik global kuchlarning Markaziy Osiyodagi Islom omiliga bo‘lgan munosabatida farqli strategiyalar mavjudligini aniqladi. Rossiya mintaqada diniy xavfsizlik masalasiga asosan harbiy-siyosiy barqarorlik nuqtayi nazaridan yondashib, radikalizmga qarshi kollektiv mexanizmlarni ilgari surmoqda. Xitoy esa diniy omilni asosan ichki xavfsizlik va

transchegaraviy barqarorlik bilan bog‘lab, iqtisodiy loyihalar orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga intilmoqda[9]. AQSh va Yevropa Ittifoqi esa diniy erkinlik, inson huquqlari va fuqarolik jamiyati rivoji orqali uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan yondashuvni ilgari surmoqda. Ushbu turli strategiyalar Islom omilining Markaziy Osiyo geosiyosatida muhim instrumental ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari Islom omilining “yumshoq kuch” elementi sifatida mintaqaviy barqarorlikka hissa qo‘shish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Diniy-ma’rifiy hamkorlik, ilmiy va madaniy almashinuvlar, an’anaviy Islom qadriyatlarini targ‘ib qilish orqali Markaziy Osiyo davlatlari o‘z ichki barqarorligini mustahkamlash bilan birga, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Bu jihat ayniqsa diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlayotgan mamlakatlar tajribasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Islom omilining Markaziy Osiyoda geosiyosiy barqarorlikka ta’siri qat’iy deterministik emas, balki siyosiy boshqaruv sifati, institutsional yondashuv va mintaqaviy hamkorlik darajasiga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Islom omilini xavf manbai sifatida emas, balki to‘g‘ri boshqarilgan sharoitda barqarorlikni mustahkamlovchi ijtimoiy va madaniy resurs sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli ekanligi ushbu natijalar orqali tasdiqlandi [10].

Markaziy Osiyo davlatlarida Islom omilining boshqarilishi va geosiyosiy barqarorlikka ta’siri (qiyosiy tahlil)

Davlat	**Diniy siyosat modeli**	**Islom omilining davlat siyosatidagi o‘rni**	**Xavfsizlikka ta’siri**	**Geosiyosiy barqarorlikka ta’siri (natija)**
O‘zbekiston	Sekulyar, ma’rifiy Islom modeli	An’anaviy Islomni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, diniy ta’limni institutsionallashtirish	Radikalizmning oldini olishga qaratilgan profilaktik yondashuv	Ichki barqarorlik mustahkamlanmoqda, mintaqaviy hamkorlik kuchaymoqda
Qozog‘iston	Sekulyar, nazoratli	Diniy institutlar faoliyati qat’iy	Xavfsizlikka potensial	Barqaror siyosiy muhit saqlanmoqda,

	diniy pluralizm	huquqiy tartibga solingan	tahdidlar erta aniqlanadi	tashqi siyosatda pragmatik yondashuv
Qirg‘iziston	Nisbatan liberal diniy siyosat	Diniy faollik yuqori, nazorat mexanizmlari cheklangan	Radikal g‘oyalarga ochiqlik mavjud	Ichki siyosiy beqarorlik xavfi yuqoriroq
Tojikiston	Qattiq sekulyar-nazorat modeli	Diniy faoliyat keskin cheklangan	Qisqa muddatda xavfsizlik ta’minlangan	Uzoq muddatda norozilik va yashirin radikallashuv xavfi
Turkmaniston	Avtoritar-sekulyar model	Islom davlat ideologiyasiga bo‘ysundirilgan	Xavfsizlik to‘liq davlat nazoratida	Barqarorlik tashqi yopiq siyosat hisobiga ta’minlangan

Mazkur jadval Markaziy Osiyo davlatlarida Islom omilining boshqarilishi va uning geosiyosiy barqarorlikka ta’siri o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, diniy siyosatda muvozanatli va ma’rifiy yondashuv ustun bo‘lgan davlatlarda Islom omili ichki barqarorlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aksincha, diniy sohani haddan tashqari cheklash yoki yetarlicha institutsional nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi uzoq muddatda xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Olingan tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda Islom omilining geosiyosiy barqarorlikka ta’siri deterministik xarakterga ega emasligini, balki siyosiy boshqaruv sifati, institutsional yondashuv va mintaqaviy kontekst bilan chambarchas bog‘liq ekanini tasdiqlaydi. Ushbu xulosa ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan qisman mos kelgan holda, Islom omilining barqarorlashtiruvchi salohiyatiga yetarlicha e’tibor qaratilmaganini ko‘rsatadi.

Avvalo, natijalar O. Roy va J. Esposito tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlarni tasdiqlaydi. Xususan, Islomni siyosiy radikalizm bilan avtomatik tarzda tenglashtirish ilmiy jihatdan asossiz ekani Markaziy Osiyo davlatlari misolida yana bir bor isbotlandi. Tadqiqot ko‘rsatadiki, diniy radikalizmning kuchayishi bevosita diniy e’tiqod bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy marginalizatsiya, siyosiy inklyuzivlikning pastligi va tashqi mafkuraviy ta’sirlar bilan bog‘liq. Bu holat M. Olcott va S. Peyrouse tadqiqotlarida ilgari surilgan xulosalar bilan hamohangdir [6].

Davlatlar kesimida olib borilgan qiyosiy tahlil diniy siyosatda muvozanatli yondashuvning geosiyosiy barqarorlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini

ko‘rsatadi. Masalan, O‘zbekiston va Qozog‘istonda so‘nggi yillarda amalga oshirilgan diniy-ma’rifiy islohotlar, diniy ta’limni institutsional rivojlantirish va diniy institutlar bilan konstruktiv muloqot radikal kayfiyatlarning ijtimoiy tayanchini sezilarli darajada qisqartirgan. Bu holat Islom omilining ichki barqarorlikni mustahkamlovchi ijtimoiy resurs sifatida ishlashi mumkinligini ko‘rsatadi. Aksincha, diniy sohani haddan tashqari cheklashga asoslangan siyosiy modellarda norozilikning yashirin shakllari va diniy diskursning siyosiylashuvi xavfi saqlanib qolmoqda.

Muhokama doirasida alohida e’tibor Afg‘oniston omiliga qaratilishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Afg‘onistondagi diniy-siyosiy vaziyat Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik strategiyalarida markaziy o‘rin tutadi. Biroq so‘nggi yillarda mintaqa davlatlari ushbu omilga nisbatan faqat harbiy-xavfsizlik yondashuvi bilan cheklanmasdan, iqtisodiy va diplomatik instrumentlarni ham qo‘llay boshlagani kuzatilmoqda. Bu esa Islom omilining transmilliy geosiyosiy jarayonlarda mutlaq tahdid emas, balki boshqarilishi mumkin bo‘lgan omil sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi.

Global kuchlarning mintaqadagi strategiyalari tahlili ham Islom omilining geosiyosiy instrument sifatidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Rossiya tomonidan ilgari surilayotgan kollektiv xavfsizlik mexanizmlari Islom omilini asosan harbiy-siyosiy barqarorlik nuqtayi nazaridan talqin qiladi. Xitoy esa diniy omilni ichki xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘lab, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga intilmoqda. AQSh va Yevropa Ittifoqi esa diniy erkinlik, inson huquqlari va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash orqali uzoq muddatli barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashga urinmoqda. Ushbu turli yondashuvlar Markaziy Osiyoda Islom omilining geosiyosiy ahamiyati global darajada tan olinganini ko‘rsatadi [8].

Muhokama natijalari Islom omilini “yumshoq kuch” konsepsiyasi doirasida qayta baholash zaruratini ham asoslaydi. J. Nye tomonidan ilgari surilgan “soft power” nazariyasi kontekstida diniy-madaniy qadriyatlar jamiyat ichida legitimlikni mustahkamlash, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni oshirish hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Markaziy Osiyo davlatlarida an’anaviy Islom qadriyatlariga tayangan ma’rifiy yondashuv aynan shu funksiyani bajarishga qodir ekanini tadqiqot natijalari tasdiqlaydi [11].

Shu bilan birga, Islom omilining barqarorlashtiruvchi salohiyati avtomatik tarzda yuzaga chiqmaydi. Bu jarayon davlat siyosatining izchilligi, huquqiy mexanizmlarning shaffofligi va diniy institutlarning legitimligiga bog‘liq. Aks holda, diniy diskursning siyosiylashtirilishi va tashqi aktorlar tomonidan instrumentalizatsiya qilinishi mintaqaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot Markaziy Osiyoda Islom omilining mintaqaviy geosiyosiy barqarorlikka ta’siri murakkab, ko‘p qirrali va kontekstga bog‘liq hodisa ekanini

ilmiy asosda tasdiqladi. Tadqiqot natijalari Islom omilini faqat xavfsizlik tahdidi yoki radikalizm manbai sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asossiz ekanini ko‘rsatib, uni ijtimoiy barqarorlik, siyosiy legitimlik va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida qayta baholash zarurligini asoslab berdi.

Birinchidan, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Islom omilining geosiyosiy barqarorlikka ta’siri uning ichki mazmuniga emas, balki davlatlar tomonidan olib borilayotgan diniy siyosatning xarakteri va institutsional sifatiga bog‘liq. Muvozanatli, huquqiy va ma’rifiy yondashuv ustuvor bo‘lgan sharoitda Islom omili ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi, radikal kayfiyatlarning oldini oluvchi va siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Aksincha, diniy sohani haddan tashqari cheklash yoki uni siyosiy instrumentga aylantirish uzoq muddatda yashirin radikallashuv va legitimlik inqiroziga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari Markaziy Osiyoda diniy radikalizm muammosi diniy mohiyatga emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarga borib taqalishini ko‘rsatdi. Bu holat Islom omilini xavfsizlik diskursida avtomatik tarzda kriminalizatsiya qilish mintaqaviy barqarorlikka xizmat qilmasligini anglatadi. Aksincha, radikalizmning ildiz sabablarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks siyosatgina uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashi mumkin.

Uchinchidan, tadqiqot Markaziy Osiyoda Islom omilining transmilliy geosiyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligini aniqladi. Afg‘oniston omili, global kuchlarning mintaqadagi strategiyalari va tashqi mafkuraviy ta’sirlar Islom omilini mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasining muhim elementi sifatida shakllantirmoqda. Shu bilan birga, mintaqa davlatlarining tobora pragmatik va ko‘p vektorli yondashuvni qo‘llayotgani Islom omilining boshqarilishi mumkin bo‘lgan geosiyosiy resurs ekanini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari Islom omilini “yumshoq kuch” konsepsiyasi doirasida baholash imkoniyatlarini ochib berdi. An’anaviy Islom qadriyatlari, diniy-ma’rifiy hamkorlik va madaniy diplomatiya orqali Markaziy Osiyo davlatlari nafaqat ichki barqarorlikni mustahkamlash, balki mintaqaviy integratsiya va xalqaro nufuzni oshirish salohiyatiga ega. Ushbu yondashuv Islom omilini xavf manbai emas, balki konstruktiv geosiyosiy instrument sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Nazariy jihatdan, mazkur tadqiqot din va geosiyosat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni Markaziy Osiyo kontekstida chuqurlashtirib, Islom omilining barqarorlashtiruvchi salohiyatini ochib beruvchi konseptual modelni taklif etadi. Amaliy jihatdan esa, tadqiqot xulosalari mintaqa davlatlari uchun diniy siyosat va xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Islom omili Markaziy Osiyoda geosiyosiy barqarorlikni izohlovchi mustaqil tahdid emas, balki siyosiy boshqaruvga sezgir, institutsional jihatdan shakllantiriladigan va konstruktiv yo‘naltirilgan sharoitda mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlovchi kuchli omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu xulosa kelgusida mintaqaviy xavfsizlik va diniy siyosatga oid ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cornell S. E. State and Religion in Central Asia. Washington, DC: Silk Road Studies Program, 2004.

2. Akiner S. The politicisation of Islam in post-Soviet Central Asia. //Religion, State & Society, 2003. №31. – P. 97–122.

3. Heathershaw, J., & Montgomery, D. The myth of post-Soviet Muslim radicalization in the Central Asian Republics. //Chatham House Journal, 2014. №90. -C. 1–18.

4. Khalid, A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 2007.

5. Lewis, D. Illiberal peace? Authoritarian modes of conflict management in Central Asia. Central Asian Survey, 2017. №36. – P. 1–19.

6. Корнелл С. Э. Государство и религия в Центральной Азии. Центральноазиатский обзор, 2005. № 4. – С. 45–63.

7. Усаков В. Н. Политический ислам в Центральной Азии: основные факторы и перспективы: Автореферат дисс. … канд. полит.наук. – Москва, 2005. – С. 24.

8. Сухарева, О. А., Бикджанова, М. А. Ислам и государство в странах Центральной Азии. Москва: ИМЭМО РАН, 2012.

9. Малашенко, А. В. Ислам в Центральной Азии. Москва: Московский центр Карнеги, 2016.

10. Трофимов, Д. Б. Исламский фактор и региональная безопасность в Центральной Азии. // Мировая экономика и международные отношения, 2018. №6. -С. 88–97.

11. Курманалиева, А., Берикбаев, Е. Государственно-религиозные отношения в странах Центральной Азии. Вестник КазНУ, 2021. Серия религиоведения, Т. 25, № 1, 34–45.

12. Сыдыкбеков, Н. К. Ислам и геополитические процессы в Центральной Азии. Central Asia and the Caucasus, 2020. № 4. – С.56–69.

XALQARO SANKSIYALAR MEXANIZMI: MAQSADLARI, VAZIFALARI VA MILLIY TAJRIBALAR TAHLILI

Ergashev I.
Diplomat university
Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar mutaxassisligining magistranti
Toshkent, O‘zbekiston

Kirish. Xalqaro munosabatlar tizimida sanksiyalar davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan siyosiy, iqtisodiy hamda huquqiy bosim vositasi sifatida qo‘llaniladigan muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda sanksiyalar global siyosatda keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ularning kelib chiqish sabablari, dastlabki maqsadi va vazifalari tarixiy jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli sanksiyalarning kelib chiqishi va rivojlanishining asosiy sabablarini tahlil qilish sanksiyalar tizimini mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixan sanksiyalar kuch ishlatmasdan ta’sir o‘tkazish zaruratidan kelib chiqqan. Davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda harbiy to‘qnashuvlar katta yo‘qotishlarga olib kelgani sababli, muqobil vosita sifatida savdo cheklovlari, iqtisodiy bosim va diplomatik aloqalarni to‘xtatish kabi choralar amalga oshirish orqali ko‘zlangan maqdsadga yetish bo‘lgan boshlangan. Dastlab bu choralar aniq huquqiy tizimga ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, ularning asosiy maqsadi qarshi tomonni ma’lum siyosiy qarorlarni o‘zgartirishga majbur qilishdan iborat bo‘lgan. Sanksiyalarning ilk kiritilishining asosiy sabablari sifatida davlat manfaatlarini himoya qilish, tajovuzkor harakatlarning oldini olish hamda xalqaro tartibni saqlash ehtiyojini ko‘rsatish mumkin. Ushbu bosqichda sanksiyalar ko‘proq iqtisodiy va savdo cheklovlari shaklida namoyon bo‘lib, ularning vazifasi qarshi tomonning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklash orqali siyosiy bosim yaratishdan iborat bo‘lgan. Bu esa sanksiyalarni urushdan oldingi yoki urush o‘rnini bosuvchi vosita sifatida qo‘llashga zamin yaratgan.

XX asrga kelib, xalqaro munosabatlar yangi bosqichga o‘tdi endilik davlatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik transport texnalogiyalarning rivojlangani davlatlar o‘rtasidagi savdo va diplomatik aloqalarni mustahkamlanishi Sanksiyalarning ahamiyatini yanada o‘sishiga olib keldi. Birinchi jahon urushidan so‘ng sanksiyalar faqat alohida davlatlarning tashabbusi emas, balki xalqaro tinchlikni ta’minlashga qaratilgan umumiy vosita sifatida qarala boshlandi. Aynan shu davrda sanksiyalarni tizimli ravishda qo‘llash, ularning aniq maqsad va vazifalarini belgilash zarurati yuzaga keldi. Millatlar Ligasi doirasida sanksiyalar xalqaro huquqiy vosita sifatida ilk bor institutsional shaklga ega bo‘ldi. Mazkur maqolaning maqsadi - sanksiyalarning dastlabki kiritilishiga sabab bo‘lgan omillarni tahlil qilish, ularning tarixiy jihatdan

qanday maqsadlarni ko‘zlaganini aniqlash hamda sanksiyalarning asosiy vazifalarini ochib berishdan iborat. Maqolada sanksiyalar kuch ishlatishga muqobil vosita sifatida qanday shakllangani, ularning davlatlararo munosabatlardagi ahamiyati va zamonaviy sanksiyalar tizimiga asos bo‘lgan jihatlar yoritiladi. Shu orqali ushbu tadqiqot sanksiyalarning kelib chiqishi va vazifalarini tushuntirishga, shuningdek, ularning bugungi xalqaro munosabatlardagi o‘rnini tarixiy nuqtayi nazardan asoslab berishga xizmat qiladi. O‘zbekiston uchun xalqaro sanksiyalarning ahamiyati va ta’siri real misollar keltirilgan holda tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida sanksiyalar davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan siyosiy hamda iqtisodiy ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Ularning asosiy xususiyati shundan iboratki, sanksiyalar harbiy kuch ishlatmasdan turib, muayyan davlat yoki subyektning xatti-harakatlariga bosim o‘tkazish imkonini beradi. Shu jihatdan sanksiyalar xalqaro xavfsizlikni ta’minlash, suverenitetni himoya qilish va xalqaro huquq normalariga rioya etilishini majburiylashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Sanksiyalar tushunchasining tarixiy ildizlari qadimgi va o‘rta asrlarga borib taqaladi. Dastlab ular davlatlararo munosabatlarda savdo cheklovlari, iqtisodiy aloqalarni uzish yoki diplomatik munosabatlarni to‘xtatish shaklida namoyon bo‘lgan. Bu davrda sanksiyalar aniq huquqiy asosga ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, ularning asosiy maqsadi qarshi tomonni o‘z siyosiy qarorlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilishdan iborat edi. Yangi davrga kelib, davlatlararo raqobat kuchayishi bilan sanksiyalar yanada tizimli qo‘llanila boshladi va ular ko‘pincha harbiy to‘qnashuvlarning oldini olish vositasi sifatida ishlatildi.

XX asr sanksiyalar tarixida alohida bosqich hisoblanadi. Birinchi jahon urushidan keyin xalqaro munosabatlarda tinchlikni saqlash masalasi dolzarb muammoga aylandi. Aynan shu davrda sanksiyalar individual davlat tashabbusidan chiqib, kollektiv xalqaro mexanizmga aylana boshladi. 1919-yilda tashkil etilgan Millatlar Ligasi sanksiyalarni xalqaro huquqiy vosita sifatida institutsional darajada qo‘llagan birinchi tashkilot bo‘ldi. Millatlar Ligasi nizomiga muvofiq, agressiv siyosat yuritayotgan davlatlarga nisbatan iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar joriy etilishi belgilandi. Millatlar Ligasi tajribasi sanksiyalarning maqsadi va vazifalarini aniqroq shakllantirishga xizmat qildi. Bu bosqichda sanksiyalarning asosiy vazifalari tajovuzkor harakatlarni jilovlash, xalqaro huquq buzilishlarini to‘xtatish va tinchlikni saqlashdan iborat bo‘ldi. Shu bilan birga, mazkur davr sanksiyalarining samaradorligi cheklangan bo‘lib, ayrim hollarda ular kutilgan natijani bermagan. Bu holat sanksiyalarni qo‘llashda yagona pozitsiya va qat’iy mexanizm zarurligini ko‘rsatdi. Shunday qilib, sanksiyalar tarixiy rivojlanish jarayonida oddiy iqtisodiy cheklovlardan boshlab, murakkab xalqaro huquqiy mexanizmgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Ularning zamonaviy shakllari aynan XX asrda, xususan Millatlar Ligasi

[115] Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении международного договора» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: https://lex.uz/docs/8097829

Эталонным примером такой кооперации является производство автомобилей в Гаджигабульском районе Азербайджана, объединяющее технологии Узбекистана и ресурсы Азербайджана.

Перспективные планы по экспорту «зеленой» энергии по дну Каспийского моря дополнительно подчеркивают выход партнерства на глобальный уровень.

Гуманитарная составляющая союза воплощает концепцию «Smart Power», где ключевым ресурсом является человеческий капитал и взаимное доверие.

Символом этой глубокой солидарности стал «карабахский прецедент»: строительство школы имени Мирзо Улугбека в освобожденном городе Физули.

Это событие рассматривается как первый пример участия внешнего партнера в постконфликтном восстановлении региона.

В итоге сочетание политической воли лидеров, инвестиционного суверенитета и прорывных логистических решений превращает альянс Баку и Ташкента в модельную геоэкономическую ось, способную обеспечить процветание двух народов в XXI веке.

Выводы. В результате проведенного исследования можно сделать следующие выводы:

- стратегическое сближение Узбекистана и Азербайджана носит закономерный характер и основано на исторической общности;
- развитие Срединного коридора усиливает транспортно-логистическое значение региона;
- экономическое сотрудничество постепенно переходит к более глубокой промышленной кооперации;
- Организация тюркских государств играет важную роль в институционализации взаимодействия;
- партнерство Баку и Ташкента формируется как один из ключевых элементов современной геоэкономической архитектуры Евразии.

Список использованной литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении международного договора». Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: https://lex.uz/docs/8097829

2. Договор между Республикой Узбекистан и Азербайджанской Республикой о союзнических отношениях // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. URL: https://lex.uz/ru/docs/7576964

3. Nakhchivan Agreement on the Establishment of the Cooperation Council of Turkic Speaking States, 3 October 2009. URL: https://turkicstates.org/u/d/basic-

documents/nakhchivan-agreement-on-the-establishment-of-the-copperation-council-of-turkic-speaking-states-1-en.pdf

4. Транскаспийский международный транспортный маршрут и другие перспективные коридоры в Центральной Азии: обзор. Январь 2025. URL: https://index1520.com/upload/medialibrary/7fa/69jwc2gbyzntilvwf4nv0b55g17uu3i6/ru310125_TMTM.pdf

5. Turkic World Vision – 2040. 2021. URL: https://www.turkkon.org/en/haberler/turkic-world-vision-2040-adopted_2392

MARKAZIY OSIYO HAMJAMIYATINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA MODELI

Norqo‘ziyev R.
Diplomat University
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

Kirish. Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy, geoiqtisodiy va sivilizatsion jihatdan o‘zaro chambarchas bog‘langan hudud hisoblanadi. Ushbu mintaqa qadimiy Ipak yo‘lining markazida joylashgan bo‘lib, tarixan savdo, madaniyat va migratsiya jarayonlarining kesishgan nuqtasi bo‘lib kelgan. XX asr boshidagi siyosiy delimitatsiya jarayonlari natijasida mintaqa besh mustaqil davlatga - O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonga bo‘linib ketdi.

Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida ushbu davlatlar xalqaro tizimda mustaqil aktorlar sifatida shakllandi va o‘z milliy manfaatlarini mustaqil ravishda amalga oshirish bosqichiga o‘tdi. Biroq mintaqaning tarixiy bog‘liqligi, resurslar o‘zaro taqsimoti va geografik yaqinligi ularni tabiiy ravishda mintaqaviy hamkorlikka undaydi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari yangi bosqichga o‘tmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik, transport-logistika tarmoqlarining rivojlanishi, energetika xavfsizligi va suv resurslarini boshqarish kabi sohalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasida mintaqaviy integratsiya turli ilmiy maktablar orqali tahlil qilinadi. Neofunksionalizm nazariyasi iqtisodiy hamkorlikning “spillover” effekti orqali siyosiy va institutsional integratsiyaga olib kelishini asoslaydi. Bu yondashuv integratsiyani bosqichma-bosqich kengayuvchi jarayon sifatida ko‘radi.

Neoliberal institutsionalizm esa xalqaro institutlar va rejimlar davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ishonchni oshirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish vositasi ekanligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, realistik paradigma xalqaro tizimda davlatlar manfaatlari va xavfsizlik muammolari ustuvor ekanligini ko‘rsatadi.

Konstruktivistik yondashuv esa mintaqaviy identitet, umumiy qadriyatlar va ijtimoiy tasavvurlarning integratsiya jarayonidagi rolini alohida urg‘ulaydi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyoda integratsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida ham qaraladi.

Xususan, O‘zbekiston olimlari ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib, Markaziy Osiyo hamjamiyatini shakllantirishning turli konseptual yondashuvlarini ilgari surgan. Avvalo, Akmal Saidov ta’kidlaganidek huquqiy-institutsional asoslar masalasi integratsiyaning barqaror va uzoq muddatli bo‘lishi uchun zarur shart sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, davlatlar o‘rtasida aniq huquqiy normalar, umumiy kelishuvlar va samarali ishlaydigan mintaqaviy institutlar shakllanmas ekan, hamkorlik faqat deklarativ darajada qolib ketishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, yagona normativ baza yaratish, nizolarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish va xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan mintaqaviy tashkilotlarni mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, Sodiq Safoyev ilgari surgan siyosiy ishonch va muloqot omili integratsiyaning “yumshoq” jihatini ifodalaydi. Tarixan murakkab munosabatlarga ega bo‘lgan davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, ochiq diplomatik muloqotni rivojlantirish va umumiy manfaatlarni aniqlash integratsiya jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Siyosiy iroda va doimiy dialog bo‘lmasa, hatto eng mukammal huquqiy mexanizmlar ham samarali ishlamaydi.

Shuningdek, Farhod Tolipov tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyoni mustaqil geosiyosiy makon sifatida rivojlantirish g‘oyasi strategik ahamiyatga ega. Bu yondashuv mintaqani faqat tashqi kuchlar ta’siri doirasida emas, balki o‘z manfaatlari, ichki resurslari va umumiy identitetiga asoslangan holda shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday qarash Markaziy Osiyo davlatlarining global siyosatda subyekt sifatida mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Mintaqa bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo murakkab geosiyosiy makon bo‘lib, unda tashqi kuchlar ta’siri, ichki nomutanosibliklar va iqtisodiy bog‘liqlik bir vaqtning o‘zida mavjud. Shu sababli mintaqa uchun yagona, moslashuvchan va barqaror integratsion model ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism. 1. Integratsiyaning nazariy asoslari va tizimli yondashuv. Markaziy Osiyo integratsiyasi ko‘p qatlamli jarayon bo‘lib, uni tushuntirish uchun turli nazariy paradigmalarning sintezidan foydalanish zarur. Neofunksionalizm

integratsiyani funksional kengayish sifatida talqin qiladi, ya’ni iqtisodiy sohadagi hamkorlik boshqa sohalarga avtomatik tarzda “ko‘chib o‘tadi”.

Biroq bu jarayon avtomatik emas; u siyosiy iroda va institutsional qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Shu jihatdan neoliberal institutsionalizm muhim o‘rin tutadi, chunki u institutlar orqali hamkorlikni barqarorlashtirish mexanizmlarini tushuntiradi.

Konstruktivizm esa integratsiyaning “yumshoq kuch” komponentini yoritadi, ya’ni davlatlar o‘rtasidagi ishonch, identitet va tarixiy yaqinlik integratsiyani tezlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston olimlari ushbu nazariyalarni amaliy sharoitga moslashtirishga harakat qilmoqda. Jumladan, Akmal Saidov integratsiyani huquqiy mexanizmlar orqali mustahkamlash zarurligini ta’kidlaydi. Sodiq Safoyev esa mintaqada “yumshoq integratsiya” modelini ilgari surib, uni bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida talqin qiladi.

Natijada, Markaziy Osiyo uchun qat’iy siyosiy ittifoq emas, balki moslashuvchan, ochiq va manfaatlarga asoslangan “yumshoq integratsiya” modeli eng maqbul variant sifatida shakllanadi.

2. Iqtisodiy integratsiya va o‘zaro bog‘liqlik dinamikasi. Mintaqaviy integratsiyaning asosiy drayveri iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik hisoblanadi. Savdo aloqalarini kengaytirish, transport koridorlarini rivojlantirish va energetika hamkorligini chuqurlashtirish davlatlar o‘rtasidagi yaqinlashuvni kuchaytiradi.

Bu borada iqtisodiy yo‘nalishdagi O‘zbekistonlik tadqiqotchilar iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligi integratsiyaning asosiy omili ekanligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, institutsional mexanizmlar - maslahat uchrashuvlari, qo‘shma komissiyalar va mintaqaviy platformalar - hamkorlikni muvofiqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

3. Xavfsizlik arxitekturasi va regionalizm. Markaziy Osiyo xavfsizlik jihatidan o‘zaro bog‘langan mintaqaviy tizimdir. Chegara nizolari, suv resurslari bo‘yicha kelishmovchiliklar va transmilliy tahdidlar (ekstremizm, noqonuniy migratsiya) mintaqaviy xavfsizlikni kompleks holatga keltiradi.

Barry Buzan va Ole Wæver tomonidan ishlab chiqilgan “mintaqaviy xavfsizlik komplekslari” nazariyasiga ko‘ra, bir hududdagi davlatlar xavfsizligi bir-biriga bevosita ta’sir qiladi. Bu Markaziy Osiyo uchun ayniqsa dolzarbdir.

O‘zbekistonlik siyosatshunos Farhod Tolipov fikricha, Markaziy Osiyo davlatlari uchun xavfsizlik masalasi nafaqat milliy darajada, balki mintaqaviy o‘lchamda ham hal etilishi lozim. U ta’kidlaydiki, mintaqa davlatlari o‘z xavfsizlik tizimini tashqi kuchlarga haddan tashqari tayanmagan holda, mustaqil ravishda shakllantirishi zarur. Bu yondashuv, avvalo, siyosiy suverenitetni mustahkamlash, milliy manfaatlarni himoya qilish va mintaqaning ichki barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Biroq, F.Tolipov xavfsizlikni faqat individual davlatlar doirasida ko‘rish yetarli emasligini ham alohida qayd etadi. Chunki Markaziy Osiyodagi asosiy tahdidlar - terrorizm, ekstremizm, transchegaraviy jinoyatchilik, suv va energetika resurslari bilan bog‘liq muammolar - bir davlat chegarasi bilan cheklanmaydi. Shu sababli, u xavfsizlikni ta’minlashda kollektiv yondashuv, ya’ni mintaqa davlatlari o‘rtasida yaqin hamkorlik, axborot almashinuvi va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish muhim ekanini ta’kidlaydi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, F.Tolipov kollektiv xavfsizlikni tashqi harbiy-siyosiy bloklarga to‘liq bog‘lash tarafdori emas, balki aynan mintaqa ichidagi hamkorlikni ustuvor deb biladi. Ya’ni, Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro ishonchga asoslangan, umumiy manfaatlarni hisobga oluvchi va tenglik tamoyillariga asoslangan xavfsizlik mexanizmlarini ishlab chiqishi kerak.

Natijada, uning konsepsiyasida ikki muhim tamoyil uyg‘unlashadi: mustaqillik va hamkorlik. Bir tomondan, har bir davlat o‘z xavfsizlik siyosatini mustaqil belgilaydi, ikkinchi tomondan esa, umumiy tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun mintaqaviy darajada birlashadi. Aynan shu muvozanat Markaziy Osiyoda barqaror va uzoq muddatli xavfsizlik tizimini shakllantirishning asosiy omili sifatida ko‘riladi.

4. Ijtimoiy-madaniy integratsiya va identitet omili. Mintaqaviy integratsiyaning muhim, lekin ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan jihati bu ijtimoiy-madaniy yaqinlikdir. Umumiy tarix, til o‘xshashliklari, diniy va madaniy qadriyatlar mintaqaviy identitet shakllanishiga xizmat qiladi

Ta’lim, ilm-fan va madaniy almashinuv dasturlari ushbu jarayonni kuchaytiradi va mintaqaviy hamjamiyat shakllanishiga xizmat qiladi.

5. Tashqi omillar va ochiq mintaqaviylik strategiyasi. Markaziy Osiyo davlatlari ko‘p vektorli tashqi siyosat yuritadi. Bu ularga bir vaqtning o‘zida turli global markazlar bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ichki mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish zarurati “ochiq mintaqaviylik” modelini shakllantiradi.

Bu model tashqi kuchlar bilan hamkorlikni saqlagan holda ichki mintaqaviy mustaqil hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Markaziy Osiyo hamjamiyatini shakllantirish murakkab, ko‘p qatlamli va evolyutsion xarakterga ega jarayon bo‘lib, u iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik, institutsional hamkorlik, xavfsizlik muvozanati hamda ijtimoiy identitetning uyg‘unlashuvi asosida izchil rivojlanadi. O‘zbekiston olimlari tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar mintaqaviy integratsiyaning fundamental tayanchlarini aniq belgilab beradi: huquqiy va institutsional mexanizmlar orqali barqarorlikni ta’minlash, siyosiy ishonch va muloqot orqali hamkorlik muhitini shakllantirish, iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligi orqali o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, xavfsizlik

sohasidagi hamkorlik orqali umumiy tahdidlarga qarshi turish hamda umumiy mintaqaviy identitet orqali integratsiyaning ijtimoiy asosini mustahkamlash.

Taklif etilgan “yumshoq integratsiya” modeli aynan shu ustunlarni uyg‘unlashtirgan holda Markaziy Osiyoni qat’iy va yopiq blok emas, balki moslashuvchan, ochiq va ko‘p darajali hamkorlik makoni sifatida shakllantirish imkonini beradi. Ushbu model doirasida integratsiya majburiylikdan ko‘ra manfaatdorlikka, raqobatdan ko‘ra hamkorlikka, fragmentatsiyadan ko‘ra uyg‘unlashuvga asoslanadi. Natijada, siyosiy muloqot, iqtisodiy yaqinlashuv, infratuzilmaviy bog‘liqlik va ijtimoiy-madaniy aloqalar o‘zaro kuchaytiruvchi omillarga aylanadi.

Ayniqsa, ishonch muhitini mustahkamlash, umumiy infratuzilma va logistika loyihalarini rivojlantirish, suv-energetika va transport resurslaridan oqilona va adolatli foydalanish kabi yo‘nalishlar mintaqaning ichki barqarorligini ta’minlovchi strategik omillar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, Markaziy Osiyoni nafaqat ichki jihatdan integratsiyalashgan, balki tashqi ta’sirlarga nisbatan barqaror va mustaqil qaror qabul qila oladigan geosiyosiy makonga aylantiradi.

Umuman olganda, mazkur konseptual model nazariy asoslar va amaliy mexanizmlarning chuqur uyg‘unligiga tayangan holda, Markaziy Osiyo davlatlariga global tizimda faol va teng huquqli subyekt sifatida ishtirok etish, o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish hamda uzoq muddatli barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlash imkonini beradi. Shu ma’noda, mintaqaviy integratsiya endilikda faqat rivojlanish vositasi emas, balki Markaziy Osiyoning kelajakdagi strategik taraqqiyot modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Haas, E. B. The Uniting of Europe: Political, Social, and Economic Forces 1950–1957. Stanford University Press, 1958.

2. Nye, J. S. International Regionalism. Little, Brown and Company, 1968.

3. Keohane, R. O. After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy. Princeton University Press, 1984.

4. Waltz, K. N. Theory of International Politics. McGraw-Hill, 1979.

5. Acharya, A. The End of American World Order. Polity Press, 2014.

6. Laruelle, M., Peyrouse, S. Globalizing Central Asia: Geopolitics and the Challenges of Economic Development. M.E. Sharpe, 2012.

7. Vinokurov, E. Eurasian Integration: Challenges of Transcontinental Regionalism. Palgrave Macmillan, 2017.

8. Buzan, B., Wæver, O. Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge University Press, 2003.

9. Saidov, A. Xalqaro huquq va mintaqaviy integratsiya masalalari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

10. Safoyev, S. (2020–2024). Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorligi va diplomatiya masalalari. Tashqi siyosat bo‘yicha ma’ruzalar va tahliliy chiqishlar.

11. Tolipov, F. (2018–2023). Markaziy Osiyoda geosiyosiy jarayonlar va xavfsizlik masalalari. Strategik tadqiqotlar markazi materiallari.

12. Burnashev, R. (2015–2022). Markaziy Osiyo xavfsizlik muammolari va regional hamkorlik. Tahliliy maqolalar va ilmiy nashrlar.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MINTAQAVIY HAMKORLIK VA INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA TA’LIM TURIZMINING O‘RNI

Ababaxriyeva O.
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

Jahongirov K.
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

Zamonaviy dunyoda ta’lim turizmi madaniy almashinuvni kuchaytirish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda xalqaro va mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv sharoitida ta’lim turizmi nafaqat bilim va tajriba almashinuvini ta’minlaydi, balki xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bu jihat, ayniqsa, tarixiy, madaniy va geografik jihatdan yaqin bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun alohida dolzarblik kasb etadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi hamkorlik integratsiya jarayonlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim dasturlari, talabalar almashinuvi, qo‘shma ilmiy loyihalar va akademik mobillik kabi tashabbuslar mintaqa davlatlari o‘rtasida ilmiy va madaniy yaqinlashuvni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa umumiy tarixiy ildizlar va madaniy qadriyatlarga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi integratsiyani yanada mustahkamlashga zamin yaratadi.

Mintaqa davlatlari o‘rtasidagi ta’lim turizmi nafaqat bilim almashinuvi jarayonini rivojlantiradi, balki madaniy an’analarni saqlash va boyitish, til va ilmiy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, innovatsion yondashuvlarni ta’lim tizimiga

joriy etishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon Markaziy Osiyoda yagona ilmiy-ta’lim makonini shakllantirishga ham muhim hissa qo‘shmoqda.

Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O‘zbekiston mintaqaviy ta’lim va madaniy almashinuv jarayonlarida muhim o‘rin egallaydi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy ilm-fan va madaniyat markazlari mamlakatni ta’lim turizmi uchun jozibador yo‘nalishga aylantiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan akademik hamkorlikni kengaytirib, qo‘shma ta’lim dasturlari va xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bu esa mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ta’lim turizmining strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, xususan, ta’lim turizmini rivojlantirish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda mintaqada integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, yoshlar o‘rtasida ilmiy va madaniy almashinuvni kengaytirish hamda ta’lim sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-338-sonli qaroriga ko‘ra “...iyul oyida oliy ta’lim muassasalari talabalari va yoshlar uchun xalqaro “Turksoy” tashkiloti bilan hamkorlikda “Turkiy tilli yoshlar” xalqaro festivalining o‘tkazilishi[116] hamda “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-sonli qaroriga muvofiq esa “2023/2024-o‘quv yilidan boshlab har yili “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar fuqarolari magistraturada davlat granti asosida ta’lim olishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 10 milliard so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda mablag‘lar ajratilishi”[117] ning belgilanganligi Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik doirasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan eng muhim qadam hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalari jami 222 ta bo‘lib, ulardan davlat universitetlari va institutlari 109 ta, akademiyalar 5 ta, filiallar 40 ta, konservatoriya 1 ta, chet el oliy ta’lim muassasalari filiallari 30 ta, nodavlat (xususiy) oliy ta’lim muassasalari esa 69 tani tashkil qiladi.[118] Hozirda ularda tahsil olayotgan talabalar soni 1 589 026 nafar bo‘lib, shulardan 14 216 tasi

[116] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.07.2022-yil PQ-338-son // https://lex.uz/uz/docs/6137065
[117] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yil PQ-238-son // https://lex.uz/uz/docs/-6549286?ONDATE2=18.01.2024&action=compare
[118] https://edu.uz/uz/otm/index#gsc.tab=0

xorijiy davlat talabalari hissasiga to‘g‘ri keladi[119].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni sezilarli darajada oshib bormoqda. Ushbu tendensiya yillar kesimida quyidagi jadvalda yaqqol namoyon etilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy talabalar kontingenti (2019/2025-yillar kesimida)[120]

№	O‘quv yili	Talabalar soni
1.	2019/2020-o‘quv yili	3 593 nafar
2.	2020/2021-o‘quv yili	4 219 nafar
3.	2021/2022-o‘quv yili	5 140 nafar
4.	2022/2023-o‘quv yili	6 940 nafar
5.	2023/2024-o‘quv yili	10 597 nafar
6.	2024/2025-o‘quv yili	12 500 nafar
7.	2025-o‘quv yili (yanvar-avgust)	14 216 nafar

Keltirilgan statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan davr mobaynida talabalar soni barqaror va izchil o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2019/2020-o‘quv yilida talabalar soni 3 593 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2020/2021-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 4 219 nafarga yetib, nisbatan o‘rtacha o‘sish qayd etilgan. Ushbu davrda o‘sish sur’ati 17,4 foiz atrofida bo‘lib, bu oliy ta’limga bo‘lgan qiziqishning bosqichma-bosqich ortib borayotganini ko‘rsatadi.

2021/2022-o‘quv yilida talabalar soni 5 140 nafarga yetib, o‘sish sur’ati yanada jadallashgan. Keyingi 2022/2023-o‘quv yilida esa 6 940 nafar ko‘rsatkich qayd etilib, oldingi yilga nisbatan sezilarli – taxminan 35 foizga yaqin o‘sish kuzatilgan. Bu davrda oliy ta’lim tizimiga kirish imkoniyatlarining kengayishi hamda xalqaro hamkorlikning rivojlanishi muhim omil sifatida baholanishi mumkin.

Eng sezilarli o‘sish 2023/2024-o‘quv yilida kuzatilgan bo‘lib, talabalar soni 10 597 nafarga yetgan. Bu ko‘rsatkich avvalgi davrga nisbatan keskin o‘sishni ifodalab, oliy ta’lim eksporti va xorijiy talabalar oqimining faollashganidan dalolat beradi. 2024/2025-o‘quv yilida esa 12 500 nafar talabaga yetib, o‘sish sur’ati nisbatan barqaror davom etgan.

2025-yilning yanvar–avgust oylarida esa talabalar soni 14 216 nafarni tashkil etib, tahlil qilinayotgan davr ichida eng yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan. Bu holat

[119] https://stat.edu.uz/students
[120] https://stat.edu.uz/students ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

oliy ta’lim tizimining xalqaro miqyosda jozibadorligi ortib borayotganini, shuningdek, akademik mobillik va ta’lim xizmatlari eksportining kengayishini anglatadi.

Umuman olganda, 2019/2020-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrda talabalar soni qariyb to‘rt barobarga oshgan. Bu tendensiya oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta’lim infratuzilmasining rivojlanishi hamda xalqaro integratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

2-jadval

2025-yil yanvar–noyabr oylarida O‘zbekistonga o‘qish maqsadida kelgan chet el fuqarolari soni (mamlakatlar kesimida)[121]

№	Mamlakat	Talabalar soni (nafar)
1.	Hindiston	16 300
2.	Turkmaniston	8 900
3.	Tojikiston	2 700
4.	Qirg‘iz Respublikasi	823
5.	Misr	737
6.	Filippin	501
7.	Turkiya	357
8.	Afg‘oniston	291
9.	Rossiya	164
10.	Qozog‘iston	113

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonga o‘qish maqsadida kelayotgan xorijiy talabalar orasida Hindiston va Turkmaniston yetakchi o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, Turkmaniston (8 900 nafar) va Tojikiston (2 700 nafar) kabi Markaziy Osiyo davlatlaridan kelayotgan talabalar ulushi sezilarli darajada yuqoridir. Qirg‘iz Respublikasi (823 nafar) va Qozog‘iston (113 nafar) ko‘rsatkichlari esa nisbatan past bo‘lsa-da, mintaqaviy akademik mobilitet mavjudligini tasdiqlaydi. Markaziy Osiyo davlatlari O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutib, mintaqaviy ta’lim integratsiyasi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ta’lim turizmi sohasida sezilarli ijobiy dinamikalar kuzatilmoqda, xususan, xorijiy talabalar sonining barqaror o‘sishi, akademik mobillikning kengayishi hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan ta’lim sohasidagi integratsiyaning kuchayishi bu yo‘nalishning strategik ahamiyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, mavjud rivojlanish tendensiyalari bir qator tizimli muammolarni ham yuzaga chiqaradi.

Birinchidan, ayrim oliy ta’lim muassasalarida xalqaro talabalar uchun xizmat

[121] https://stat.uz/uz/. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

ko‘rsatish sifati va infratuzilma darajasi bir xil emasligi kuzatiladi. Bu holat ularning ta’lim jarayoniga moslashuvini qiyinlashtirishi mumkin. Ikkinchidan, ta’lim dasturlarining xalqaro standartlarga to‘liq moslashmaganligi va ingliz tilidagi o‘quv dasturlari yetarli darajada kengaymaganligi raqobatbardoshlikka ta’sir etmoqda. Uchinchidan, viza, ro‘yxatdan o‘tkazish va ma’muriy jarayonlardagi ayrim byurokratik to‘siqlar xorijiy talabalar oqimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, marketing va xalqaro targ‘ibot faoliyatining yetarlicha tizimli emasligi O‘zbekistonning global ta’lim bozoridagi imkoniyatlarini to‘liq ochib bermayapti.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator ilmiy asoslangan takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, oliy ta’lim muassasalarida xalqaro talabalar uchun yagona servis standartlarini joriy etish, zamonaviy kampus infratuzilmasini rivojlantirish hamda talabalarga xizmat ko‘rsatish markazlarini kengaytirish zarur. Ikkinchidan, ingliz va boshqa xorijiy tillardagi ta’lim dasturlarini ko‘paytirish, qo‘shma diplom dasturlarini rivojlantirish va xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini jadallashtirish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, viza va ro‘yxatga olish jarayonlarini raqamlashtirish hamda soddalashtirish orqali ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish lozim.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning ta’lim turizmi salohiyatini xalqaro miqyosda faol targ‘ib qilish, xususan, Markaziy Osiyo, Osiyo va Yevropa mamlakatlarida maqsadli marketing strategiyalarini kuchaytirish zarur. Akademik hamkorlikni kengaytirish orqali qo‘shma ilmiy loyihalar va talabalar almashinuvi dasturlarini rivojlantirish esa mintaqaviy integratsiyani yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ta’lim turizmini barqaror rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, ya’ni infratuzilma, ta’lim sifati, boshqaruv tizimi va xalqaro marketing siyosatini bir vaqtda takomillashtirish talab etiladi. Bu esa O‘zbekistonni mintaqaviy va global ta’lim markazlaridan biriga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-338-sonli qarori, 29.07.2022-yil // https://lex.uz/uz/docs/6137065.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 27.07.2023-yil // https://lex.uz/uz/docs/-6549286?ONDATE2=18.01.2024&action=compare.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayti // https://edu.uz/uz/.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti // https://stat.uz/uz/.

MARKAZIY OSIYO HAMJAMIYATINING, MINTAQAVIY HAMKORLIKDAGI YANGI MODELI

Kamoldjonov J.
Diplomat University
Xalqaro munosabatlar yo'nalishi talabasi
Toshkent, O'zbekiston

Markaziy Osiyo so'nggi yillarda misli ko'rinmas rivojlanish va integratsiya jarayoni oldida turibdi. Markaziy Osiyo geosiyosiy maydonda sub'yekt sifatida shakillanib o'z o'rnini topib mustahkamlab bormoqda. Mustaqillik yillari boshida mamlakatimiz va qo'shni davlatlar o'rtasidagi ya'ni besh davlat Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasidagi turli xil muammolar etnik, suv, chegara va resurslar ustuda kelib chiqqan muammo, konfliktlar yuzaga kelgan edi. 2010 yildagi Qirg'izistonning Osh va Jalolobod viloyatlarida etnik o'zbeklar va qirg'izlar o'rtasida kelib chiqqan fuqarolar urushi kelib chiqqanligi ham misol bo'la olishi mumkin. Ayni shunday taxlikali yillarda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari o'rtasida ham muammolar yuzaga keldi va bu o'z navbatida davlatlar o'rtasida ijtimoiy muammo, savdo-iqtisodiy aloqalarni kamayib borishiga olib keldi. Yaqin yillargacha bu vaziyat yumshamasdan tobora keskinlashib bordi. Tarqoq va o'zaro muammolar bilan band bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari dunyo hamjamiyati nazaridan orqada qola bordi.

Ammo yaqin o'n yillardan buyon Markaziy Osiyo davlatlari muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligada sekin asta birlasha va aloqalarni do'stona olib borish kuzatila boshladi. Siyosiy muloqotning institutsionallashuvi boshlandi ya'ni davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari platformasi 2018-yildan buyon davom etayotganligi ham Markaziy Osiyoni bir hamjiyat sifatida shakillanishini boshlanishi sifatida ko'rishimiz mumkin. Ushbu o'zgarishlarning asosiy drayveri O'zbekistonning 2016-yildan keyingi yangi tashqi siyosat kursi bo'ldi. "Qo'shning tinch - sen tinch" tamoyili shunchaki diplomatiya emas, balki mintaqaviy barqarorlikning konseptual asosiga aylandi. Bugungi kunda beshta davlat (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston) o'rtasidagi munosabatlar endi uchinchi tomonlar aralashuvisiz, bevosita muloqot orqali hal etilmoqda. Ilgari uchrashuvlar tartibsiz yoki tashqi kuchlar tashabbusi bilan bo'lgan bo'lsa, hozirgi model ichki ehtiyojga asoslangan holda o'tkazilyotganligi etirofga loyiq. Davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formati bu birdamlikning asosi bo'ldi. Endi biz o'z muammolarimizni yopiq eshiklar ortida emas, balki qardoshlarcha, ochiq va samimiy muhitda hal qilmoqdamiz. Bu "Markaziy Osiyo ruhi" deb nom olgan yangi siyosiy muhitning mahsulidir. Bu

shunchaki diplomatiya emas, balki xalqlarimizning asriy orzusi - erkin va to‘siqlarsiz muloqotning tiklanishidir.

Yangi modelning o‘ziga xosligi shundaki, u quruq deklaratsiyalarga emas, balki real iqtisodiy loyihalarga tayanadi. Ilgari biz bir-birimizga raqobatchi sifatida qaragan bo‘lsak, bugun hamkorlikning mevasini totmoqdamiz. Sanoat kooperatsiyasi yangi bosqichga chiqdi. O‘zbekistonda Qozog‘iston kapitali, Qirg‘izistonda O‘zbekiston zavodlari, Tojikistonda qo‘shma tekstil korxonalari ochilmoqda. Bu nima beradi? Bu - minglab ish o‘rinlari, arzon mahsulot va eng muhimi, iqtisodiy qaramlikning ijobiy ko‘rinishidir. Bir-biriga iqtisodiy jihatdan bog‘langan davlatlar hech qachon nizo qilmaydi. Shuningdek, “yashil energetika” loyihalari - quyosh va shamol stansiyalarining qurilishi, mintaqaviy yagona energetika halqasining tiklanishi hamjamiyatning umumiy quvvatini oshirmoqda. Biz endi alohida-alohida emas, balki yagona energiya tizimi orqali global bozorga chiqish imkoniyatiga egamiz.

Markaziy Osiyo uchun eng katta muammo - ochiq dengizga chiqish imkoniyati yo‘qligi edi ya’ni biz ochiq dengiz yoki okeanga chiqish uchun ikki davlat hududidan o‘tishimiz kerak bo‘lgan dunyodagi yagona ikki davlatdan biri hisoblanamiz. Biroq, yangi model bu to‘siqni ham yengib o‘tmoqda. “Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” temir yo‘li loyihasi mintaqani sharq bilan, “Trans-afg‘on” yo‘lagi esa Janubiy Osiyo portlari bilan bog‘lamoqda. Hozirgi tahlikali zamonda dengiz va okeandagi yo‘lar o‘z ahamiyatini yoqotib bormoqda. Chunki turli xil po‘rt va dengiz yo‘llari hozirgi kunda muammoli hamda, kuchlar o‘z maqsadlari yo‘lida xizmat qiluvchi vosita qurol sifatida foydalanmoqda. Shu vaqtda quruqlikdagi yo‘llarning ahamiyati oshib bormoqda. Biz endi ‘tupik” hudud emasmiz, balki Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘lovchi asosiy ko‘prikka aylanmoqdamiz. Bu tranzit salohiyati mintaqadagi har bir davlat byudjetiga milliardlab dollar foyda keltirishi bilan birga, bizni jahon savdosining ajralmas qismiga aylantiradi. Ta’kidlash joizki, yo‘llar nafaqat yuklarni, balki madaniyatlar va yangi g‘oyalarni ham tashuvchi vositadir. Shuningdek, tranzid va savdo karidorlar geosiyosiy muhim o‘rin tutuvchi muhim obyekt sifatida ko‘rinadi.

Mintaqamizning eng nozik nuqtasi - suv resurslari. Yangi model bu masalaga yangicha yondashuvni taklif etdi: “Suv - nizolashish uchun emas, birlashish uchun”. Muzliklarning erishi va global iqlim o‘zgarishi sharoitida, transchegaraviy daryolardan foydalanishda adolatli va oqilona mexanizmlar ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston va Qozog‘istonning Qirg‘izistondagi ulkan GES qurilishlarida ishtirok etishi - mintaqaviy hamkorlikning eng cho‘qqisidir. Bu loyihalar orqali nafaqat elektr energiyasi olinadi, balki suvni tartibga solish orqali qishloq xo‘jaligidagi xavflar kamaytiriladi. Markaziy Osiyo - suv resurslari taqsimoti nuqtayi nazaridan dunyodagi eng murakkab va o‘ziga xos mintaqalardan biridir. Bu

yerda suv shunchaki qishloq xo‘jaligi resursi emas, balki mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikning asosiy ustunidir. Sirdaryo va Amudaryo - ikki ulkan daryo beshta davlatning taqdirini bir-biriga zanjirdek bog‘lab turadi. Yangi hamkorlik modeligacha bo‘lgan davrda suv masalasi davlatlar o‘rtasida “nizo olmasi” bo‘lib kelgan edi. Yuqori oqimda joylashgan Tojikiston va Qirg‘iziston uchun suv - energiya manbai bo‘lsa, quyi oqimdagi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston uchun u - ziroat va oziq-ovqat xavfsizligi demakdir. Yangi modelning inqilobiy jihati shundaki, bu ikki qarama-qarshi manfaat “o‘zaro manfaatdorlik” tamoyili asosida birlashtirildi. Endi suvni qishda to‘sib, elektr olish emas, balki yozda dalalarga suv berib, evaziga qishda energiya almashish tizimi amaliyotga qaytdi.

Markaziy Osiyo yagona energetika halqasining qayta tiklanishi - mintaqaviy hamkorlikning eng katta amaliy g‘alabasidir. Sovet davridan qolgan bu tizim parchalanganidan so‘ng, har bir davlat energetik mustaqillikka alohida erishishga urindi, ammo bu juda qimmatga tushdi va qish oylarida energetik inqirozlarni keltirib chiqardi. Bugungi yangi modelda energetika - bu yagona organizm. Agar Qirg‘izistonning suv omborlarida suv kamayib, elektr ishlab chiqarish tushsa, O‘zbekiston va Qozog‘iston unga gaz va ko‘mir orqali yordam beradi. Evaziga esa yoz oylarida qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan suv oqimi ta’minlanadi. Bu “aqlli almashinuv” modeli mintaqani tashqi energetik bosimlardan himoya qiladi va har bir xonadonning chirog‘i o‘chmasligini kafolatlaydi. Mintaqaviy hamkorlikning eng yuqori cho‘qqisi - bu ulkan gidroenergetika loyihalarining birgalikda barpo etilishidir. Ko‘p yillar davomida “Qambarota-1” (Qirg‘iziston) va “Rog‘un” (Tojikiston) GESlarining qurilishiga quyi oqim davlatlari tomonidan xavotir bilan qaralgan. “Daryolarimiz to‘silib qoladi, yerlarimiz suvsiz qoladi” degan qo‘rquvlar bor edi. Bugun esa vaziyat tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston va Qozog‘iston ushbu yirik GESlar qurilishida nafaqat rozilik berdi, balki ularga **sarmoyador sifatida** ishtirok etmoqda. Bu nima degani? Bu - Markaziy Osiyo davlatlari bir-biriga o‘z taqdirini ishonyapti degani. Bu GESlar endi faqat bir davlatniki emas, balki butun mintaqaning umumiy mulki va umumiy energiya manbaiga aylanmoqda. Bu - dunyo miqyosida kamdan-kam uchraydigan integratsiya namunasidir. Bu model - kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatimiz ramzidir. Shuningdek, Afg‘oniston bilan aloqalarimiz ham hozirgi kunda o‘z ahamiyatini ham oshirib bormoqda chunki, Afg‘oniston bilan hamkorlikda qazilgan Qo‘shtepa kanali ham yaqqol misol bo‘la oladi. Keyingi bosqich bo‘lsa Xalq diplomatiyasi va madaniy uyg‘onish hisoblanib bunda jamiyat va davlat o‘rtasidagi masofalarni kamaytirish va mintaqaviy diplomatiyani oshirishdir. Har qanday siyosiy model xalqning qo‘llab-quvvatlovisiz uzoqqa bormaydi. Markaziy Osiyo hamjamiyatining kuchi - uning oddiy odamlar hayotiga ta’siridadir. Chegaralarning ochilishi, vizasiz rejimlar, madaniyat kunlari - bularning barchasi xalqlarimiz o‘rtasidagi qarindoshlik rishtalarini qayta tikladi.

Bugun biz bir-birimizga mehmonga borishda, talaba almashishda yoki qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda hech qanday to‘siq sezmayapmiz. “Markaziy Osiyo - bizning umumiy uyimiz” degan g‘oya yoshlar ongiga chuqur singib bormoqda. Bu esa hamjamiyatning eng mustahkam poydevoridir hamda buni davlat va jamiyat qo‘llab quvvatlab bermoqda.

Ushbu ilmiy maqola davomida tahlil qilingan Markaziy Osiyo hamjamiyatining yangi modeli shunchaki iqtisodiy yoki siyosiy ehtiyoj mahsuli emas. Bu - tarixiy adolatning tiklanishidir. Asrlar davomida dunyo ilm-fani va madaniyatiga Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi daholarni bergan bu zamin, uzoq davom etgan tanaffusdan so‘ng yana o‘zining intellektual va siyosiy sub’ektligini tiklamoqda. Mintaqaviy hamkorlikning yangi modeli bizga eng muhim narsani “o‘zligimizni anglash va umumiy mas’uliyatni his qilishni” o‘rgatdi. Biz tushunib yetdikki, global o‘zgarishlar va shafqatsiz raqobat dunyosida tarqoq holda yashab qolish imkonsiz. Faqat birlashgan, bir-birini qo‘llagan va umumiy manfaatlar atrofida jipslashgan Markaziy Osiyogina dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallay oladi. Bu xulosa bizni nafaqat bugungi yutuqlar bilan faxrlanishga, balki kelajak uchun yanada jiddiyroq qadamlar tashlashga undaydi. Kelajakka nazar tashlaydigan bo‘lsak, Markaziy Osiyo hamjamiyati yaqin o‘n yillikda mutlaqo yangi qiyofaga ega bo‘ladi. Bu qiyofa - to‘siqlarsiz mintaqa qiyofasidir. Biz intilayotgan model yakunda nafaqat tovarlar va xizmatlarning erkin harakatlanishini, balki inson kapitalining, yangi g‘oyalarning va innovatsiyalarning chegarasiz almashinuvini ta’minlashi kerak.

Yangi modelning barqarorligi shundaki, u uchinchi tomonlarning bosimidan emas, balki ichki ehtiyojdan shakllandi. Bu - mustahkam immunitetdir. Kelajakda Markaziy Osiyo yirik davlatlar uchun “shaxmat taxtasi” bo‘lishni to‘xtatib, o‘zi o‘yin qoidalarini belgilaydigan, tinchlik va barqarorlik eksport qiladigan xalqaro markazga aylanadi. Mintaqaviy xavfsizlikning “bo‘linmasligi” tamoyili bizni har qanday tashqi tahdidlardan asrovchi eng qudratli qalqondir. Ushbu hamkorlik modelining haqiqiy egalari - yoshlardir. Mintaqa aholisining yarmidan ko‘pini tashkil etuvchi yosh avlod bugun bir-birini yaxshi tushunmoqda. Raqamli dunyo, umumiy ta’lim standartlari va do‘stona aloqalar yangi avlod ongu shuurida “Markaziy Osiyolik” degan g‘ururni shakllantirdi.

Biz barpo etayotgan hamkorlik modeli shunchaki quvurlar va temir yo‘llar emas, balki qalb ko‘priklaridir. Yoshlarning ilm-fan, sport va san’at sohasidagi birligi hamjamiyatning uzoq muddatli yashovchanligini ta’minlaydi. Ularning intellektual salohiyati mintaqani “xomashyo bazasi”dan “yuqori texnologiyalar markazi”ga aylantirishga qodir. Bu - bizning kelajak oldidagi eng katta hisobotimizdir. Markaziy Osiyo - bu bizning taqdirimiz. Biz bu zaminni, uning muqaddas daryolarini, osmon o‘par tog‘larini va bag‘rikeng xalqlarini alohida

tasavvur qila olmaymiz. Yangi hamkorlik modeli bizga shunday buyuk dars berdiki, unda “men” degan tushuncha “biz” degan qudratli so‘zga aylandi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Markaziy Osiyo hamjamiyati - bu tinchlik, taraqqiyot va insonparvarlikning yangi sivilizatsiyasi. Biz boshlagan bu yo‘l - qaytmas yo‘ldir. Zero, birdamlik bor joyda baraka, hamjihatlik bor joyda yuksalish bo‘ladi. Kelajak avlodlar bizni mintaqani birlashtirgan, chegaralarni do‘stlik darvozalariga aylantirgan va daryolarni qardoshlik ramzi sifatida qoldirgan avlod sifatida eslashlari uchun bugun barcha imkoniyatlarimiz mavjud. Markaziy Osiyo - bizning umumiy uyimiz va uni gullab-yashnatish bizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qushqumbayev S.K. Markaziy Osiyo integratsiya yo‘lida: geosiyosat, etniklik va xavfsizlik. — Almati: Qozog‘iston, 2002. — 198 b.

2. Laruelle M. Markaziy Osiyo: yangi geosiyosiy jarayonlar va mintaqaviy hamkorlik. — London: UCL Press, 2021. — 320 b.

3. Libman A.M. MDH va Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya tadqiqotlari. - Sankt-Peterburg: YOTB Integratsion tadqiqotlar markazi, 2012. - 57 b.

4. Lempp J., Mayer S. (eds.). Central Asia in a Multipolar World: Internal Change, External Actors, Regional Cooperation. – Cham: Springer, 2024. - 471 p.

5. Allison R., Jonson L. (eds.). Central Asian Security and Regional Cooperation. – London: Royal Institute of International Affairs, 2001. - 240 p.

MARKAZIY OSIYODAGI SUV TANQISLIGI: GEOSIYOSIY ZIDDIYATLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Rahimov H.
Diplomat University
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

Kirish. Zamonaviy Markaziy Osiyo geosiyosatida suv resurslari strategik qudrat va iqtisodiy barqarorlikning asosiy manbaiga aylandi. Sovet ittifoqi davridagi yagona energiya-suv almashinuvi tizimi inqirozga uchragach, mintaqa davlatlari o‘rtasida resurslarni taqsimlash bo‘yicha murakkab muammolar yuzaga keldi. Yuqori oqimda joylashgan Tojikiston va Qirg‘izistonning gidroenergetik ambitsiyalari hamda quyi oqimdagi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonning agrar ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Iqlim o‘zgarishi natijasida muzliklarning erishi va suv sathining kamayishi "suv xavfsizligi" tushunchasini harbiy xavfsizlik bilan teng darajaga olib chiqdi. Mazkur maqolada suv tanqisligining geosiyosiy oqibatlari va mintaqaviy integratsiya orqali ushbu inqirozdan chiqish yo‘llari o‘rganiladi.

Asosiy qism. Transchegaraviy daryolar va manfaatlar to‘qnashuvi. Markaziy Osiyodagi suv muammosi asosini Amudaryo va Sirdaryo suvlarining taqsimlanishi tashkil etadi. Yuqori oqim davlatlari qishda elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun suvni omborlarda to‘plashga harakat qilsa, quyi oqim davlatlari yozgi vegetatsiya davrida sug‘orish uchun suv talab qiladi. Suv resurslarini boshqarish – milliy chegaralardan oshib, xalqaro hamkorlik talab etadigan masala. Transchegaraviy suv obektlari 145 ta mamlakat hududini qamrab olib, dunyo aholisining 40 foizdan ko‘pi ularga bog‘liq holda yashamoqda. Zamonaviy dunyoda suv tanqisligi insoniyatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Dunyodagi toza suv zaxiralari juda noteng taqsimlangan. Amazonka havzasi, Rossiyaning Sibir mintaqasi, Kanadaning shimoliy qismi va Skandinaviya mamlakatlari suv boy mintaqalar hisoblansa, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubi-G‘arbiy Osiyo kabi mintaqalar suv tanqisligi bilan kurashmoqda. Bu notenglik ko‘plab geosiyosiy zo‘riqishlarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro suv huquqining rivojlanishi uchta asosiy bosqichni boshdan kechirdi. Birinchi bosqichda har bir davlat o‘z hududidagi suv resurslarini mustaqil ravishda boshqargan, bu transchegaraviy suv konfliktlarini keltirib chiqardi. Ikkinchi bosqichda qo‘shni mamlakatlar orasida suv taqsimoti bo‘yicha ilk ikki tomonlama kelishuvlar paydo bo‘ldi. Uchinchi bosqichda global suv muammolari kompleks yechimlar talab etishini anglab yetildi va xalqaro hamjamiyat tizimli yondashuvga o‘tdi.

1966 yilda qabul qilingan Helsinki qoidalari “adolatli va oqilona foydalanish” konsepsiyasini joriy etdi va transchegaraviy suv havzalarini yagona ekotizim sifatida e’tirof etdi. Garchi bu qoidalar majburiy kuchga ega bo‘lmasa ham, ular keyingi xalqaro huquqiy hujjatlar uchun asos bo‘ldi.

Energetika vs Irrigatsiya: Rog‘un va Qambarota GESlari kabi yirik loyihalar mintaqada ham iqtisodiy imkoniyat, ham diplomatik bahslar manbai bo‘lib kelmoqda. 2021-yil mart oyida Qirg‘iziston prezidentining O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida mamlakatlar o‘rtasida “Qambarota GES-1 qurilishi” investitsiya loyihasini hamkorlikda tayyorlash to‘g‘risidagi bitim va o‘zaro elektr energiyasi yetkazib berish bo‘yicha protokol imzolangan.

Qirg‘iziston prezidenti Sadir Japarov 2022-yil iyun oyida Qambarota GES-1 qurilishiga start bergan. Loyihaning dastlabki ishlari uchun 20 mln dollarga yaqin mablag‘ ajratilgan. Loyihaning Kanadaning SNC-Lavalin International Inc.

konsorsiumi va va Rossiyaning “Janubiy energetika muhandislik markazi” tomonidan ishlab chiqilgan texnik-iqtisodiy asosiga ko‘ra, GES qurilishi uchun 2014-yil narxlarida 2,9 mlrd dollar talab etilgan. Shuningdek, 13-aprel kuni Qirg‘iziston rahbari loyiha xarajatlari 5−6 mlrd dollarni, o‘zini oqlash muddati esa 13−15 yilni tashkil etishini ta’kidlagan.

Bo‘lajak GESning quvvati 1860 MVtni tashkil qiladi. GESning suv ombori hajmi 5,4 milliard kub metr, to‘g‘on balandligi 256 metr. Stansiya yiliga o‘rtacha 5,6 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. GESning qurilishi 10 yil davom etishi kutilmoqda, jumladan, birinchi gidroagregat to‘rt yildan so‘ng foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston energetika vaziri Jo‘rabek Mirzamahmudov, Qozog‘iston energetika vaziri Bolat Akchulakov va Qirg‘iziston energetika vaziri Taalaybek Ibrayev 2023-yil yanvar oyida Bishkek shahrida Qambarota GES-1 qurilishi loyihasini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasini imzolagandi. Birmuncha vaqt o‘tgach, qurilish bo‘yicha investitsiya shartnomasi imzolangan.

2024-yil aprel oyida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston hukumatlarining Qambarota GES-1 qurilishi bo‘yicha qo‘shma kompaniya tuzish rejalari haqida ma’lumot berilgandi. Qiymati 5−6 milliard dollarga baholangan loyiha amalga oshirilgach, stansiyaning aksiyalari va aktivlari Qirg‘iziston mulkiga o‘tadi.

2024-yil iyun oyida esa O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston Energetika vazirliklari Qambarota GES-1 qurilishi va ekspluatatsiyasi loyihasini amalga oshirishga tayyorgarlik bo‘yicha uch tomonlama bitim imzolagandi.

Afg‘oniston omili: So‘nggi yillarda Qo‘shtepa kanali qurilishi bilan mintaqaviy suv balansiga yangi, prognoz qilinishi qiyin bo‘lgan ishtirokchi qo‘shildi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 15-sentyabr kuni Dushanbeda o‘tgan Xalqaro Orolni qutqarish jamg‘armasi (XOQJ) sammitida bu borada quyidagicha fikr bildirgan edi: “Bizning mintaqamizda suv resurslaridan foydalanish jarayoniga yangi ishtirokchi qo‘shildi. Ammo u bizning davlatlarimiz oldida hech qanday majburiyatni zimmasiga olmagan”.

O‘zbekiston hukumatining fikricha, Amudaryo suvlaridan foydalanish bo‘yicha har qanday yangi loyiha butun Markaziy Osiyoning suv balansi va rejimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Afg‘oniston hukumati esa Qo‘shtepa kanali hech qanday xavf tug‘dirmasligini ta’kidlamoqda. Kobul ma’muriyatiga ko‘ra, mamlakat Amudaryo havzasidan uncha ko‘p suv olmaydi, shu bois bu loyiha mintaqaviy suv taqsimotiga katta ta’sir ko‘rsatmaydi. O‘zbekiston Prezidenti bayonotiga javoban, Afg‘oniston Muvaqqat suv va energetika vaziri Abdul-Latif Mansur quyidagicha fikr bildirgan: “O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amudaryo suvlari va Qo‘shtepa kanali bo‘yicha xavotirlari faqat biz xalqaro shartnomalarni

buzganimizdagina o‘rinli bo‘lar edi. Ammo biz hech qanday majburiyatni zimmamizga olmaganmiz. Chunki shartnoma yo‘q. Shunday ekan, o‘zimiz to‘g‘ri deb bilgan ishni qilamiz”. Afg‘oniston shimoliy hududlarida sug‘orish tizimini rivojlantirish 1970-yillarda Prezident Muhammad Dovud davrida ham muhokama qilingan edi.

Suv tanqisligining geosiyosiy oqibatlari. Suv resurslari uchun raqobat mintaqaviy xavfsizlikka quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi:

Chegaradagi nizolar: Suv taqsimoti punktlari atrofida yuzaga keladigan lokal nizolar davlatlararo qurolli to‘qnashuvlargacha borib yetishi xavfi mavjud.

Migratsiya va ijtimoiy beqarorlik: Orolbo‘yi hududidagi ekologik fojia va suv yetishmasligi aholining ichki va tashqi migratsiyasini kuchaytirib, iqtisodiy yukni oshirmoqda.

Tashqi kuchlar ta’siri: Suv muammosi xalqaro aktorlarning (Xitoy, Rossiya, AQSH) mintaqaga kirib borishi va o‘z ta’sirini o‘tkazishi uchun dastak bo‘lib xizmat qilishi mumkin. O‘zbekiston prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi davomida Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari va suv resurslarining taqchilligi masalalariga to‘xtaldi.

Prezident obora o‘tkir tus olayotgan iqlim o‘zgarishi muammolariga alohida to‘xtaldi. Jumladan, Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari jahon hamjamiyatining doimiy diqqat markazida bo‘lishi lozimligi aytildi. O‘zbekiston Orolbo‘yi ekotizimini qayta tiklash bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirmoqda. So‘nggi yillarda dengizning qurigan tubida 2 million gektar maydonda sho‘rga chidamli cho‘l o‘simliklari ekilib, 2030-yilgacha ushbu hududning 80 foiz qismida yashil qoplamalar hosil qilinishi aytildi.

Yana bir muhim muammo – bu suv resurslarining taqchilligidir. Hozirda dunyo aholisining ikki milliarddan ortig‘i toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega emas.

“Biz mamlakatimizda Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumini o‘tkazishni rejalashtirganmiz. Mazkur anjuman yakunlari bo‘yicha Suv inqirozini barqaror taraqqiyot uchun jiddiy tahdid sifatida belgilash mo‘ljallanmoqda.

Ekologik o‘zgarishlarning yana bir salbiy ko‘rinishi – iqlim migratsiyasining kuchayib borayotganidir. Afsuski, ushbu yo‘nalishda aniq xalqaro mexanizmlar va huquqiy baza hanuzgacha yaratilmagan. Biz bu jiddiy masalada keng xalqaro sheriklik va muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish bo‘yicha Global pakt qabul qilish tarafdorimiz”, — dedi prezident.

Texnologik innovatsiyalar va resurslarni boshqarish. Xususiy sektor va xalqaro investitsiyalar suv tanqisligini yumshatishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi:

Aqlli sug‘orish: Isroil va Germaniya texnologiyalari asosida tomchilatib sug‘orishni joriy etish suv sarfini 40-50% gacha qisqartirish imkonini beradi.

Raqamlashtirish: Daryo oqimi va suv omborlarini masofaviy monitoring qilish (Smart Water) tizimlari shaffoflikni ta’minlaydi va ishonchsizlik darajasini kamaytiradi.

Xulosa. Markaziy Osiyodagi suv tanqisligi faqatgina texnik yoki iqlimiy muammo emas, balki chuqur siyosiy va diplomatik yondashuvni talab qiladigan geosiyosiy jarayondir. Mintaqa davlatlari suvni "ayirish vositasi" emas, balki "birlashtiruvchi resurs" sifatida ko‘rishi zarur.

Gidro-diplomatiya mexanizmlarini takomillashtirish, suvni tejaydigan innovatsiyalarni birgalikda moliyalashtirish va Afg‘onistonni ham o‘z ichiga olgan umumiy huquqiy bazani yaratish barqaror rivojlanishning yagona yo‘lidir. Kelajakda mintaqaviy xavfsizlik Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy suv resurslarini qanchalik oqilona taqsimlay olishiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanish Dasturi (UNDP). (2023). Water Security in Central Asia.

2. Jahon Banki. The Economics of Water Scarcity in Middle East and Central Asia, 2024.

3. Mirziyoyev Sh. M. (2023). Orol dengizi qurishining oqibatlari va suvni tejash strategiyalari bo‘yicha nutq.

4. Siegfried, T., et al. (2012). Will Central Asia run dry? With implications for regional security.

5. International Crisis Group. (2024). Central Asia’s Water Wars: Myths and Realities.

6. Qosimov, A. Gidro-diplomatiya va mintaqaviy hamkorlik asoslari. T.: TDSHU, 2021.

O‘ZBEKISTON-AFG‘ONISTON MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI

Nurullayev A.
Diplomat University
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

Kirish. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyo mintaqasi o‘zining geostrategik joylashuvi bilan global kuchlarning diqqat markazida bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonda Afg‘oniston masalasi mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida ko‘riladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelgan ilk kunlardanoq "Afg‘oniston

biz uchun xavf-xatar manbai emas, balki strategik imkoniyatlar mamlakati" degan tamoyilni ilgari surdi. Ma’lumki, Afg‘onistondagi barqarorliksiz Markaziy Osiyoning dengiz portlariga chiqishi va yirik tranzit loyihalarini amalga oshirishi imkonsizdir. Shu bois, bugungi kunda Toshkent va Qobul o‘rtasidagi aloqalar yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Bu bosqich faqatgina gumanitar yordam ko‘rsatish bilan cheklanib qolmay, balki o‘zaro manfaatli yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, Afg‘onistondagi murakkab siyosiy vaziyatga qaramasdan, O‘zbekiston tomoni muloqotni davom ettirayotgani va iqtisodiy bog‘liqlik orqali tinchlikka erishish modelini taklif qilayotganidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida kompleks va ko‘p qirrali yondashuv tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida o‘rganilayotgan ob’ekt - O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlari faqatgina ikki tomonlama aloqalar sifatida emas, balki global va mintaqaviy geosiyosiy jarayonlarning ajralmas qismi sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishda qo‘llanilgan tizimli yondashuv (systematic approach) O‘zbekistonning Afg‘oniston bo‘yicha tashqi siyosiy strategiyasini yaxlit bir mexanizm sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi. Bunda siyosiy muloqot, iqtisodiy diplomatiya va gumanitar hamkorlik o‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlar sifatida talqin etildi. Qiyosiy tahlil metodi orqali Afg‘onistondagi hokimiyat almashinuvigacha (2021-yil avgust) va undan keyingi davrdagi munosabatlar dinamikasi solishtirildi. Shuningdek, statistik ma’lumotlarni interpretatsiya qilish va ekstrapolyatsiya metodlari yordamida savdo aylanmasining o‘sish sur’atlari va transport yo‘laklarining samaradorligi prognoz qilindi. Tadqiqotning empyrik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy hisobotlari, shuningdek, xalqaro moliya institutlarining (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) mintaqaviy loyihalar bo‘yicha bergan ekspertlik xulosalari tashkil etdi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida o‘zbek va xorijiy olimlarning qarashlari o‘zaro muvofiqlashtirildi. O‘zbekistonlik olimlardan Sh. Mustafayevning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo xavfsizligiga Afg‘oniston omilining ta’siri konseptual jihatdan yoritilgan bo‘lib, u mintaqaviy integratsiyani xavf-xatarlarni jilovlashning asosiy vositasi sifatida ko‘rsatadi. S. Safoyevning ishlarida esa O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy doktrinasida "yaxshi qo‘shnichilik" tamoyilining amaliy ifodasi va Afg‘onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb etishning strategik ahamiyati asoslab berilgan. E. Oripov tomonidan olib borilgan tahlillar Afg‘onistondagi etnosiyosiy jarayonlarning O‘zbekiston milliy manfaatlariga ta’sirini tushunishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Xalqaro miqyosda Afg‘oniston masalasi bo‘yicha yetakchi ekspert Barnet Rubinning nazariyalari diqqatga sazovordir. U Afg‘onistonni "mintaqaviy izolyatsiyadan chiqarish" g‘oyasini ilgari surib, mamlakatning barqarorligi qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy bog‘liqligiga bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi. Shuningdek, taniqli amerikalik tadqiqotchi Frederick Starr tomonidan ishlab chiqilgan "Katta Markaziy Osiyo" (Greater Central Asia) konsepsiyasi mazkur maqola uchun nazariy poydevor bo‘ldi. Starrning fikricha, Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi transport koridorlari Afg‘onistonni "mojaro markazi"dan "savdo chorrahasi"ga aylantirishning yagona yo‘lidir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavzu bo‘yicha mavjud adabiyotlarda ko‘proq xavfsizlik masalalariga urg‘u berilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillardagi "iqtisodiy pragmatizm" va transport-logistika integratsiyasi masalalari yangi tadqiqotlarni talab etadi. Aynan mana shu jihat ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi. Davlatlararo imzolangan strategik yo‘l xaritalari va investitsiyaviy kelishuvlar tahlili orqali biz nafaqat bugungi holatni, balki kelgusi 5-10 yillikdagi geosiyosiy konfiguratsiyani modellashtirishga harakat qildik.

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichi nafaqat siyosiy muloqotning institutsionallashuvi, balki o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikning yangi modeliga o‘tilganligi bilan tavsiflanadi.

Afg‘oniston bilan Iqtisodiy hamkorlik, Qo‘shtepa-hamkorlikdagi to‘siq yoki sinov. Agar Qo‘shtepa to‘liq ishga tushsa O‘zbekiston paxta eksporti 15% ga kamayishi mumkun,Tolibon tan olinmagan bo‘lsadi Qo‘shtepa kanali ularni siyosatda muzokaralar stoligan olib chiqdi.Surxandaryoda fermerlar Qo‘shtepa tufayli tomchilab sug‘orishga o‘tmoqda,O‘zbekiston bugun Qo‘shtepa tufayli emas,balki uning tasirini yumshatish uchun 2,6 million gektar yerga suv tejovchi texnalogiyalar joriy qilgan. So‘nggi yillarda Toshkentning Afg‘onistonga nisbatan yuritayotgan tashqi siyosiy kursi "xavfsizlikni iqtisodiy taraqqiyot orqali ta’minlash" tamoyiliga tayanmoqda. 2023-2024-yillarda erishilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi dinamik o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich yaqin istiqbolda 2 milliard AQSH dollariga yetkazish maqsad qilingan. O‘zbekistonning Afg‘oniston bozoridagi ulushi, ayniqsa, energetika, qishloq xo‘jaligi va qurilish materiallari sohasida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Eksport tarkibining tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tomonidan yetkazib berilayotgan un va un mahsulotlari, o‘simlik yog‘i hamda mineral o‘g‘itlar Afg‘onistonning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda asosiy drayver bo‘lib xizmat qilmoqda.

1-jadval: O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari

Koʻrsatkichlar nomi	2021-yil	2023-yil	2024-yil (prognoz)	Oʻsish surʼati (%)
Umumiy tovar ayirboshlash (mln. $)	650.7	866.5	1 100.0	69%
Eksport hajmi (mln. $)	640.2	845.5	1 050.0	64%
Import hajmi (mln. $)	10.5	21.0	50.0	376%
Elektr energiyasi eksporti (mlrd. kVt/s)	2.1	2.5	3.0	42%

Iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichida transport-logistika masalalari markaziy oʻrinni egallamoqda. Xususan, "Termiz – Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar" trans-afgʻon temir yoʻli loyihasi mintaqaviy integratsiyaning mutlaqo yangi sahifasini ochadi. Ushbu loyiha nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy Osiyo davlatlari uchun Pokistonning "Karachi", "Qosim" va "Gvadar" portlariga chiqish imkonini beruvchi eng qisqa trans-mintaqaviy yoʻlak hisoblanadi. Hisob-kitoblarga koʻra, mazkur yoʻlning ishga tushishi yuk tashish muddatini hozirgi 30-35 kundan 10-15 kungacha qisqartiradi hamda transport xarajatlarini sezilarli darajada (kamida 35-40 foizga) arzonlashtiradi. Bu esa, oʻz navbatida, Oʻzbekistonning tashqi savdo balansiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, mamlakatimizning tranzit salohiyatini yiliga 20 million tonnagacha oshirish imkonini beradi.

2-jadval: Strategik infratuzilma loyihalarining iqtisodiy samaradorligi tahlili

Loyiha va obyekt nomi	**Strategik ahamiyati**	**Kutilayotgan natija**	**Moliyalashtirish manbasi**
Termiz Xalqaro savdo markazi	Erkin savdo va logistika xabi	Kunlik 3000 afgʻon tadbirkorini qabul qilish	Milliy va xorijiy investitsiya
Trans-afgʻon temir yoʻli	Okean portlariga chiqish	Yuk tashish xarajatining 40% ga kamayishi	Xalqaro konsorsium
Surxon – Puli-Xumri L-500	Energetika eksporti	Eksport hajmining 70% ga oshishi	Oʻzbekiston va ADB

Muhokamalarning yana bir muhim jihati — gumanitar va taʼlim sohasidagi hamkorlikdir. Termiz shahridagi Afgʻoniston fuqarolarini oʻqitish taʼlim markazi bugungi kunda afgʻon yoshlari uchun oʻziga xos bilim maskaniga aylandi. Bu yerdagi taʼlim jarayonlari nafaqat texnik mutaxassislarni tayyorlash, balki ikki xalq oʻrtasidagi "madaniy diplomatiya"ni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Afgʻonistonning energetika mustaqilligini taʼminlashga qaratilgan

"Surxon – Puli-Xumri" elektr uzatish tarmog‘i qurilishi nafaqat iqtisodiy loyiha, balki ijtimoiy barqarorlik omili sifatida ham baholanishi kerak. Chunki barqaror energiya ta’minoti Afg‘onistonda kichik biznesning rivojlanishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishi uchun zaruriy shartdir. O‘zbekistonning ushbu pragmatik yondashuvi dunyo hamjamiyati tomonidan Afg‘onistondagi inqirozni yumshatishning eng samarali yo‘li sifatida e’tirof etilmoqda.

Xulosa. Birinchidan, O‘zbekistonning Afg‘oniston borasidagi siyosati mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lib, milliy manfaatlarga va mintaqaviy yaxlitlikka asoslangan. Toshkent Qobul bilan muloqot o‘rnatish orqali Afg‘onistonning mintaqadan yakkalanib qolishining oldini olmoqda, bu esa radikallashuv xavfini kamaytiradi.

Ikkinchidan, Afg‘oniston orqali o‘tadigan transport yo‘laklari O‘zbekiston uchun “quruhlikdagi mahbus” (land-locked) holatidan chiqishning eng qisqa yo‘lidir. Trans-afg‘on temir yo‘lining ishga tushishi yuk tashish xarajatlarini 30-40 foizga kamaytirib, mamlakatimiz eksport salohiyatini keskin oshiradi.

Uchinchidan, gumanitar hamkorlik - munosabatlarning ma’naviy poydevoridir. Termizdagi afg‘on fuqarolarini o‘qitish markazi faoliyati va muntazam yuborilayotgan yordam karvonlari o‘zbek xalqining tinchlikparvar siyosatini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlarining yangi bosqichi “geosiyosiy raqobatdan mintaqaviy hamkorlikka” tamoyili ostida rivojlanmoqda. Bu hamkorlikning muvaffaqiyati nafaqat ikki davlat, balki Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo iqtisodiyotlarini bir-biriga bog‘lovchi "oltin ko‘prik" vazifasini o‘taydi. Kelgusida xalqaro hamjamiyatning ham bu jarayondagi faolligini oshirish, loyihalarni moliyalashtirishda ko‘p tomonlama hamkorlikni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 464 б.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 326-b.

3. Ahmedov A. Markaziy Osiyo va Afg‘oniston: iqtisodiy integratsiya masalalari. – Samarqand: Sharq, 2022. – 89-94-b.b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. – Tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha yillik hisobot. – Toshkent: Davlat statistika qo‘mitasi, 2023. – B. 45.

5. Starr F. Central Asia’s Role in Global Connectivity. – Washington: Central Asia-Caucasus Institute, 2020. - P. 112.

6. O‘zbekiston Suv xo‘jaligi vazirligi hisobotlari, ”Eurasianet”, ”RFE/RL” mintaqaviy xabarlari.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MINTAQAVIY HAMKORLIK HAMDA INTEGRATSIYAGA OID QARASHLAR

Rakhmatillayeva G.
Diplomat University
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

Ilmiy rahbar ***Berdikulov M.***
“Ijtimoiy va siyosiy fanlar” kafedrasi mudiri
Diplomat University
Toshkent, O‘zbekiston

Kirish. Bugungi kunda global siyosiy va iqtisodiy beqarorlik sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasining strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mintaqa davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik va integratsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiy farovonlik, balki xavfsizlikni ta’minlashning bosh omili sifatida qaraladi. So‘nggi yillarda mintaqaviy muloqotning yangi bosqichga ko‘tarilishi, davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarining muntazamlik kasb etishi mazkur mavzuni ilmiy jihatdan qayta tahlil qilishni taqazo etmoqda.

Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish, mintaqaviy sheriklikka to‘siq bo‘layotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur tadqiqot mintaqaviy birlikni mustahkamlash bo‘yicha mavjud qarashlarni tizimlashtirish va istiqboldagi geopolitik o‘zgarishlarni prognoz qilishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorlik va integratsiya borasidagi zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonlarning barqaror rivojlanishga ta’sirini baholashdan iborat.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosat strategiyalaridagi mintaqaviy ustuvorliklarning qiyosiy tahlili;

- Integratsiya jarayonlariga ta’sir qiluvchi siyosiy va iqtisodiy omillarni aniqlash;
- Mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bugungi globallashuv davrida hech bir davlat yakka holda rivojlana olmaydi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo kabi geografik jihatdan o‘zaro bog‘liq mintaqada davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, integratsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlarida mintaqaviy hamkorlikning nazariy asoslari va rivojlanishi. Zamonaviy siyosatshunoslikda mintaqaviy hamkorlik hodisasi nafaqat

davlatlararo muloqot, balki mintaqaviy institutni shakllantirish jarayoni sifatida ham talqin qilinadi. Integratsiyaning “funksionalizm” va “neofunksionalizm” nazariyalari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ularning fikriga ko‘ra, iqtisodiy sohada kichik ko‘lamli texnik hamkorlik (o‘zaro ta'sir effekti orqali) vaqt o‘tishi bilan yuqori darajadagi siyosiy integratsiyaga olib keladi.

Markaziy Osiyo kontekstida “Yangi mintaqaviyizm” yondashuvi ham muhimdir. Bu yondashuv nafaqat davlat darajasida, balki fuqarolik jamiyati, biznes tuzilmalari va madaniy-gumanitar platformalarni integratsiyalash orqali ham hamkorlikni ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Mintaqaning tashqi siyosati vektori asosan uning geosiyosiy konfiguratsiyasi bilan belgilanadi. Markaziy Osiyo - bu dunyodagi eng katta okeanlardan uzoqda joylashgan “bebaho mintaqah”, bu mutaxassislar tomonidan “geografik jihatdan bebaho” deb ta’riflanadi. Biroq, zamonaviy sharoitlarda bu kamchilik “Markaziy Osiyo aloqasi” konsepsiyasi orqali strategik ustunlikka aylanadi.

Mintaqaviy xavfsizlik nuqtai nazaridan “Kreditlash” nazariyasi muhimdir. Ya’ni, mintaqa mamlakatlari suv resurslari, chegara muammolari va ekstremizm kabi masalalarni umumiy tahdid sifatida qabul qiladilar va ularga kollektiv javob strategiyasini ishlab chiqadilar.

Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining rivojlanishini quyidagi ilmiy bosqichlarga bo‘lish mumkin: Institutsional tadqiqotlar davri (1991–2000): Bu bosqichda mintaqaviy birlikni ta’minlaydigan birinchi imtiyozli savdo shartnomalari va siyosiy deklaratsiyalar qabul qilindi.

Geosiyosiy dezintegratsiya va milliy ustuvorliklar davri (2000–2016) Mazkur bosqichda mintaqaviy arxitekturaning tizimli “markazsizlashuvi” (de-sentralizatsiyasi) kuzatildi. Markaziy Osiyo subregionida davlatlarning milliy-strategiya manfaatlari kollektiv mintaqaviy integratsiya maqsadlaridan ustunlik qilishi natijasida ko‘p tomonlama hamkorlik dinamikasi pasaydi. Geosiyosiy fragmentatsiya jarayonlari ko‘plab transchegaraviy va mintaqaviy iqtisodiy loyihalarning turg‘unlik (statsionar) holatiga kelib qolishiga sabab bo‘ldi. Davlatlarning tashqi siyosiy yo‘nalishlaridagi divergent tendensiyalar mintaqaviy yaxlitlikka asoslangan ko‘p tomonlama hamkorlik formatlarining funksional samaradorligini cheklab qo‘ydi.

Strategik konvergentsiya va “sinergetik integratsiya” bosqichi (2017-yildan hozirgi davrgacha): Hozirgi evolyutsion bosqichda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida hamkorlikning "sinergiya effekti" va strategik o‘zaro bog‘liqlik tendensiyalari ustuvorlik qilmoqda. Mintaqa davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formatining institutsionallashuvi "mintaqaviy eksklyuzivlik" (regional exclusivity) doktrinasini mustahkamladi. Ushbu prinsip tashqi geosiyosiy subyektlarning aralashuvisiz, subregional muammolarni ichki siyosiy-huquqiy

resurslar va konsensus asosida hal qilish paradigmasini ifodalaydi. Bu davrda mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda davlatlarning pozitsiyalari konvergentsiyasi (yaqinlashuvi) kuzatilib, kollektiv subyektlik maqomi yuksalib bormoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya jarayonlarining zamonaviy holati va istiqbollari kontseptual jihatdan milliy iqtisodiy tizimlarning o‘zaro moslashuvi hamda iqtisodiy determinatsiya tamoyillariga asoslangan institutsional birlashuv jarayoni sifatida tavsiflanadi. Akademik nuqtai nazardan, mazkur jarayon subregion davlatlarining xo‘jalik yuritish subyektlari o‘rtasidagi strukturaviy bog‘liqliklarning chuqurlashuvi va makroiqtisodiy muvofiqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan tizimli transformatsiyadir.

Markaziy Osiyo uchun mintaqaviy integratsiya shunchaki subyektiv siyosiy iroda mahsuli bo‘lmay, balki global iqtisodiy turbulentlik sharoitida “sinergetik effect” hosil qilish orqali mintaqaning kollektiv raqobatbardoshligini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ob’ektiv zaruriyatdir. Mazkur konvergensiya jarayonlari resurslarni optimallashtirish, transchegaraviy iqtisodiy koridorlarni modernizatsiya qilish va mintaqaviy bozorning investitsion jozibadorligini oshirishda fundamental strategik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mintaqaviy yaqinlashuvning asosiy ahamiyati “iqtisodiy masshtab samaradorligi” (economies of scale) bilan izohlanadi. Kichik va tarqoq bozorlarning yagona iqtisodiy makonga aylanishi transmilliy korporatsiyalar uchun mintaqaning jozibadorligini oshiradi. Shuningdek, integratsiya “kollektiv chidamlilikni” (collective resilience) ta’minlab, global inqirozlar davrida ichki bozorni tashqi shoklardan himoya qiladi.

1-rasm.

Mintaqaviy integratsiya jarayonlarida sohalar kesimidagi ustuvorliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy hamkorlik (35%) va xavfsizlik masalalari (25%) eng yuqori ahamiyatga ega (1-rasmga qarang). Bu esa Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyaga nisbatan pragmatik yondashuvda ekanligini anglatadi.

Mintaqa davlatlarining tashqi aloqalari “ko‘pvektorli diplomatiya” va “assimetrik integratsiya” tamoyillari asosida qurilgan. Bugungi kunda quyidagi platformalar mintaqaviy dinamikaga ta’sir ko‘rsatmoqda:

Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YII): Bu tuzilma doirasida tovar va ishchi kuchining harakatlanishi “transchegaraviy iqtisodiy modellari”ni shakllantirdi. Biroq, a’zo davlatlarning suveren manfaatlari va ittifoqning umumiy qoidalari o‘rtasidagi muvozanat muhim ilmiy bahs mavzusi bo‘lib qolmoqda.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT): Mazkur tuzilma mintaqada “madaniy-sivilizatsion integratsiya” drayveri sifatida chiqmoqda. TDT doirasidagi transport-logistika loyihalari (masalan, “Lajuvard yo‘li”) mintaqaning tranzit diversifikatsiyasini ta’minlaydi.

C5+1 formatlari: Bu platformalar Markaziy Osiyoning xalqaro maydondagi “subyektlik darajasi”ni oshirib, mintaqani yirik geosiyosiy markazlar bilan teng huquqli muloqot qilish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Zamonaviy integratsiya jarayonlari bir qator “strukturaviy to‘siqlar” va potensial o‘sish nuqtalariga ega.

Mintaqaviy identifikatsiya: Ta’lim va madaniyat sohasidagi almashinuvlar orqali yangi avlod ongida “Markaziy Osiyo – umumiy uy” konsepsiyasini mustahkamlash.

2-rasm.



Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlariga ta’sir etuvchi omillar 299chida siyosiy va iqtisodiy jihatlar yetakchi o‘rin tutadi (jami 60%). Shuningdek, geosiyosiy omillarning 20%lik ulushi mintaqadagi integratsiya jarayonlariga tashqi kuchlarning ta’siri hamon yuqori ekanligidan dalolat beradi (2-rasmga qarang).

Rasmdagi ma’lumotlarning qisqacha tahlili:

Siyosiy va iqtisodiy (30% + 30%): Integratsiyaning taqdiri davlatlarning siyosiy irodasi va iqtisodiy manfaatlariga bog‘liq.

Geosiyosiy (20%): Global kuchlarning mintaqadagi manfaatlari integratsiya tezligiga ta’sir qiladi.

Transport (12%): Logistika imkoniyatlari hamkorlikning muhim texnik qismidir.

Madaniy (8%): Umumiy tarix va madaniyat integratsiya uchun yumshoq kuch (soft power) vazifasini o‘taydi.

Mintaqaviy integratsiya jarayonlarining dolzarb muammolari va istiqbolli yo‘nalishlari. Mintaqaviy yaqinlashuv jarayoni bir qator “ekzogen” (tashqi) va “endogen” (ichki) to‘siqlarga duch kelmoqda. Ularning tahlili quyidagi tizimli muammolarni ko‘rsatadi:

Siyosiy to‘siqlar: Bu muammolar tabiiy holat bo‘lib, ko‘plab mintaqalarda ham uchraydi. Muhimi, davlatlar o‘zaro muloqot va ishonch orqali ushbu to‘siqlarni bosqichma-bosqich hal qilib bormoqda. Davlatlarning suveren manfaatlari va mintaqaviy majburiyatlari o‘rtasidagi “manfaatlar dissonansi”. Ayrim hollarda milliy ambitsiyalar mintaqaviy strategik maqsadlardan ustun kelishi kuzatiladi. Shuningdek, chegaraoldi hududlarini demarkatsiya va delimitatsiya qilish jarayonining to‘liq yakunlanmagani siyosiy ishonch darajasiga ta’sir etuvchi omildir.

Iqtisodiy ziddiyatlar: Mintaqa davlatlari eksportining asosan xomashyo yo‘nalishiga qaratilgani va mahsulotlarning o‘xshashligi (parallel iqtisodiyot) o‘zaro raqobatni kuchaytiradi. Bu esa “geoiqtisodiy fragmentatsiya”ga, ya’ni iqtisodiy jihatdan tarqoqlikka olib keladi.

Infratuzilmaviy nomutanosiblik: Transport yo‘laklarining texnik holati va bojxona-tarif siyosatidagi farqlar tovar aylanmasi oldidagi asosiy “notarif to‘siqlar” bo‘lib qolmoqda.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik tushunchasi “bo‘linmas xavfsizlik” tamoyiliga asoslanishi lozim. Integratsiya nafaqat iqtisodiy foyda, balki quyidagi yo‘nalishlarda barqarorlik kafolati bo‘lib xizmat qiladi:

Kooperativ xavfsizlik modeli: Terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlarning razvedka va huquq-tartibot organlari o‘rtasidagi “vertikal va gorizontal muvofiqlashuvi”.

Ekologik va suv xavfsizligi: Transchegaraviy daryolardan foydalanishda “gidrodiplomatiya” mexanizmlarini joriy etish. Bu boradagi integratsiya suv resurslarini siyosiy bosim vositasidan hamkorlik instrumentiga aylantiradi.

Ijtimoiy barqarorlik: Mehnat migratsiyasini tartibga solish va ta’lim sohasidagi almashinuvlar mintaqada ijtimoiy keskinlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Integratsiya jarayonini “deklarativ” holatdan “pragmatik” bosqichga o‘tkazish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Institutsional islohotlar: Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini doimiy ishlovchi “Mintaqaviy hamkorlik kotibiyati” sifatida institutsionallashtirish. Bu qarorlar ijrosini nazorat qilish mexanizmini yaratadi.

Yagona iqtisodiy hudud sari: To‘siqlarsiz savdo rejimini joriy etish va “Markaziy Osiyo sanoat kooperatsiyasi” markazlarini tashkil qilish. Bunda xomashyoni emas, balki yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotni birgalikda eksport qilish nazarda tutiladi.

Raqamli integratsiya xabi: Yagona mintaqaviy raqamli makon va “Big Data” platformasini yaratish orqali logistika va bojxona jarayonlarini to‘liq optimallashtirish.

Xalq diplomatiyasini kuchaytirish: Mintaqa davlatlari o‘rtasida vizasiz rejimni yanada soddalashtirish va “Markaziy Osiyo ta’lim makoni” (masalan, mintaqaviy universitetlar konsorsiumi)ni yaratish.

3-rasm.

Samarali mintaqaviy integratsiya mexanizmlarini yaratish orqali Markaziy Osiyo davlatlari strategik ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishishlari mumkin. Xususan, yagona energiya tizimi va qo‘shma xavfsizlik choralarining kuchaytirilishi mintaqaviy barqarorlik va investitsiyaviy jozibadorlikning oshishiga xizmat qiladi (3-rasm).

Xulosa. Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonlarini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Mintaqaviy subyektlikning oshishi: Zamonaviy bosqichda Markaziy Osiyo davlatlari tashqi kuchlarning vositachiligisiz, ichki muammolarni mustaqil hal etishga qodir bo‘lgan yaxlit geosiyosiy subyekt sifatida shakllanmoqda. Maslahat uchrashuvlari formati mintaqada siyosiy ishonchning yangi darajasini belgilab berdi.

Pragmatizmning ustuvorligi: Tadqiqot va infografik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy integratsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi iqtisodiy manfaatlar (35%) va xavfsizlik (25%) omillaridir. Davlatlar abstrakt g‘oyalardan ko‘ra, transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish, suv-energetika balansini saqlash

va o‘zaro savdo aylanmasini oshirish kabi konkret pragmatik maqsadlarni birinchi o‘ringa qo‘ymoqdalar.

Institutsional bo‘shliqlarni to‘ldirish zaruriyati: Hamkorlik jarayonlarida hali ham tizimli to‘siqlar — bojxona va tarif cheklovlari, texnik standartlarning turlichaligi va siyosiy ambitsiyalarning to‘qnashuvi mavjud. Bu muammolarni hal etish uchun mintaqaviy hamkorlikni deklarativ darajadan institutsional darajaga o‘tkazish, ya’ni doimiy ishlovchi muvofiqlashtiruvchi tuzilmalarni yaratish lozim.

Kompleks xavfsizlik konsepsiyasi: Markaziy Osiyoda xavfsizlik nafaqat harbiy-siyosiy barqarorlik, balki ekologik, energetik va raqamli xavfsizlikni ham o‘z ichiga olgan holda ta’minlanishi zarur. Bunda “Bir makon, bir yo‘l” va “Yevroosiyo” kabi tashqi integratsion tashabbuslar mintaqaning ichki birligiga zid kelmasligi, balki uni to‘ldirishi lozim.

Amaliy takliflar:

- Mintaqaviy sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish orqali “Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan” brendi ostida qo‘shma mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarish;
- Transport-logistika tizimini raqamlashtirish va “yashil yo‘laklar”ni kengaytirish;
- Ilm-fan va ta’lim sohasida integratsiyani kuchaytirib, mintaqaning umumiy intellektual makonini yaratish.
- Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasidagi almashinuv dasturlarini ko‘paytirish, talabalar uchun qo‘shma ta’lim loyihalarini tashkil etish ham integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Chunki kelajak avlod aynan shu munosabatlarni davom ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo integratsiyasi — bu tabiiy-tarixiy zaruriyat bo‘lib, uning muvaffaqiyati davlatlarning siyosiy irodasi va mintaqaviy mas’uliyatni his qilishiga bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish nafaqat bugungi kun,balki kelajak uchun ham muhim ahamiyatga ega. Integratsiya – bu tanlov emas, balki zaruratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464-b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Ostona shahridagi oltinchi maslahat uchrashuvidagi nutqi (2024-yil, avgust). // https://president.uz

3. Bjezinskiy Z. Buyuk shaxmat taxtasi: Amerikaning hukmronligi va uning geostrategik majburiyatlari (A. Fayzullayev tarj.). – Toshkent: Akademiya, 2005.

4. Abdullayev A. (2023). Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya: muammo va istiqbollar. // Xalqaro munosabatlar, 2023. №2. – Б. 45–58.

5. World Bank. (2024). Regional Integration in Central Asia: Current State, Challenges, and Prospects. World Bank Group. https://www.worldbank.org

6. Xalfa AI. (2026). Markaziy Osiyo davlatlarida mintaqaviy hamkorlik infografik tahlili. [Ma'lumotlar to'plami].

CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND MODEL OF THE CENTRAL ASIAN COMMUNITY

Akhmedov D.
Diplomat University
International Relations program student
Tashkent, Uzbekistan

Introduction. In today's era of globalization, interdependence among states is becoming increasingly stronger. In the modern international system, no state can achieve sustainable development entirely on its own. For this reason, regional cooperation has become an important direction of state policy.

The European experience shows that integration usually begins with economic cooperation and later moves towards political and institutional levels. This process strengthens trust among states and contributes to long-term sustainable development. The Central Asian region has special importance because of its geopolitical location, natural resources, and historical heritage. In ancient times, this area was located at the center of the Great Silk Road, and today it continues to serve as an important bridge between East and West.

In recent years, relations among the states of the region have improved significantly. Borders have been opened, trade volumes have increased, and political dialogue has become more active. This indicates that a new stage of integration is beginning in Central Asia.

Main Body. The concept of regional integration occupies an important place in the theory of international relations. States seek mutual cooperation in order to implement their interests more effectively. Especially as economic ties develop, political rapprochement also becomes stronger. This process is also relevant to Central Asia, because the states of the region are closely connected through natural resources, transport systems, and trade relations.

Central Asia has significant geo-economic potential. The region is rich in energy resources and has opportunities in oil, gas, and hydropower. Agriculture also plays an important role. These factors create a strong foundation for the development of economic cooperation. The development of transport and logistics infrastructure increases trade volumes among states and integrates the region into global markets.

Security issues are also an important component of integration. Central Asian states face common threats. Terrorism, extremism, drug trafficking, and problems related to water resources encourage states to act together. Therefore, strengthening cooperation in the field of security serves as an important tool for ensuring regional stability.

Cultural and historical closeness also makes regional integration easier. The peoples of Central Asia share a common history, language connections, and values. This strengthens mutual trust among states. Cultural relations and people-to-people diplomacy are considered important elements of the integration process. Regional trade and economic integration processes have become considerably more active in recent years. The growth of trade volumes strengthens economic interdependence among states. This leads to economic growth and the creation of new jobs. Simplifying customs procedures and reducing trade barriers would further accelerate this process.

The issue of water resources has special importance for Central Asia. The states of the region use shared rivers, which increases interdependence. At the same time, disagreements over water use can create problems. Environmental issues, especially the Aral Sea crisis, are among the urgent matters that require regional cooperation. Political trust among states is a key factor in integration. In recent years, high-level meetings and stronger open dialogue have been assessed as a positive trend. This shows that a new political environment is forming in the region.

Tourism is also one of the important directions of integration. The region's rich historical and cultural heritage creates major opportunities for tourism development. Economic benefits can be achieved through joint tourist routes and the development of infrastructure.

Labour migration is another important aspect of regional cooperation. The free movement of labour has a positive impact on economic development. At the same time, protecting the rights of migrants remains an important task. Digital technologies are opening a new stage of integration. E-commerce, online services, and digital systems accelerate economic relations. This brings the region closer to the global economy.

Cooperation in education and science is also very important. Student exchanges, joint scientific projects, and academic cooperation create long-term trust among states. This helps ensure the stability of integration. The success of regional integration depends on the strength of institutional foundations. Joint organisations and coordination mechanisms help develop cooperation in a systematic way.

Overall, integration in Central Asia is a multi-dimensional and complex process. It includes economic, political, social, and cultural factors. The combination of these factors ensures the sustainable development of the region. Central Asian

regional integration is an important object of study in the theory of international relations. Several classical theoretical approaches serve as a basis for understanding integration processes. According to the theory of neofunctionalism developed by Ernest B. Haas, economic cooperation gradually leads to political integration. In this process, the "spillover effect", meaning the expansion of cooperation from one field to other fields, plays an important role. This theory is especially relevant in the context of Central Asia because economic interdependence has already begun to take shape.

The theory of "complex interdependence" developed by Robert Keohane and Joseph Nye is also suitable for the region. According to this theory, states are connected not only through political channels but also through economic and social channels. This situation is clearly visible in Central Asian states through energy, transport, and trade systems. The more interdependent states become, the lower the probability of conflict becomes.

The "Regional Security Complex Theory" developed by Barry Buzan and Ole Wæver is also important for Central Asia. According to this theory, the states of a region form a system that is interconnected in terms of security. In other words, instability in one state also affects others. Therefore, security issues should be solved not separately but at the regional level.

From a geo-economic point of view, Central Asia has great strategic importance as a "transit region". Edward Luttwak explains the concept of geo-economics as achieving geopolitical goals through economic instruments. From this perspective, Central Asia serves as a logistics bridge between Europe and Asia. China's Belt and Road Initiative (BRI) is also based on this strategic logic.

In terms of economic integration, the stages of integration model developed by Bela Balassa is important. According to this model, integration begins with a free trade area and then develops into a customs union, a common market, and eventually an economic union. At present, the Central Asian states are mainly at the stage of free trade and bilateral economic cooperation. Therefore, institutional foundations are necessary in order to move to the next stages.

Although the economy of Central Asia is rich in resources, the share of intra-regional trade remains relatively low. According to World Bank data, the share of trade within the region makes up only a small part of total foreign trade. This shows that the region's integration potential has not yet been fully used. High transport costs and differences in customs systems are noted as the main barriers.

Interdependence is also strong in the energy sector. Central Asia has a complementary system in terms of hydropower and hydrocarbon resources. For example, upstream states manage water resources, while downstream states possess energy resources. This creates a model of "resource interdependence". If this system

is managed properly, it can become a source of cooperation rather than conflict. From the security point of view, Central Asia is considered a “buffer zone”, meaning an intermediate area between major geopolitical powers. Russia, China, the United States, and the European Union approach this region with different strategic interests. For this reason, the states of the region are required to conduct a “multi-vector foreign policy”. This allows them to maintain independence and preserve balance.

Culturally, Central Asia is viewed as a “civilizational space”. According to Samuel Huntington’s theory of the clash of civilizations, cultural closeness makes political integration easier. The common history, Islamic values, and Turkic roots in the region create a social foundation for integration. In recent years, the emergence of diplomatic platforms in the “Central Asia Plus” format has shown that the integration process has entered a new stage. This format strengthens coordination within the region together with external partners.

At the same time, institutional weakness remains one of the main problems of integration. The lack of strong regional organizations, the complexity of decision-making mechanisms, and the fact that political trust has not yet fully developed slow down the process. Thus, Central Asian integration is a multi-layered process formed through the interaction of economic, political, security, and cultural factors. The success of this process depends on a step-by-step approach, a strong institutional foundation, and mutual trust.

Conclusion. The Central Asian region has great opportunities for integration. The improvement of relations among states in recent years shows that the prospects of this process are high.

Through economic cooperation, political trust, and the provision of security, the region can achieve sustainable development. In the future, Central Asia is likely to become an integrated region that occupies an important place in the global system.

References:

1. World Bank. (2023). Central Asia Economic Update.
2. Asian Development Bank. (2022). CAREC Program Reports.
3. United Nations. (2022). Regional Cooperation in Central Asia.
4. SIPRI. (2024). Reports.
5. Haas, E. B. (1958). The Uniting of Europe.
6. Keohane, R. O. and Nye, J. S. (1977). Power and Interdependence.
7. McCormick, J. (2011). The European Union.
8. Allison, R. (2014). Journal of Eurasian Studies.
9. Laruelle, M. (2018). Central Asia in Global Politics.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОГО СООБЩЕСТВА В УСЛОВИЯХ СИСТЕМНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ МИРОВОГО ПОРЯДКА

Мирзаахматов Н.
студент направления Международные отношения,
Diplomat University
Ташкент, Узбекистан

Основная часть. На фоне усиления международной конкуренции, ослабления глобальных механизмов управления и роста транснациональных угроз государства Центральной Азии всё в большей степени заинтересованы в развитии устойчивого регионального сотрудничества. В этих условиях формирование Центральноазиатского сообщества рассматривается как важный шаг, направленный на укрепление стабильности, повышение самостоятельности региона и углубление координации между странами.

В условиях ускоряющейся трансформации мирового порядка и роста стратегической неопределённости регион Центральной Азии приобретает всё более заметное значение в системе международных отношений. Расположенный на пересечении ключевых транспортных, энергетических и историко-культурных маршрутов, он постепенно формирует предпосылки для усиления своей роли в формирующейся многополярной архитектуре.

Анализ процессов региональной интеграции традиционно осуществляется в рамках таких теоретических подходов, как неофункционализм, либеральный институционализм и межправительственный подход. Вместе с тем их прямое применение к условиям Центральной Азии представляется ограниченным. Неофункционализм предполагает постепенный «перелив» интеграции между различными сферами, что требует высокой степени институционализации и взаимозависимости. Межправительственный подход, напротив, делает акцент на сохранении национального суверенитета и рациональном выборе государств.

В этой связи Центральная Азия демонстрирует формирование гибридной модели регионализма, в рамках которой интеграция развивается не через передачу полномочий наднациональным структурам, а через согласование интересов и координацию действий. Такой подход позволяет выделить ряд принципов, на которых строится региональное взаимодействие: прагматизм, постепенность, функциональная целесообразность и чувствительность к вопросам суверенитета.

Дополнительное значение для понимания возможных траекторий интеграции имеет сравнительный анализ опыта других регионов. В частности, пример Совета сотрудничества арабских государств Персидского залива демонстрирует модель селективной интеграции, при которой государства сохраняют политическую самостоятельность, одновременно достигая значительного уровня координации в отдельных сферах. Это позволяет рассматривать возможность формирования эффективных региональных механизмов без создания жёстких наднациональных институтов.

В данном контексте предлагается функциональная модель Центральноазиатского сообщества, основанная на многоуровневом подходе к интеграции. Политико-институциональный уровень предполагает развитие регулярных механизмов координации, включая консультативные встречи глав государств, рабочие группы и экспертные платформы, функционирующие на основе принципа консенсуса. Экономико-инфраструктурное измерение связано с формированием условий для развития транспортных коридоров, снижением торговых барьеров и постепенным усилением экономической взаимосвязанности. В сфере безопасности особое значение приобретает координация усилий в борьбе с транснациональными угрозами, включая экстремизм, незаконный оборот наркотиков и нестабильность в сопредельных регионах.

Не менее важным является культурно-гуманитарное измерение, предполагающее развитие образовательных программ, академической мобильности и культурного взаимодействия, что способствует формированию устойчивых связей между обществами региона. В экологической сфере ключевым направлением выступает координация действий по управлению водными ресурсами и реагированию на климатические изменения, что имеет принципиальное значение для долгосрочного устойчивого развития.
